O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda ta'lim shakli, metod va vositalarning ahamiyati katta. Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bilim, ko'nikma va malakalarini bo'lajak faoliyat sohasi talablari asosida shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, no'anaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun turtki bo'ladi.

Ta'lim jarayonining mazmuni asosida ta'limning shakl va metodlari belgilanadi. Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning hal etilishi mashg'ulot mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, ularda chuqur bilim dunyoqarashni hosil qilish ishiga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning hal etilishi mashg'ulot mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, ularda chuqur bilim dunyoqarashni hosil qilishiga xizmat qiladi.



Shu o‘rinda hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda.

Interaktiv mashg‘ulotning asosiy metodlariga: “Aqliy hujum”, “Ishchanlik o‘yini”, “Rolli o‘yin”, “Munozara”, “Taqidiy fikrlash”, “Bumerang”, “Arra”, “Zanjir”, “Sinkveyin”, “Pinbort”, “Muzyorar” va h.k.

Shuni ta’kidlash joizki, interaktiv mashg‘ulotlarda shakl va metodlar birgalikda mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishdagina ajratish mumkin. Interaktiv mashg‘ulotlar aniq rejalashtirilgan holda dars maqsadini belgilab, dars loyihasi ishlab chiqilgandan keyingina amalga oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quv jarayoni samaradorligini, kafolatini ta’minlashning yagona yo‘li ta’lim oluvchining shaxsiy faolligiga erishishidir. Buning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida, xususan, boshlang‘ich sinf tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari ishlarida pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2001.
2. Holmatov P. Q. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash. 13.00.02-Mehnat ta’limi nazariyasi va metodikasi. Ped. Fan. Nomz. Diss.Guliston. 2004.
3. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N. “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi” – T.: Ili-Ziyo 2009 y.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

**Baltayeva Gulzira Niyazmetovna**

16-son umumiy o'rta ta'lim maktabining  
ingliz tili fani o'qituvchisi  
Gulzirabaltayeva@gmail.com

**Karimova Feruza Bahodirovna**

Xiva shahar 18-son maktabining  
ingliz tili o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich, o'yin, ta'limiy, ta'lim

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibliigi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik so'zlarni dialog shaklida o'rganishdan boshladilar.

Shubhasiz, mamlakatimiz ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o'zbekcha subtitrlar yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o'tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfdan o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi? kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Bolalarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab Meva nomlari, Kasblar, Uy jihozlari kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterda rang-barang tasvirlarga uyg'un holatda ko'rsatilsa, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo



bo‘ladi. O‘quvchilar so‘zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta‘limni individuallashtirish printsipligiga e‘tibor berish lozim. Ayrim o‘quvchilar so‘zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o‘quvchining ingliz tilidan o‘zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarini topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfdan boshlab grammatikani o‘zlashtirishga qaratilgan boshqa ta‘limiy o‘yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, Kim savodxon?, Kim zukko?, Men kimman?, Zanjir, Rolli o‘yin, So‘z o‘rnini top kabi qiziqarli o‘yinlar shular jumlasidandir. Kim zukko? o‘yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog‘ozga 5-6 ta so‘z yozilgan bo‘lib, so‘zlar to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilardan noto‘g‘ri yozilgan so‘zni topib, to‘g‘ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o‘quvchi noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni to‘g‘ri va birinchi bo‘lib yozib berishga qarab o‘yin g‘olibi aniqlanadi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyojni to‘la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta‘minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «CHet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A.T va boshqalar Kids‘ English pupil‘ s book 2sinf –Toshkent —O‘zbekiston;2014
3. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. M.: Prosveshchenie,1991
4. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T., - 2003



## QIZ BOLANING KASBI UNING BAXTI

**Begmatova Muhayyo Valiqulovna**

Navoiy shahar 12-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998913319844 begmatovamuhayyo74@gmail.com

**Annotatsiya.** Qiz bolani kelajakda hayotida o'z o'rnini topishga o'rgatish

**Kalit so'zlar:** Dono, odob, sharafli kasb, samimiylik, insoniylik, shirinsuxanlik.

Insoniyatning muomala quroli til bo'lib, odamlar bir – birlari bilan bo'ladigan barcha muomala va muloqotlarini so'zlashish yordamida amalga oshiradi. Dono xalq so'zlash qoidasi, tilga ehtiyot bo'lish, har bir so'z, har bir jumlaning o'ylab gapirish, qisqasi – so'zlash odobi va muloqot madaniyati haqida juda ko'p ibratli hikmatlarni aytgan.

Bil, odamning sharafi va iftixori uning madaniy so'zlashishidir. Kimki so'zlash odobiga rioya qilmasa, u insoniylik sharafindin bebahra qoladi.

Gap o'rinli va ma'noli aytilgan bo'lsa, uni jim turib tinglamoq foydalidir.

Agar sendan so'zlash odobi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb javob ber:

Avvalo bemavrid gapirmaslik.

Ikkinchidan, lutf ila yumshoqlik bilan so'zlash.

Uchinchidan, ochiq chehra bilan gapirib, aftni burishtirmaslik;

To'rtinchidan, eshituvchiga malol kelmaydigan tarzda gapirish.

Beshinchidan, faqat foydali gaplarni gapirish.

Oltinchidan, o'ylab, andisha bilan so'zlash, o'ylamay aytilgan gap pushaymon keltiradi.

Yettinchidan, kishilar gapirayotganda oraga gap qo'shmaslik, so'zini bo'lmaslik.

Sakkizinchidan, ko'p gapirmaslik, zero bu fozillar ishi emas.

Agar sendan yomon so'z qaysi, deb so'rasalar, aytgilki, kishilarga zarar keltiradigan so'z yomon hisoblanadi.

Ey, o'g'il – qizlarim, tilga ehtiyot bo'linglar! Kishi dilini og'ritadigan, ko'ngilni qoldiradigan, izzat – nafsiga tegadigan, or – nomusi, sha'nini oyoq – osti qiladigan so'zni hech so'zlamanglar. Hamma vaqt shirinso'z bo'linglar. Og'izlaringizdan doimo yaxshi, ma'nili so'z chiqsin. Chunki, tildan yetgan ozor nayza ozoridan yomon...

"G'amxo'rlik bilan tarbiyalangan o'smir tez o'zlashtiradigan birinchi tuyg'u – bu muhabbat emas, do'stlik".

Do'stlik o'spirinlik davri emotsional bog'lanish va shaxslararo munosabatlarni muhim ko'rinishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda odamlar orasida jamiyatdagi yuqori texnikaning rivojlanishi, hayot ritmining tezlashishi va muloqot doirasining kengayishi zamonaviy yoshlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni o'zagi va tarqoq bo'lishiga sababchi bo'lmoqda.

"Do'stlik umumiy qiziqishlarga asoslangan oshnochilik munosabatlari tomonidan siqib chiqarilmoqda" degan fikrlarni ko'p eshityshimiz mumkin. Oddiy – axloq boyliklari har zamonda ham shunday sanalgan. Har doim ham yetishmaydigan bo'lgan.

Yigitlar do'stligi tabiatiga ko'ra yarim funksional. Bu esa 1 – navbatda uning tuzilishlari har xilligi bilan tushuniladi: Oddiy birga vaqt o'tkazishdan tortib, chuqur bir – biriga ishonish va sirlashigachan. Ammo asosida qandaydir birgalikda faoliyat yotgan jamoa munosabatlaridan farqli o'laroq, do'stlik avvalom bor, emotsional bog'liqlik hisoblanadi. Yigitlar do'stligining psixologik qiymati shundaki, u bir vaqtning o'zida o'zga insonning ham sirlashishi va ham tushunishi maktabidir.

Yoshlik psixologiyasida yoshlik odatda jinsiy voyaga yetish bilan boshlanadi. Kattalikning boshlanishi bilan yakunlanuvchi rivojlanish bosqich sifatida belgilanadi. Bunday birinchi chegara – fiziologik chegaradir. 2 – esa ijtimoiy.

Shaxsning taraqqiyoti uzluksiz bo'lishi bilan birga o'zining bosqich va davrlar mobaynida shaxsda kuchli ruhiy, ma'naviy va jismoniy o'zgarishlar bo'lib, uni ijtimoiy hayotning real subyekt sifatida shakllanishini belgilab beradi. Psixologiyada shaxsni ijtimoiy hayotga nisbatan tayyorlovchi va kelgusida ijtimoiy xulqning haqiqiy egasi sifatida namoyon bo'lishini belgilovchi ikki o'smirlik va o'spirinlik davrlari bir – biridan farqlanadi.

O'smirlik davri psixologiyasi va psixofiziologiyasi eng ko'p tadqiq qilingan masalalardan hisoblanadi. Ushbu izlanishlar mobaynida asosiy psixologik xarakteriskalar ko'rsatib o'tiladi.



Tarbiyaning muhim quroli nutq hisoblanadi. Shuning uchun ota – ona o‘z nutqida yoqimsiz iboralarni ishlatmasligi, mantiqsiz yoqimsiz ohang bilan bolalarni ranjitmasligi, ularga ishonch hissini vujudga keltirmaydigan, nosamimiy fikrlarni aytishdan saqlanishlari kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuxanlikka, samimiylikka, sof vijdonli bo‘lishga nima yetsin!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Odoynoma kitobi (4-sinf)
2. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 2019-yil
3. O‘qish kitobi (4-sinf)



## МАКТАВ О‘ҚУВЧИЛАРИНИ КАСБГА YO‘NALTIRISHDA PSIXOLOG XIZMATINING AHAMIYATI

**Bobomurodova Nasiba Mingnorovna**

Surxandaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani

63-umumta‘lim maktabi amaliyotchi psixologi

**Normurodova Maxzuna Askaralievna**

Surxandaryo viloyati Denov tumani

41-umumta‘lim maktabi amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo‘llari va maktab psixolog xizmatining o‘rni haqida qisqacha fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Psixolog, hujjatlar, ta‘lim, yosh kadrlar, ma‘naviy yangilanish.

Mustaqil mamlakatimizning ta‘limni isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hujjatlarida, Prezidentimiz asarlarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘yicha uzoq yillarga mo‘ljallangan dastur o‘z aksini topgan.

Ma‘lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta‘minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma‘rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga ta‘lim berish ularni o‘qitish bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo‘lib boraveradi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya‘ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrni o‘z

ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘lik emas, u ma‘lum yoshga kelib o‘z o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta‘siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta‘minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo‘llash imkoniga ega bo‘lamiz.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha pedagogik jamoa faoliyatining samarasi ko‘p jihatdan o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish borasida maktabda tashkiliy-pedagogik faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga; maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha o‘qituvchi faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishga;

- o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda nafaqat respublikamiz ilg‘or o‘qituvchilari, ayniqsa pedagogik jamoalari, balki xorijiy davlatlar erishgan yutuqlarni keng ko‘lamda o‘rganish hamda mazkur tajribalarni umumta‘lim maktablari, amaliyotiga joriy etishga;

- o‘quvchilarni kasb-hunar kollejlari o‘rgatilyotgan mutaxassislarga yo‘llash bo‘yicha oila, mahalla, uzluksiz ta‘lim tizimi, keng jamoatchilik, biznes markazlari, otaliq tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mehnat birjalari, o‘quv va biznes markazlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yishga;

- o‘rta maxsus, kasbhunar ta‘limi davlat standartlarida qayd etilgan kasb-hunarlar to‘g‘risida maktab o‘quvchilarining to‘la ma‘lumotga ega bo‘lishiga hamda o‘z fani bo‘yicha V-XI sinflarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish metodikasini qay darajada egallaganligiga;

- kasb-hunar kollejlari o‘rgatilyotgan kasb mutaxassislarga o‘quvchilarni yo‘naltirishda ularning shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlarini hamda ehtiyoj, intilishlarini maksimal darajada hisobga olish va hokazolarga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.



Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, V–XI sinflar o‘quvchilari bilan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilayotgan tarbiyaviy ishning mazmunmohiyati ular ongiga biror kasbni mukammal egallagan kishilargagina kelajakda mehnat huzur–halovat bag‘ishlashini, baxt keltirishini singdirishga qaratishni taqoza etadi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishining ilmiy-nazariy asoslarini, uning mohiyati, maqsadi, vazifasi va mazmunini chuqur o‘rganmasdan turib o‘z fani bo‘yicha dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb tanlashni rejalashtirish va o‘tkazish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallamasdan turib sezilarli muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shu sababdan ham xalq ta‘limi tizimi uchun kadrlar tayyorlab berayotgan oliy o‘quv yurtlari oldida bo‘lg‘usi bakalavrlarni maktabda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishini muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash kabi davlat ahamiyatiga molik vazifa turadi.

O‘quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash bo‘yicha butun pedagogik jamoaning olib boradigan ishi o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mas‘uliyatli davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishda tabiiymatematika va mehnat ta‘limi o‘qituvchilari muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlashda, ularning qobiliyati va moyilligini har taraflama rivojlantirishda tabiiy-matematika va mehnat ta‘limi o‘qituvchilari o‘zlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishlari zarur.

Ta‘lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma‘lumotlarni muayyan mavzularga bog‘lagan holda o‘quvchilarga yetkazishi lozim. O‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to‘garaklar alohida o‘rin egallaydi. Bunday to‘garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta‘limi o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to‘garaklarni kiritish mumkin. O‘qituvchi bunday to‘garaklarda o‘quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o‘qituvchisi o‘z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o‘rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o‘qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o‘quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar kollejlari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o‘quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatleri orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

O‘qituvchining o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o‘quv fanlari o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg‘unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

- turli o‘quv fanlari, fan to‘garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- kasbiy ko‘nikmalar yordamida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;
- o‘quvchilarning muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishlarini ta‘minlash;
- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo‘lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o‘quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;
- o‘quvchilarni munosib kasb-hunarga yo‘naltirish maqsadida, maktab o‘qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish. Bunday hamkorlik natijasida o‘quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan kasblar targ‘ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi.

Maktab amaliyotchi psixologi o‘z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- o‘quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;
- kasblarning demografik xususiyatlari haqida ma‘lumot berish;
- o‘quvchilarni kasbga yo‘llash bo‘yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;
- o‘quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo‘yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;
- o‘quvchilarni o‘z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o‘rni haqida malumot berish;



- o‘quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo‘llash bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish;
- o‘quvchilarni noto‘g‘ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;
- o‘quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va sinab ko‘rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;
- o‘quvchilarni to‘g‘ri kasbga yo‘llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish;
- o‘quvchilarni kasbga yo‘llash jarayoni samaradorligini ta‘minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;
- o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o‘tkazish va h.k.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ‘ibot- tashviqot ishlarning o‘z ahamiyati bor. Chunki barcha o‘quvchilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi. Buning o‘ziga yarasha turli xil sabablari bor. Bu o‘rinda men o‘zim ishlayotgan maktab bitiruvchi sinf o‘quvchilari bilan davra suhbatlari, anketa surovnomalari o‘tkazdim. Masalan:

*Kasbga yunaltirishni qachondan boshlash kerak?* degan savolga quyidagi diagrammadagi ko‘rinishda javoblar olindi. O‘quvchilarning 57 %i maktabdanoq kasbiy yo‘naltirishni amalga oshirishni boshlash kerak deb hisoblaydi. O‘quvchilarning 22 %i buni bog‘cha paytidan boshlash kerak, 14 %i esa tanlash bosqichini kolledjdin boshlash kerak deb hisoblaydilar.

*Kasbga yo‘naltirishni kim amalga oshirishi kerak degan savolga o‘quvchilarning javobi qo‘yidagicha taqsimlandi:* psixologlar (32 %), o‘qituvchilar (28%) va ish beruvchilarning o‘zlari (13%). Bundan tashqari, 13%i bu ishni aholi bandligini ta‘minlash markazi zimmasiga topshirish kerak degan fikrni bildirishgan. “Boshqa” javob variantini tanlagan ishtirokchilarning 14%i, quyidagi javob variantlarini berdilar: ota-onalar, shaxsning o‘zi, yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasi, ota-onalar o‘qituvchilar bilan birgalikda, ushbu masalada ko‘plab tuzilmalarning integratsiyalashgan yondashuvi va sherikligi bo‘lishi zarur.

Maktab psixologi – yosh avlodni katta hayotga to‘g‘ri yo‘naltirishda ota-ona va o‘qituvchi bilan barobar ahamiyatga ega shaxs. Murakkab davr – o‘smirlikka qadam qo‘yayotgan bola, shaxs sifatida shakllanayotgan o‘smirning o‘z olamidagi muammolariga yechim topishi uchun yordam berishda maktab psixologining roli katta.

U o‘z amaliy faoliyatidan kelib chiqqan holda psixologlar duch kelayotgan muammolar:

- Bugungi kunda maktablarda psixologning foydasi amalda juda kam. Birinchidan, bu oliy ta‘lim tizimida psixolog kadrlarni tayyorlashdagi muammolar bilan bog‘liq;
- Psixologik mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun alohida soat ajratilmagani psixolog-o‘quvchi munosabatlarini tashkillashtirish uchun imkon qoldirmaydi.
- Psixolog xonasi 15-20 kishi sig‘imida bo‘lishi lozim. Nega? Chunki oddiy dars xonalari trening o‘tkazishga mo‘ljallanmagan. Bundan tashqari, psixolog xonasi keng, yorug‘, shinam, o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan bo‘lishi lozim.
- Psixologlar soni o‘quvchilar soniga muvofiq bo‘lmasa, tabiiyki, qamrov ham, o‘quvchilar bilan ishlash sifati ham shunga yarasha bo‘ladi.
- Ilmiy manbalarda psixolog mavqe jihatdan maktab direktoriga teng bo‘lishi, rahbariyat u bilan maslahatlashgan holda ish ko‘rishi kerakligi ko‘rsatilgan.

Umuman olganda, maktablarda psixologning mavqeyini oshirish, uning o‘z faoliyatini samarali tashkil qila olishi uchun muhit yaratish masalasi, ayniqsa, e‘tibor kamroq bo‘lgan tuman hududlarida tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Chunki psixolog o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni chindan ham uddalay olsa, keyinchalik kattalashib ketishi mumkin bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy muammolarni birinchi bosqichlardayoq profilaktika qilish mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tishimiz joizki yoshlarimizni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta‘kidlab o‘tmoqchiman. Inson to‘g‘ri kasb tanlash orqali o‘z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. O‘quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash. -T.: O‘qituvchi, 1991.



2. Ro‘ziev N.E. Kichik mutaxassislar tayyorlash muammolariga . //Kasb-hunar ta’limi/ 2004, №6.-B. 66-67.
4. Shodiyev N. Yoshlarga ajdodlarimizning ilmiy merosi haqida. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 112 b.
5. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2003. 156-b
6. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
7. Maxmudova .D. “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash”. Xalq ta’limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.
8. X.M.Youldasheva. Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishning ayrim jihatlari haqida. «Science and Education» Scientific Journal – 2020.

#### **Foydalanilgan internet resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)



## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА УРОКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Чулиева Халима Джуракуловна**  
Учитель начальных классов 28-школы  
Кызылтепинского района, Навоийской области

**Аннотация:** В статье рассматривается организация учебного процесса у младших школьников. Эффективное использование интерактивных методов и технологий.

**Ключевые слова:** начальное образование, инновационные методы, педагогические технологии.

Сегодня учебный процесс - это один из современных методов обучения, педагогическая наука личностный и грамотный подход с использованием передовых достижений такие задачи, как создание теории начального образования на основе, остаются актуальными.

Одна из основных задач начального образования - уметь творчески и логично мыслить. Потенциал, умственное развитие, мировоззрение, коммуникативная грамотность и самость это формирование познавательного потенциала. Будущее общества и государства во многом молодое зависит от того, какое образование и воспитание. Потому что молодые люди находятся в процессе непрерывного образования активен в различных социальных отношениях в обществе. Непрерывное образование в процессе система важна. А начальное образование - это начало системы образование важно.

Активное использование передовых педагогических технологий в учебном процессе, эффективность обучения улучшение, анализ и внедрение - одна из актуальных тем сегодня. Развивать кругозор студентов, дать им возможность свободно слушать сделать его участником чрезвычайно важно. Учитель - руководитель класса, ученики и стань участником. В преодолении этой ситуации есть много инноваций дает многогранный эффект. Обязанности учителей начальной школы бесконечны. Сегодня молодые люди зрелые, знающие и творческие во всех отношениях в период обновления и духовного роста воспитание - одно из основных требований сегодняшнего дня. Такие ответственные и почетные обязанности. Роль и роль учителя начальных классов в решении этой проблемы велика.

Учитель начальной школы должен следить за тем, чтобы ученики не попали в одну и ту же ловушку во время урока с повсеместным внедрением передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий вместе, игровые формы обучения за счет эффективного использования мультимедийных разработок и продемонстрировать свою компетентность, умение использовать медиа-технологии сможет сделать.

Обновления системы начального образования включают изменения в ее содержании, структуре, методы необходимо пересмотреть и улучшить. В данный момент

Самая распространенная модульная система в системе начального образования - рейтинговое оценивание, педагогические технологии, в том числе тесты. Внедрение педагогических технологий в учебный процесс для повышения эффективности обучения. Неустанные исследования стали необходимостью сегодня. Сознание и мышление ребенка обретают форму навыки учителя в следующих начальных классах, его педагогические технологии уметь умело применять в учебном процессе, искать новые способы и средства обучения, продвигать очень важно уметь творчески использовать педагогический опыт.

Современный учитель учит своих учеников с творческой точки зрения в науке. формировать их взгляды, формировать в них качества любознательности и, конечно, новые. Придется организовать занятия методами педагогической технологии. Вот и все для чего он должен быть хорошо знаком с новыми методами обучения.

Современные педагогические технологии - это все составляющие образовательного процесса; образование правила, содержание, методы, инструменты и формы умственной деятельности ученика и учителя.

четкие цели по наращиванию потенциала и выполнять их - это высокоразвитая технологическая система, гарантирующая ее реализацию. Инновационный Одно из преимуществ техники - интерактивные методы.

Должен уметь оценивать, обладать острым умом, сильной волей, словом, обладать высокой интеллектуальной силой. Для этого нам необходимо вводить новшества в системе образования.



## О‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA PSIXOLOGNING IJODIY YONDASHUVLARI

**Chorieva Sarvinoz Abdurashidovna**

Surxandaryo viloyati Termiz tumani  
21-umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

**Bobomurodova Nodira Abdurasulovna**

Surxandaryo viloyati Angor tumani  
14-umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishdagi pedagogning ijodiy yondashuvlari hususida tahliliy hulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Psixologik yondashuv , yosh avlod , kasb- hunar , ilmiy- analiz tizim.

Kasb-hunarga yo‘naltirishdan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo‘naltirish orqali, bo‘lajak kasbiy qarorlarni shakllantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb –hunarga yo‘naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o‘quvchi shaxsini kasbga yo‘naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq xo‘jaligi manfaatlarini nuqtai nazardan mehnat reurslarini to‘laqonli ta‘minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogic asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o‘quv qo‘llanmalar, dars ishlanmalari, ko‘rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me‘yoring belgilanganligi, kasb tanlash bo‘yicha tezkor aloqning o‘rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir. Kasb tanlash uchun o‘quvchi o‘z imkonoyatlarini baxolay olish ko‘nikmasiga, ya‘ni qiziqishi mos kasblar bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan habrdor bo‘lishi zarur. Ushbu talablaardan kelib chiqqan holda, birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning 2006 yil 27 iyuldagi “Umum ta‘lim maktablari bitiruvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta‘lim olishlarini kengaytirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-427-sonli qarorida uzluksiz ta‘lim tizimida maktab bitiruvchilarining o‘z kasbiy qiziqish va layoqatlari asosida ta‘limning keyingi turi va bosqichlariga jalb qilinishi, o‘zining tayyorlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri va samarali yo‘naltirishning muhim masalasi sifatida qabul qilindi. Mazkur hujjatlar mazmunida qayd etilganidek “umumta‘lim maktablarida o‘quvchi yoshlarni kasb –hunarga yo‘naltirish bu ularni qiziqishlari va mayilliklari, layoqatlari hamda qobilyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish bilan bir qatorda o‘smirlarni kasbiy o‘zligini anglash va hayot yo‘lini tanlashda maslaxat beruvchi omil” sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Hukumat qaroralarining ijrosini ta‘minlash yuzasidan o‘quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakllantirishda, ularni ta‘limning keying turiga to‘g‘ri jalb qilish uchun kasbga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan o‘quv –metodik qo‘llanmalar, ilmiy –uslubiy tavsiyalar, me‘yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo‘lgan hamda yangilanib, o‘zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma‘lumotlarni ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog‘liqdir. Shu bois ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimida tashkil etilgan huquqiy me‘yoriy hujjatlar mazmunini yanada takomillashtirish vazifalarini hal etishi borasida bir qator ilmiy-amaliy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta‘lim maktablari o‘quvchilarning qiziqishlari va mayilliklari, tug‘ma layoqatlari hamda qobilyatlarini aniqlash borasida “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”ning yangi taxrirdagi majmuasi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori loyihasi muhokamaga qo‘yildi. Mazkur loyihadagi hujjatda:

- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o‘quvchilarni 7-sinfdan boshlab kasb-hunar egallash va Internet tarmog‘i orqali xizmatlar ko‘rsatish (ishlar bajarish) yo‘li bilan o‘zini o‘zi band qilish (frilansing) yo‘nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o‘quvchilarning ma‘lumotlari bazasi yaratiladi;

- kasb-hunar egallash va frilansingga qiziqishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar ma‘lumotlar bazasini



umumiy o'rtta ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligi elektron bazasi bilan integratsiya qilish hamda onlayn monitoring olib boruvchi axborot tizimini yaratish ko'zda tutilgan;

- umumiy o'rtta ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinf dan so'ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib boriladi;

- Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar asosida kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan 10-sinf o'quvchilariga ularning qonuniy vakili roziligi asosida kasb-hunar va frilansingga o'rgatuvchi barcha davlat va nodavlat tashkilotlarda o'qish xarajatlarini qoplovchi hujjatlar (vaucherlar) beriladi;

- bitiruvchilar uchun tegishli kasblar bo'yicha o'quv reja va dasturlar, amaliyotlar o'tash tartibi, o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish;

- Loyiha asosida Yangi tizim asosida o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish hamda Yangi tizim asosida 10–11-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish mexanizmlari tasdiqlanadi.

Hujjat asosida Xalq ta'limi vazirligi Yoshlar ishlari agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Namangan viloyati va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Kasbga tayyorlash namunaviy markazlarini tashkil qilinadi.

O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakillantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lgan layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokozalar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib, uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

O'quvchi-yoshlar o'rtasida kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra texnologik bo'lishi lozim. Chunki muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to'g'risida oldindan to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish imloniyatini beradi. Minglab kasblar olamidani o'quvchi tanlagan kasbiy qarori bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lgan kasbiy sifatleri hisobga olish va ularni boyitish xususida qat'iy fikrga ega bo'lishi, kasb-hunarga yo'nalganligini samaradorligini muhim omillari bo'la oladi.

Keltirilgan tuzilma mohiyatidan aniqlanadiki, o'quvchilarni bo'lajak kasbiy qarorlarini shakillantirishda ijodiy texnologik yondashuv asosida tashkil etish birinchi navbatda muayyan mavzu bo'yich kamyuterda programlashtirilgan dars rejalashtirishi talab etiladi. Nazarda tutilgan darsni o'tkazilishidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni ta'limning keying turi va bosqichiga ongli ravishda jalb etish hamda turli kasblar orasidan tanlangan kasbi orqali kelajagi haqida tasavvur hosil qilish. Ushbu maqsadga erishish imkonini berish uchun ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning qat'iy, aniq va ravshan belgilab olishi, dars mazmuni (senarisi)ning puxta ishlab chiqilishi, shakillantirilgan mazmun mohiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul shaxs metod va vositalarning to'g'ri tanlanganligini taqoza etadi. Ikkinchidan dars jarayoning asosiy sub'ekti sifatida kasb-hunarga yo'naluvchi shaxsning nomoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Uyishtirilayotgan darsning umumiy natijasiga ma'sullik kasbga yo'naltiruvchi va amalyotchi psixologlar zimmasiga yuklanishi darkor.

Shunday sharoitdagina o'quvchilar shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish, o'z fikirini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'lalilar. Zero, kasbiy pedagogik texnologiya (kasblarni kamyuterda programmallashtirilgan versiya) larning afzalligi osib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikir egasi, erkin, shuningdek kelajagi haqida aniq tasvurga ega shaxs bo'lib tarbiyalanishlarini ta'millashga yo'naltirilganligidir.

Yoshlarga ta'lim –tarbiya beruvchi o'qtuvchi, ustoz, murabbiy, ta'lim hodim, mutaxassis, raxbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar soxibi bo'lishi lozim. Darhaqiqat o'quvchi yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashni, uni o'rganish, malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga talim-tarbiya beruvchilarning ma'lakali mutaxassis bo'lib yetishida ta'lim-tarbiya beruvchilarning ma'naviyasi axloqiy fazilati bilimda maxorati mehnat sevarligi fidoiyiligi bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy komolati muhim ahamatga ega. Shuningdek ularning kasb madaniyati ham alohida o'rin tutadi. Zero mutaxassis hodimning maxoati yoki kasb madanyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

Ma'lumki, hamma kasblar uchun bir xilda ta'luqli bo'lgan odob-qoidalar yoki madaniyat



mavjud. Masalan, o'qituvchining kasb madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchi nafaqat bilimdon, balki tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli ham bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning buyuk kelajakini yaratuvchi yoshlarni tarbiyalovchi mutaxassis xodimlar, eng avvalo, insoniy sifatlar sohibi bo'lishi, kasb madaniyatini mukammal egallashlari lozim.

Pedagog kadrlarni kasb mahoratini oshirishni, kasb madaniyatini yuksaltirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Buning uchun esa o'quv tarbiya muassalarda o'qituvchining kasb mahorati va kasb madaniyati haqida tez-tez kengash va suhbatlar o'tkazib turish ma'ruzalar o'qish foydadan holi bo'lmaydi. O'qituvchilar zamon talablaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyati va bilimlarini nazorat qilish va baholash, xatolarini tahlil qilish, o'ziga o'qituvchilik sifatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini qayta tayyorlash va tarbiyalash imkoniyatlariga duch keladi. Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya ishi nafaqat vatanimiz kelajaki bo'lishi yoshlar hayotida, balki har bir kishi faoliyatida, umuman jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tizimda o'ta ahamiyatlidir. Ta'lim-tarbiyasiz kelajakda o'z samaralarini beruvchi islohat yo'q. Axloq va madaniyatni yuksaltiruvchi vosita ta'lim-tarbiyadir madaniyatsizlik esa illat. Ijtimoiy hayotni takomillashtirish uchun insonning o'zi axloqiy jihatdan komol topishi lozim inson butun hayoti orqali butun umri mobaynida tarbiyalanadi. Inson o'z umrining har bir davri, yani bolalik, o'smirlik, yoshlik, yetuklik, qarilik chog'ida o'ziga xos axloqiy olamga ega bo'ladi. Buni yaxshi tushunmagan kishi turli yoshdagi odamlar bilan muloqat qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Kasb madaniyati yuksak insongina turli yoshdagi kishilar ko'ngliga to'g'ri yo'l topa oladi, samarali yutuqlarga erishadi. Kasb madaniyatining rivojlanishi shaxs va ijod erkinligiga umumiy madaniyatdagi izchillik va an'anaviylikka bog'liq.

Aks holda kasb madaniyati rivojlanmaydi, inqirozga yuz tutadi. Qanchadan qancha madaniyat nomoyondalari ko'plab ijod axli kasb madaniyati yaratish huquqidan ma'lum bo'ladi. Chunki ma'naviy ishlab chiqarish ijod qilish yaraqtish ham mafkuralashtiriladi.

Kasbiy madaniyatga hamisha uni shakillantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'ladi. U hamisha g'oyalari, bilimlar, inson maqsadlarining ramziy ifodasidir. G'oyasiz, bilimsiz, maqsadsiz, kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma'naviy madaniyat maxsuli esa moddiy shakldagina o'z ifodasini topadi. Ular huddi ana shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy hayot damiga aylanadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytishimiz mumkinki, kasb madaniyati yoki madaniyatning har qanday tashqi ifodalanishini insonning rivojlanish yoki kamolati darajasi ko'rsatadi. Demak madaniyat inson kamolatining o'lchovi, inson o'z-o'zini faoliyati jarayonida madaniy tarixiy mavjudot tarzida shakillantiradi. Biologik nuqtai nazardan qaraganda, inson ma'lum tuzilish, vazifa qobilyatga ega bo'lgan organizimdan boshqa xech narsa emas, shuning uchun ham madaniyat insondagi insoniylik o'lchovi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Albatta bilamizda. Siz yaxshisi kasb-hunar kolleji o'qituvchilariga kasb madaniyati qanday qilib shakillantirish borasida so'zlab bering. Xo'sh qanday kishini madaniyatli inson deya olamiz? Madaniyatlilik komillik belgisimi. Kasb madaniyati nimaning hosilasi. U holda komil inson bo'lish osonmi. Xullas savollar ketidan savollar tug'ilaveradi. Xonada bir zum sukut hokum suradi. So'nglar faol tinglovchilar savolga turlicha javob bera boshlaydilar, yaxshi kiyingan xushmuomala inson madaniyati....

Halol - tartib intizomli, oily janob, mehnatkash.....

Rahm-shavqatli, marxamatli kasb madaniyati.....

Kasb madaniyati kasbga, mehnatga, ijodga, ish jarayoni va odamlarga bo'lgan munosabatlar asosida shakillanadi. Zero, kasbiy faoliyat shu ijodiy jarayon, munosabatlardan iborat. Endi kasb madaniyatini pedagogika nuqtai nazardan talqin etib ko'raylik. O'qituvchilik faoliyati, ta'lim -tarbiya, ma'rifat, ma'naviyat, o'qituvchilar bilan doimiy munosabatlar jarayonidan iborat. Umuman, madaniyatni ta'lim- tarbiyasiz, bilimsiz, ma'rifatsiz, ma'naviyatsiz, ijodsiz ta'savvur etib bo'lmaydi. Barcha munosabatlarga, moddiy va ma'naviy qadryatlarning asosini, insonning insoniylik sifatleri mazmunini jamiyatning taraqqiyot, ta'lim- tarbiya darajasi, fan imkoniyati, ma'rifat va madaniyat kuchi belgilab beradi. Inson qaysi kasb yoki hunar bilan shug'ullanmasin, doimo munosabat bo'ladi, bu munosabat darajasi, tartibi, saviyasi, uning madaniyatini qay darajada o'zlashtirib olganiga bog'liq. Kasbga o'rganish ham madaniyat va bu jarayonlardagi o'zaro munosabatlar ham madaniyatdir.

Kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi deyilganda ta'lim oluvchinalarning kelgusida kasbiy faoliyatida muhim bo'lgan shaxsiy sifatlarini, shuningdek, vazifaviy majburiyatlarni bajarishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish texnologiyasi tushiniladi.

Pedagogik amalyot ko'rsatki, kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalij va



konstruktivlashda o'qituvchining birmuncha samarali ishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'qitishning tashxisli maqsadlarini aniqlash, kutilayotgan natijani meyoriy ko'rsatkichlarga ifodalash;

- mutaxasining bo'lg'usi kasbiy faoliyati kontekstida o'qitish mazmynini asoslash;

- o'quv materiali tuzulmasi va axborot hajmi, shuningdek, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqador tuzilishini aniqlash;

- o'quv materialini o'zgartirishning talab etilgan darajasi va ta'lim oluvchilar bilimining boshlang'ich darajasini aniqlash;

- tajribaning egallashning maxsus didaktik vositalarini izlab topish, individual va jamoaviy o'quv faoliyatining tashkiliy shakl va metodlarini tanlash;

- o'zlashtirilgan tajribani yangi faoliyat sohasiga ko'chirish maqsadida sub'ekt-sub'ekt munosabatlari doirasida ta'lim oluvchilar bilan pedagogic o'zaro muloqat- faoliyatni tashkil etish mantiqini aniqlashtirish;

- dasturni o'zlashtirish sifatini nazorat qilish va baxolash vositalarini, shuningdek o'quv faoliyatini individual tuzatish (korreksiya) usullarini tanlash.

Taklif etilayotgan algaritimga mos holda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini loyihalash va konstruktivlash asoslarini qarab chiqamiz.

Kasbiy- yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini loyihalash va konstruktivlashning birinchi va hal qiluvchi bosqichi-bu maqsadlilik bosqichidir. U yaxlit didaktik jarayonning natijaviyligiga bog'liq. Bunda o'qitishning maqsadi pedagog tamonidan aniqlanadi. Bu yerda natijaviylik deyilganda ta'lim oluvchilarning belgilangan maqsadlarga erishish darajasi tushuniladi. Natijaviylik ta'lim muassasalari bitiruvchilarida shakillanadigan kasbiy ko'nikma va malakalar darajasiga ko'ra o'zgarib turadi.

Agar o'qitish tizimida ushbu shartlar amalga oshirilasa, shubhasiz o'qitish texnologiyasida maqsad aniq belgilangan bo'ladi. Pedagogik kuzatuvlar ko'rsatadiki, mavzu maqsadlari o'quvchi faoliyati, mavzu mazmuni, o'qituvchi faoliyati orqali, shuningdek, shaxsining emotsional holatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. B.M. Klarinning takidlashicha, mavzu maqsadlarini butarzdabelgilash o'qituvchiga darsni tashkil etish va boshqarish bo'yicha biror konstruktiv ko'rsatma bera olmaydi.

Maqsadlarni aynan aniqlash o'qitish mazmuni, metod, vosita shakllarni ishlab chiqish, shuningdek hayot talabalarini qondiradigan natijalarni nazorat qilish uchun zarurdir. Shu boisdan maqsadlar faqat nomlanmaydi, balki turlicha ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. (masalalarni yechish to'g'riligi ma'lumotnomadan foydalanish imkoniyati va boshqalar). Sinaluvchanlik o'quv maqsadlarini tarqoq holda emas, balki aniq ifodali zarurligini ko'rsatadi (qaysi darajada, nimani uddalash lozimligi va boshqalar). Tuzumlanganlik va to'liqlik o'quv fanlarining yaxlit (tizimli) ligi, uning mutaxassisni tayyorlash o'quv rejasidagi muayyan o'rin bilan bog'liq.

Dastlab didaktik maqsadlar aniqlanishi kerak. Ularga erishishi uchun ta'lim mazmuni belgilanadi.

Ta'lim mazmunining asoslash-didaktikaning muhim va ananaviy muammolaridan biri sanaladi. Ta'lim mazmunining ijtimoiy mohiyati va pedagogik voqelik ekanini etiborga olib, uni ta'limiy tizimiga qaratilgan ijtimoiy buyurtmaning pedagogik model sifatida aniqlash mumkin. Bu model ko'p darajali perarik tuzilmaga ega. Ta'lim mazmunini shakllantirishda o'ziga xos chegaraviy omil o'quv vaqti byudjeti, ta'lim muassasalarining o'quv-metodik va moddiy –texnika bazasi holati hisoblanadi. O'qitish mazmunini shakllantirish tamoyinlari va mezonlari o'qituvchiga o'quv jarayonida o'qitish maqsadlarini ilmiy asosda joriy etishga imkon beradi.

### Adabiyotlar

1. "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Xalq ta'limi" jurnali. 1997, 5-son. 4-6-b.
2. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Xalq ta'limi" jurnali, 1998, 1-son 3-39-b.
3. Karimov I.A. barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: 1997-64-b.
4. Azizxo'jayeva N.N "Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat" (o'quv qo'llanma) Toshkent 2003 y.
5. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Mehnat ta'limi (1-9-sinflar)

### Internet saytlar

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz



## NOTIQLIK SAN’ATINING XUSUSIYATLARI VA TURLARI.

**Fayziyeva Iroda Rustamovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21- maktabning  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Nutq - insonlarning til orqali bir - birlari bilan muomala va aloqa qilish usulidir. Inson nutq yordamida o‘zining fikri, his-tuyg‘ulari, mayl va istaklarini boshqalarga aytib beradi va boshqalarning fikrlarini, hoxish va istaklarini anglab oladi.

**Kalit so‘zlar.** Morfema, moddiy material, tovush, fonema, grammatik takror, badiiy takror, Sinonim, frazeologizm, nutq, o‘lik til, lotin, grek.

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash insonning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr almashuviga xizmat qiladi. Har bir kishining yoshiga, bilimiga, umuman madaniy saviyasiga qarab, uning nutqi o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Har bir kishining o‘z nutqi bor. Nutqda har qanday fikr mantiqan asoslangandagina uning ta‘sirchanligi kuchli bo‘ladi. Aniqlik izchillik va dalillilik - to‘g‘ri fikr yuritishning zaruriy xususiyatidir. Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir - biriga izchil suratda bog‘langan bo‘lishi lozim, fikr yurgizalayotgan mavzudan chetga chiqmaslik zarur, mazmunida ziddiyatlar va poyma - poy, dudmal gaplar bo‘lmasligi kerak. Hukmlar va xulosalar asosli bo‘lmog‘i lozim, yo‘qsa ishonarli bo‘lmay qoladi. Demak nutq – bu notiqning tinglovchilarga bilim, ko‘nikma va malaka berishi, ularda yangi haqiqatlarni ocha bilishiga qodir bo‘lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyasidir. Nutq boyligi tildagi imkoniyatlar, Ya‘ni boylikni unda qay darajada o‘z aksini topganligi bilan belgilanadi. Nutqda tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa bunday nutq boy nutqdir. Har bir kishi o‘z nutqiga e‘tibor qilsa, nutq tuzish ma‘suliyatini his etsa, nutqning boy bo‘lishini ta‘minlashi mumkin. Zero so‘zga, nutqqa e‘tiborsizlik bilan qarash uni qashshoqlashtiradi. Bu esa tilning qashshoqlashishi uchun ham sabab bo‘ladi. Adabiyotshunos O.Sharofiddinovning quyidagi fikrlariga e‘tibor qiling. “So‘z juda o‘jar narsa bo‘ladi. Unga befarq qarasang ma‘nosidan bir chimdim yashirib qolishiga, hamma rangni namoyon qilmaslikka urinadi. Shunday so‘zlar borki, ular kappalakga o‘xshab jumladan jumlagi yengil ko‘chib yuraveradi, tayinli xizmati bo‘lmaydi”. Til - ijtimoiy hodisadir. Tilning ijodkori xalqning o‘zidir. Har bir avlod o‘zidan oldingi avlod foydalangan muomaladagi tilga duch keladi va uni egallab oladi. Ya‘ni o‘zining nutqida shu tildan foydalanadi. Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, ayni vaqtda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, nutq va til bir-biriga bog‘langan, ular birgalikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash protsessida vujudga kelgan va o‘sib borgan. har bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuviga bog‘liq Agar odamlar biror tilda gaplashmay qo‘ysalar bu til yo‘q bo‘lib ketadi. M: qadimgi grek (Yunon), lotin tillari mana shunday o‘lik tillardir. Til nutq uchun moddiy materialdir. Bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo‘ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. Morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma‘lum tovush to‘plami (kompleks) namoyon bo‘ladigan so‘z Shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy materialidir. Bunda til bir tomondan hodisa bo‘lsa, ikkinchi tomondan ruhiy hodisadir, degan xulosa kelib chiqadi. Tilning ruhiy hodisaligi – uning ongda saqlanishidir. Moddiyligini esa nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud (real) tovushlar belgilaydi. O‘zbek tilida takrorning ikki turi mavjud. A) grammatik takror; B) badiiy takror. Takrorning birinchi turi grammatik ma‘no odatda ko‘plik ma‘nosini ifodalaydi; mashina-mashina qovun tushurdik. Takrorining ikkinchi turi badiiy takror turli hil ma‘nolarni ifodalaydi; Tong Yaqin, tong Yaqin, oppoq tong Yaqin. Yoki Ko‘m ko‘k, ko‘m ko‘k, ko‘m ko‘k ko‘klam quyoshidan ko‘kargan qirlar ko‘m ko‘k. Fonema grekcha “Pxonema” so‘zidan olingan bo‘lib - nutq tovushi degan manoni anglatadi har bir tilda fonemalarni ma‘lum miqdori mavjud. O‘zbek tilida 31 ta fonema bor. (6 unli 25 ta undosh) Fonemani tovushdan farqlamoq kerak. Fonema so‘zi ma‘nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi tildir. Sinonim so‘zi grekcha “Sinonimos” so‘zidan olingan bo‘lib bir nomli degan ma‘noni anglatadi. Sinonim so‘zlar nutqning ta‘sirli bo‘lishiga yordam beradi. Shakli har xil bo‘lsa ham, ma‘nosi bir-biriga Yaqin so‘zlar sinonim so‘zlar deyiladi. Qarama-qarshi manoli so‘zlar antonim so‘zlar deyiladi. Antonim so‘zi grekcha anti (zid, qarama - qarshi) va onim (nom) so‘zlaridan tuzilgandir. Odatda u yoki bu tilning boyligi gapirilganda asosan shu tildagi so‘zlar



ko'zda tutiladi. Tilda so'z miqdori qancha ko'p bo'lsa o'sha tilni boy til tarzida talqin qilish keng tarqalgan. Bu talqin ma'lum ma'noda to'g'ridir. Chunki tildagi so'z miqdori til boyligining ta'minlovchi asosiy omillarlan biri bo'lsa, til boyligi shu bilangina cheklanmaydi. Bu o'rinda albatta o'zbek tilining sinonimlarga frazeologizmlarga nihoyatda boy ekanligi ular ma'nolarining shuningdek, umuman o'zbek tilidagi so'zlarning ko'p manolilik darajasi nihoyatda yuqori ekanligi ham hisobga olinadi. Ma'lum hududdagina ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlar Shevaga xos so'zlardir. Yozuvchilar badiiy asarlarida qahramonlarning qayerlik ekanligini, tilidagi xususiyatlarini ko'rsatish uchun ularning nutqida ba'zan Shevaga hos qo'shimcha va so'zlarni ishlatadilar. O'zbek tilining mahalliy Shevalari ko'p. Ba'zan bir tushunchaning o'zi mahalliy Shevalarda har xil so'z bilan ifodalaniladi. M: Narvon – (Toshkentda) Shoti – (Farg'onada), Zangi – (O'rganchda) Nutq mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka (xaqiqatga) aylangan fikrdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
2. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T "O'zbekiston". 1981.
3. www.ziyouz.com



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

**Iminova Nodiraxon Bahodirovna**

Andijon viloyati Jalaquduq tumani

10-umumta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Ubaydullayeva Sevaraxon Abdumutalibovna**

Andijon viloyati Jalaquduq tumani

10-umumta'lum maktabi Biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim sohasidagi bugungi kundagi o'zgarishlari hamda ta'limning yanada samarali qilishda qanday usullarga ahamiyat berilishi kerakligiga oid fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlari:** ta'lim tizimi, variativ o'quv reja, kompetensiya, ta'lim standartlari.

Globalashuv jarayonida va raqamli texnologiyalar asrida mamlakatlarning aqliy salohiyatini o'stirishga yordam beruvchi strategiyalar ta'lim manbalari va ilmiy-tadqiqot ishlariga asoslanishini va shu asosda ishlab chiqilishini talab etmoqda. Ta'lim sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadi-ta'lim olish teng huquqligini ta'minlashdan iboratdir. Yurtimizda yoshlarning ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, Vatan oldida yuksak fuqarolik mas'uliyatini his qilish, jamiyat hayotini yurg'izuvchi kuch sifatida yashashga muntazam da'vat etish davlat siyosatlaridan biri bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganidek, *"Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azm-u shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish - biz uchun eng muhim masaladir"*, - deya alohida e'tibor qaratdilar. Shu asosda umumta'lim maktablarida bir qator islohatlar o'tkazilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi **"Xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga"** muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 15-iyunda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiya to'g'risida"gi 144-sonli buyrug'i imzolandi. Ushbu buyruq asnosida Xalq ta'limi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalar ixtiyoriy ravishda joriy qilinadi. 2020-2021-o'quv yilida variativ o'quv reja joriy etilgan ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari davom ettiriladi. Variativ o'quv rejalar tegishli yo'nalishi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-8-9-10-11-sinflarida 2020-2021-o'quv yili davomida tajriba-sinovdan o'tkaziladi.

Ta'lim jarayonida variativ o'quv rejani joriy etishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonida o'quvchining manfaatlarini inobatga olish;

- o'quv jarayoni pedagog tomonidan kompetensiyaviy asosda tashkil etilishiga erishish;

- o'quvchining o'zi qiziqqan fanlarni chuqur o'rganishga sharoit yaratish uchun variantiv o'quv rejalarini ishlab chiqish;

- maktab bitiruvchilarining ta'limning keyingi bosqichlarini davom ettirish, oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishni ta'minlash, shu bilan birga, ta'lim jarayoni bilan birga kasb ko'nikmasini shakllantirish;

- mamlakatimizda masofaviy mehnat sohaslarini rivojlantirishga ko'maklashish;

2020-2021-o'quv yilida davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida variativ o'quv reja joriy etilgan ayrim fanlar chuqur o'rganilishi "Yevropa sifati darajasidagi ta'lim" va milliy asoslarga tayangan holda o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va mashg'ulotlarni yangicha bosqichga olib chiqish uchun zamin yaratishi shubhasiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv reja asosida o'qitiladigan sinfga tanlov fanidan dars berish uchun yetarli malaka va tajribaga ega o'qituvchi bilan ta'minlanish zaruriyatga aylanadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: yetarli malaka va tajribaga ega fan o'qituvchisi qanday bo'lishi lozim? Ta'lim jarayonini olib borish davomida har bir o'quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, o'quvchiga ma'qullovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish unda qoniqish va manfaatlarini hisobga olish, fanlar kesimida o'tilayotgan darslar bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, tengdoshlari orasida qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik va o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish kabilar fan o'qituvchilari



tomonidan kompetensiyaviy asosda tashkil etilishini talab etadi. Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtayi nazaridan turib yondashilgan taqdiridagina amalda o'z tasdig'ini topadi.

O'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun juda ko'p ishlash kerak bo'ladi. Iste'dod o'qituvchi mehnatdan ozod qilmaydi, katta ijobiy yuksalish va tinimsiz mehnatni, o'z ustida ishlashni taqazo qiladi. Ta'lim muassasalarida ayrim fanlarni chuqur o'qitilishida o'qituvchi tomonidan zarur hollarda o'quv materiallarini o'zgartira olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq ma'lumotni tushunarli qilib o'quvchiga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim jarayoni ishlarining ko'lami va mazmuni qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yoshlar o'rtasida "ahamiyatli, salohiyatli kasb egalashda ehtiyojmand fanlar" tushunchasi borasida tub o'zgarishlar ro'y berayotganligi aniq.

Xulosa o'rnida shu aytish lozimki, hozirgi kunga kelib davlat siyosati darajasida juda keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, bularning hammasi yosh barkamol avlod sifatida o'sib kelayotgan, o'z metin salohiyatiga ega yoshlarning chuqur bilim egallash va zamonaviy kasb egasi bo'lishlariga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: 2012
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog- o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: 2008
3. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: 2012



## ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNING O'RNI.

**Kuvatova Gulsara Axatovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21- maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maktabda fan asoslarini egallash, ko'p jihatdan, ona tili ta'limining qo'yilishiga bog'liq. O'quvchilar tilga oid bilimlarni, asosan, dars jarayonida o'rganadilar. Ularga tildan beriladigan bilimlarni mustaqil ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar.** Pedagogika, dars jarayoni, K.D.Ushinskiy, Grammatik qonun-qoida, Ta'lim, didaktik prinspl, o'qitish metodi, induktiv, deduktiv.

Pedagogikada mustaqil ishlar muammosi juda uzoq tarixga ega. O'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish K.D.Ushinskiy pedagogik tizimining asosiy muammolaridan biri edi. U tarbiyachi o'z shogirdlarining mustaqil ishlashiga ko'proq imkoniyat yaratib bermog'i, o'quvchini tayyor xulosalar bilan qurollantirishga k o'ra, uning o'ziga xulosalar izlashni o'rgatmog'i kerak, — deb ta'kidlagan edi: «Grammatik qonun-qoidani o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'zi kuzatishini va xulosalashini istardik, o'quvchining umumiy taraqqiyotida grammatikaning asosiy ahamiyati ana shundan iborat». Ta'limda faollik va mustaqillik muammosi bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uzviy bog'langan pedagogik kategoriyalar hisoblanadi. Har qanday aktiv faoliyat asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Mustaqil ishlarsiz hech qanday faol faoliyat bo'lmaydi. Ammo bu faollik va mustaqillik bir xil tushuncha ekan, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Faollik mustaqillik tushunchasiga nisbatan ancha kengroq sohani o'z ichiga oladi. Faollik to'g'risida gapirganda, o'qituvchi tushuntirishi, ma'ruzani diqqat bilan tinglash, turli xil vositalar: ko'rgazma qurol, mustaqil ish yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda faollik bilan ishtirok etish, moddiy ne'matlamini ishlab chiqarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish kabilar tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot sohasida bo'lmasin, kishining ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning faolligini oshirishning asosiy vositalaridan biri sanaladi. Kishi mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallaydi. Kitob ustida mustaqil ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi, bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi. Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o'quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning yetakchi omilidir. Didaktika va xususiy metodikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlar muammosi uch tomondan talqin qilinadi: fan asoslarini egallashdagi mustaqillik — didaktik prinspl; mustaqil ishlash — o'qitish metodi; mustaqil ishlar — darsda tashkil etiladigan topshiriq — o'quvchi shaxsini shakllantirish vositasi. Umumiy ta'lim predmetlaridan biri sanalgan «Ona tili» o'quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materiallari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni til hodisalarini kuzatish, tahlil va qayta qo'shish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarni o'stiradi. O'quvchilarning mustaqil ishlari ona tili darslarining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir. Ilg'or o'qituvchilar darslarni ijodiy uyushtirishda o'quvchilarning mustaqil ishlariga tayanadilar. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, aksariyat o'qituvchilar mustaqil ishlarining o'ziga xos xususiyatlariga yetarli ahamiyat bermay, uni nafasni rostlab olish uchungina o'tkazadilar. Ba'zi maktablarda ona tilidan o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimi, hayotiy tajribasi, individual xususiyatlariga to'g'ri kelmaydi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati.

1. ABDULLAYEVA Q., RAHMONOVA S. Ona tili darslari (uslubiy qo'llanma). — T.; 1999.
2. JO'RAYEV K. To'rtinchi-yettinchi sinflarda ifodali o'qitish metodikasi. — T.: « O'qituvchi», 1970.
3. www.ziyouz.com



## METODIK TAVSIYA

**Махпуза Махамматқуллова**

Jizzax viloyati zafarobod tumani

4-umumiy o'rta ta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Fizika fani murakkab fanlar sarasidan biri, lekin qiziqarli va sirlidir. Shu fanni o'rgatish jarayonida o'qituvchilar biroz qiyinchiliklarga duch kelamiz. O'quvchilar fizik kattaliklar, fizik belgilanishlar, fizik birliklar va fizik formulalarni o'rganishda biroz qiynalishadi. Shu jarayonni o'rgatishda o'qituvchilarga kichik metodik tavsiya bermoqchiman.

Fizika fanini o'rganishni va kirish qismini 6-7-8-sinflar aro bu metodik o'yin tariqasida o'tkazilsa bo'ladi. Bu metodni "Tezkor o'yin" yoki "Chap va o'ng qo'l" o'yini deb nomlanadi. Men bu o'yinni o'quvchilarga yillar davomida qo'llab kelyabman va bu metod o'z natijasini ko'rsatayabdi. Bu metodni boshlashdan oldin fizik kattaliklarni o'tgan bo'lishimiz kerak. Demak biz o'quvchilar bilan fizik kattaliklarni, fizik belgilanishlarni belgilab olamiz. Bu metodni 25-30 dan ortiq o'quvchilar bilan o'tgazib kelyabman. O'quvchilarning chap qo'lida fizik kattaliklar, o'ng qo'lida esa belgilanishlar belgilab olamiz. O'quvchilar bilan tushunchani va belgilanishni aniqlab olib, o'qituvchi tez-tez fizik kattaliklarni, fizik belgilanishlarni nomma-nom aytadi. O'quvchilarga fizik kattaliklar aytilganda chap qo'l, fizik belgilanishlar aytilganda o'ng qo'l ni ko'tarishlarini aytib o'tamiz. O'yinni boshlaymiz. O'qituvchi jarayonni tez-tez aytishi va o'quvchilarni kuzatib borishi lozim. Agar o'yin davomida o'quvchi adashib ketsa, o'yindan chiqib ketadi. G'olib bo'lgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bu metod o'quvchilarni tez o'ylashga va qaror qabul qilishga o'rgatadi. Dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarni amallarda foydalanib ko'rishga undaydi. Bu o'yin tez-tez takrorlanib turilsa, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va fizik kattaliklarni, fizik birliklarni, fizik belgilanishlarni tezda ajratib olishda yordam beradi.

Hurmatli o'qituvchilar biz o'quvchilarga fizik masalalarni yechish jarayonida algebraik amallardan foydalanamiz, lekin fizikaviy usulda yechamiz. Bu metod o'quvchilarni shu jarayonga tayyorlab borishga yordam beradi. Bu metodni qo'llab fizik masalalarni yechilishida, fizik kattaliklarni belgilanishi, fizik kattaliklar formulalari, fizik kattaliklar birliklarini o'quvchilar yaxshi o'zlashtirib, bilim ko'nikmalarni qo'llay olishadi. Dars daomida o'qituvchilar shu metodni qo'llab ko'rishini tavsiya etaman. Biz bu metodni matematika fanida toq va juft sonlarni o'rgatishda ham foydalansa o'quvchilarda ko'nikma hosil bo'lib, darsga qiziqish ortadi. Toq sonlar chap qo'lga, o'ng qo'lida juft sonlarni belgilab qo'llash mumkin. O'quvchilarda tezda ko'nikma hosil bo'ladi. Hotirasida toq va juft sonlar mixlanib qoladi.

Ona tili fanida ham bu metoddan foydalanishni tavsiya etaman. Unli va undosh harflarni o'rganishda ham qo'llash mumkin. Unli harflar chap qo'lida, undosh harflar o'ng qo'l bilan o'rganiladi. O'quvchilarning xotirasiga tezda muxrlanadi va bilim ko'nikma hosil bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti bo'yicha o'quv dasturida belgilab berilganidek, 6-7-8-sinflarda o'quvchilarni tevarak atrofdagi fizik hodisalar, harakat va jismlarni o'zaro ta'siri, jismlarni muvozanati, oddiy mexaniklar, modda tuzilishi issiqlik hodisalari, issiqlik mashinalari, tovush hodisalari, yorug'lik hodisalari va ularning mohiyati xususida mantiqiy fikirlashga o'rgatish, ijtimoiy hayotlari uchun zaruriy fizikaga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish ko'zda tutilgan. Umuman 6-7-8-sinflarda boshlang'ich fizik tushinchalar va hodisalar singdirilishi asosida ta'limning uzluksizligi ta'minlanadi. Shundagina ta'limning oddiydan-murakkabga qarab ketma-ketlik saqlanadi va o'quvchilarning tushunish va anglash faoliyati rivojlanib boradi. Shuningdek bu borada fizika fanini o'qitishda xalqaro o'lchov birliklarini va o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'lchashlarni bajarishni o'rgatish usullarini bilishi – mustaqil ravishda o'z malakasini oshirishning yol va usullarini bilishi va egallashi kerak.

### Asosiy adabiyotlar.

1. "X.Inatov" Fizikani o'qitish metodikasi" 1-qisim
2. "X.Inatov" Fizikani o'qitish metodikasi" 2-qisim
3. "N.Sh.Turdiyev, A.Yusupov" o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma" TOSHKENT" TURON-IQTIBOL.



## BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHISI BO‘LISH UCHUN QANDAY XUSUSIYATLAR TALAB ETILADI?

**Murodova Ruqiya Mirzayevna**

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani 28-umumiy o‘rta  
ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda dars berish uchun o‘qituvchi qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida fikrlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** sabr, g‘amxo‘rlik, ishonchni mustahkamlash, hazil, uyushganlik.

Yoshlikda olingan bilim-toshga o‘yilgan naqsh. Bilamizki, boshlang‘ich sinflik davrida puxta egallangan bilim yodimizdan chiqmaydi va kelajakda nimagadir harakat qilishimizga asos bo‘ladi. Har bir bolada ham shunday. Bolalarning bilim olish jarayonini samarali o‘tkazish o‘qituvchiga bog‘liq. O‘qituvchi qanchalik bilimli, kirishuvchan va uddaburon bo‘lsa, ushbu vaziyatni shunchalik oson amalga oshiradi.

Boshlang‘ich maktabda o‘qitish juda foydali, ikkinchi darajali muhitda o‘qitish bilan solishtirganda o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi bo‘lish uchun quyidagi fazilatlar ega bo‘lish talab etiladi:

### **Sabr**

Sabr-toqat fazilatdir, yosh bolalar bilan ishlashda bu ko‘proq talab etiladi! Ko‘plab yosh bolalarni bir joyga to‘plaganingizda, tartibsizliklar, ko‘z yoshlar va kelishmovchiliklar bo‘ladi. Yaxshi boshlang‘ich o‘qituvchi bularning barchasini o‘z nazoratiga olishi kerak.

### **G‘amxo‘rlik**

Boshlang‘ich yoshdagi bolalar bilan ishlashda, ularning hayotida ota-onalaridan tashqarida eng muhim kattalar bo‘lish ehtimoli katta. Yaxshi so‘z va tabassum bolaning kunini mazmunli yaratishi mumkin. Sinfgizdagi bolalar haqida haqiqatan ham g‘amxo‘rlik qilish, ularni o‘rgatish bilan bog‘lanishingizni osonlashtirmaydi, shuningdek, sinfgizda ularning o‘shishi va o‘shishini kuzatib, ishingiz yanada qoniqarli bo‘ladi.

### **Ishonchni mustahkamlash**

Maktabga boradigan ko‘plab bolalar uchun ular birinchi marta o‘zlarining potentsiallarini bilib olishadi: ular nimalarga qodir va shuningdek, nimalarda qiynalishadi. Yaxshi boshlang‘ich o‘qituvchisi uchun o‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi muhimdir. Dastlab qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarning keyinchalik muvaffaqiyat keltirishiga ishonch kerak albatta.

### **Ishtiyoq**

Eng yaxshi boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari ushbu yoshdagi bolalarning tabiiy ishtiyoqini qiziqarli dars rejalari bilan o‘rganadilar. Agar chinakam ishtiyoq bilan dars berilsa, nafaqat bolalarning o‘rganish darajasi yaxshilanadi, balki bu o‘qituvchi uchun yanada qoniqarli bo‘ladi.

### **Hazil tuyg‘usi**

Bolalar bilan ishlashda yaxshi hazil bo‘lishi shart! Kichkina bolalar yonida g‘azablanish yaxshi emas, shuning uchun qanday qilib yaxshi ish olib borilayotganiga qaramay boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi vaziyatni tabassum bilan kutib olishi va ishlarga jiddiy ahamiyat bermasligi kerak.

### **Uyushganlik**

Sinfda 30ta o‘quvchi bo‘lsa hammasini birlashtira olish va bir maqsad, ta’lim oldida har bir bolani savodxon qilish ustozning vazifasidir. Eng mas’uliyatli ishlardan biri ham shudir.

O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan oralaridagi mehr-oqibat, hurmat, samimiylik kabi tuyg‘ular milliy ta’limimizning samarasi o‘laroq ustoz-shogird an‘analarining davomidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, o‘qituvchining zehni bo‘lishi va har bir masalani aql bilan hal qilishi o‘quvchilarning tilini osonroq topishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Muallim 2020. T
2. O‘qituvchi jurnali 2021. T



## ОНА ТИЛИ ФАНИНИНГ О‘ЗИГА ХОС ТА‘ЛИМ МЕТОДЛАРИ.

**Nazarova Olima Ibrohimovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21- maktabning  
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Har bir o‘quv predmetining o‘ziga xos ta‘lim metodlari bo‘lganidek, ona tilining ham o‘ziga oid ta‘lim metodlari mavjud. Ona tilidan ana shunday ta‘lim metodlari sirasiga savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodi, imlo o‘rgatish usullari, nutq o‘stirish metodlari kiradi.

**Kalit so‘zlar.** M.Mirahmedov, so‘z, bo‘g‘in, Oqil Sharafiddinov, Y.A.Abdullayev, K.D.Ushinskiy, imlo, analitik-sintetik tovush metodi, ta‘lim metodlari.

Savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodi. Bu metod rus pedagogi K.D.Ushinskiyning asarlarida asoslangan edi. Y.A.Abdullayevning yozishicha, savod o‘rgatishning bu metodi o‘zbek maktablariga XIX asr oxiri XX asrning boshlarida kirib kela boshladi. O‘zbekistonda rus-tuzem maktablarining paydo-bo‘lishi va juda ko‘p tatar millatiga mansub muallimlarning milliy maktablarda ishlay boshlashi savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodining o‘zbek

maktablariga tarqalishiga sabab bo‘ldi. Analitik-sintetik tovush metodining o‘zbek maktablari tajribasida keng o‘rin olishida iste‘dodli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Oqil Sharafiddinovning xizmatlari katta. Uning M.Mirahmedov bilan hamkorlikda nashr qilingan bir asarida analitik-sintetik tovush metodining mohiyati keng yoritilgan. Mualliflar o‘quvchilarni nutq tovushlari bilan tanishtirishning umumiy qurilishini, harf bilan tanishtirish usullarini keng tavsiflashgan. Oqil Sharafiddinov asoslagan analitik-sintetik tovush metodining o‘zaro uzviy bog‘langan ikki tomoni mavjud: tahlil — nutqdan gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in, bo‘g‘indan o‘rganilayotgan tovushni ajratish, tovushga mos bosma harfni ko‘rsatish; qayta qo‘shish — ko‘rsatilgan harfga mos nutq tovushini aytilish, nutq tovushi ishtirokida bo‘g‘in, bo‘g‘in qatnashuvida so‘z, so‘zni qatnashtirib gap tuzish. Shunday qilib, O.Sharafiddinovning bizga qoldirgan pedagogik merosida savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodining ikki tomoni maktablar tajribasida tasdiqlandi: nutq tovushi va harf bilan tanishtirish; nutq tovushi va harfni faoliyatda ishlatish. «Savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodi» iborasi xususida bir necha fikr: nega metodning nomi shunday uzundan uzun yoziladi? Metod nomining shakllanishidagi dastlabki so‘z «savod» — bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishga ishora, nutq tahlil qilinib, gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in, bo‘g‘indan o‘rganilayotgan tovushni ajratib ko‘rsatishga oid ishlar amalga oshirilgani uchun «analitik» so‘zi ishlatilgan. «Sintetik» so‘zi esa tahlilning teskarisi — qayta qo‘shishni anglatadi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida harfga mos tovushni ijro etishadi, tovush ishtirokida bo‘g‘in, bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z, so‘z ishtirokida gap (nutq) tuzishadi. Imlo o‘qitishda diktantning turli xillaridan foydalaniladi. O‘tkazilish maqsadiga ko‘ra diktantlar ikki turli bo‘ladi: nazorat diktantlari — o‘quvchilarning imlo savodxonligini sinash maqsadida tashkil etiladi; ta‘limiy diktant — u yoki bu orfogrammani mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. Ta‘limiy diktantlarning turlari nihoyatda ko‘p: saylanma diktantda bolalar o‘qituvchi diktovkasidan aytilgan orfogrammaga oid so‘z, so‘z birikm alarinigina yozib olishadi; ko‘rsatuv diktantida imlosi mustahkamlanayotgan orfogramma o‘quvchilarga ko‘rsatiladi. Nutq o‘stirish metodlarini nutq shakllari — og‘zaki va yozma nutqqa ko‘ra ikki guruhga ajratam iz: og‘zaki nutqni o‘stirish metodlari. Bunday metodlar sirasiga o‘qituvchi aytgan so‘roq gaplarga darak gaplar bilan javob qaytarish, aytilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish, bolalarning o‘zlari mustaqil o‘qigan asarlarini so‘zlatish, ko‘rgan va eshitganlar to‘g‘risida og‘zaki axborot berish, nazorat savollariga og‘zaki javob qaytarish, dispvit va munozaralarda fikr bildirish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish uchun dalillar kelitirish, dialogda qatnashish, I shaxs nutqini II shaxs nutqiga aylantirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. ROZIQOV O.R. O‘zbek tilidan dars tiplari. — T.: 1976.
2. TOSHEMIROVA M. Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish. Ta‘lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. « O‘zbek tili» Doimiy Anjumani beshinchi yig‘ilish tezislari to‘plami ( 1999-yil 29-30 aprel). — T.: «Sharq», 1999.



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA TA’LIM STRATEGIYALARI

**O‘rinova Guljahon G‘ulomovna**

Navoiy viloyat, Qiziltepa tumani 28-umumiy o‘rta  
ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars jarayonidagi faolligini oshirish hamda bilim olish jarayonini sifatli ta’minlashda strategiyalar to‘g‘risida fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim startegiyalari, hurmat, kundalik lug‘atlar, ongli amaliyot, namunalar bilan ishlash.

Ta’lim strategiyasi - bu o‘qituvchi o‘quv jarayonida o‘quvchilarini yoki ularning olgan bilimlarini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan usullar; o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu, o‘quvchining bilim darajasi va uni o‘rganish bosqichi uchun eng mos bo‘lgan o‘quv strategiyasini tanlaydi. Bitta darsda o‘qituvchi turli xil yakuniy maqsadlarga ega bo‘lgan turli xil o‘qitish strategiyalaridan foydalanishi mumkin. Eng samaralisi - bu katta miqyosli sinovlarda samarali ekanligi isbotlangan ta’lim strategiyalari.

### 1. O‘quvchilarni bilish va ularda hurmatni rivojlantirish

Har qanday o‘qitishning asosi o‘quvchilarni va ularning o‘quv ehtiyojlarini tushunishdan iborat. Shu bilan birga o‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan hurmati. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar o‘quv jarayonining muhim elementidir. Birinchi kundan boshlab yangi sinf bilan tanishish uchun vaqt ajratish, ularni o‘rganish uchun to‘siqlar nima bo‘lishi mumkinligini o‘rganib olish muhimdir. Bu ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan o‘qitish usuli.

### 2. Kundalik lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatish.

O‘quv dasturida bilimlarni shakllantiruvchi yangi so‘zlar berilganligini hisobga olib, tegishli mavzu bo‘yicha so‘z boyligi bo‘lmagan bolalarni kundalik lug‘at va yangi so‘zlar bilan ishlashga o‘rgatish lozim. Berilgan mavzu bo‘yicha ravon gapirish, fikrlarini ifodalash uchun ularga g‘oya va jummalarni yaratish uchun so‘zlar kerak.

### 3. Fikrlarni dalillashga o‘rgatish

O‘quvchilarning mavzuni tushunishini baholash uchun ularga turli savollar berish orqali bilimlarini aniqlash. Bunda mavzu haqida fikr so‘ralgan, yoki qaysidir masala ustida bosh qotirgan o‘quvchiga “ishonchingiz komilmi?”, “bu ma’lumotni nimaga asoslanib aytyapsiz?” kabi savollarni berib chalg‘itish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning fikrlarini isbotlashga va bitta fikrda qolishga o‘rgatadi. Savollar davomida qolgan o‘quvchilardan “Boshqa yo‘llari bormi”, “Sizda qanday fikr bor” degan savollarni berish ko‘pchilikni fikrini eshitishga va fikrlarni o‘rganishga yordam beradi.

4. Ongli amaliyot - sinfga yangi kontseptsiyalarni kiritishning eng samarali usullaridan biri - bu o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi ko‘nikmalar to‘plamiga bo‘lishni o‘z ichiga oladi, ularning har biri o‘z navbatida qo‘llaniladi. Amaliyotning 5 bosqichi: Mahoratni ajratib olish, malakani rivojlantirish, malakani baholash, yakuniy ishlash, keyinchalik qidirish amaliyoti

5. Namunalar bilan ishlashni o‘rgatish. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni turli misol yoki masalalar ishlashida namunalarga e’tiborli bo‘lishini o‘rgatishi zarur.

Worked Example	Your Turn
$\frac{3}{5} + \frac{1}{4} =$	$\frac{2}{3} + \frac{1}{5} =$



6. Fikrlash qobiliyatlari va muammolarni hal qilish usullarini aniq o'rgatish. Matematik masalalarni yechish usullari o'quvchilar uchun har doim ham tanish va odatiy emas; yuqorida aytib o'tilganlarga o'xshash metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni muammoga tatbiq etish ehtimolini oshirsa-da, buning amalga oshirishini ta'minlashning aniq usuli yo'q.

Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muammolarni yechish texnikasini kontekstdan mustaqil ravishda joylashtirish o'quvchilar domen bilimlari va amaliy mashg'ulotlar qobiliyatiga ega bo'lganda paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak strategiyalar dars jarayonini yaxshilaydi va ta'lim sifatini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Teaching methods for primary school children 2020. T



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS O'TISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

**Oripova Toshto'xta Mirjonovna**

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani 28-umumiy o'rta  
ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlari to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mazmunli dars, samarali metodlar, uslubiy qo'llanmalar.

Boshlang'ich maktab - bu bolalar dunyoni birinchi bo'lib o'rganishni boshlagan maskan. Dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lib, bola o'rganilgan ma'lumotni qo'shimcha savollarsiz qabul qiladi. Shu sababli, bolalarning boshlang'ich maktabda bilimlarni o'rganishi keyinchalik ularning fikrlashiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuning uchun boshlang'ich maktab ta'limi alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich maktabni o'qitishda keng tarqalgan muammolarni tushunish to'g'ri yechimni topishga yordam beradi.

Boshlang'ich maktabni o'qitishda uchraydigan umumiy muammolar:

O'qituvchi bo'lishning eng mazmunli qismi, albatta, o'quvchilarda bilim olishga ilhom berishdir. Biroq, bunday ishtiyoq bilan ham, boshlang'ich maktabda dars har doim ham mukammal bo'lmaydi. Xo'sh, qayerda muammo bo'lishi mumkin?

1. O'qitishning andoza usuli har bir o'quvchining qobiliyatiga mos keladi

Har bir bola har xil: ularning har biri o'zini turlicha tutadi va bir-biridan ko'p narsa o'rganadi. Sinfda jam bo'lishganida, ular bir xil o'quv materiallariga turlicha munosabatda bo'lishadi. Bu tabiiy ravishda har bir bolaning qobiliyatini qondirish uchun darsni ozgina o'zgartirishi kerakligini anglatadi. Biroq, bu oddiy yechim aytilganidan ancha osonroq.

Avvalo o'qituvchi har bir dars davomida turli o'yinlar orqali o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganishi va o'sha qiziqishlari bo'yicha yo'naltira olishi kerak. Bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Shu bilan birga foydalanmoqchi bo'lgan metodlarini o'sha o'quvchining harakteriga qanday moslashtirish mumkinligini tahlil qilib ko'rishi tavsiya qilinadi.

O'qituvchilarning fikriga ko'ra, boshlang'ich sinfga dars berishda intizomni saqlash qiyin bo'lishi mumkin.

Ammo bu, baribir, samarali o'quv mashg'ulotini ta'minlashning muhim omili. Ta'limning samarali usuli har doim intizomiy masalalarga sarflanadigan vaqtni minimallashtirishga harakat qiladi. Ayni paytda, ushbu muammolarni tezda hal qilmaslik va uyushgan sinfni saqlab qolish osonlikcha tartibsizlik va anarxiyaga olib kelishi mumkin.

Sinfdagi tartibni saqlash usullaridan biri, nima uchun bola o'zini qandaydir (buzilishi mumkin) tutishini tushunishga urinish bo'lishi mumkin? Bolalar motivlarini tushunish orqali sinfda boshqarish uchun samarali va moslashuvchan usullarni yaratish mumkin.

Boshlang'ich maktabni o'qitishda yana bir keng tarqalgan muammo o'quvchilarni yanada murakkab mavzularga jalb qilishdir.

Biroq, boshlang'ich o'quvchilar uchun "murakkab" mavzularga (masalan, matematika, fan yoki adabiyot) jalb qilishning foydasi juda katta. Aynan shu murakkabliklar orqali bolalar o'zlarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Ta'limda har doim yangi narsa bo'ladi: yangi o'qitish usuli, dasturning ozgina o'zgarishi yoki imtihonlarning o'zgarishi. Bu o'qituvchilarga har doim nima qilishni bilishlari uchun muammo tug'diradi. Muammo shundaki, ta'lim doimiy ravishda o'zgarib turishi va o'qituvchilar doimo vaqt yetishmayotganiga e'tibor bermaslik. Ta'limga e'tibor kuchayib borayotganligi sababli, hozirgi zamonda o'qituvchi bo'lish yanada qiziqroq bo'ldi. Boshlang'ich maktabni o'qitishda keng tarqalgan muammolarni hal qilishga yordam beradigan tobora ko'proq innovatsion g'oyalar taklif etilmoqda. O'qitish endi ilmga ilhom beradigan samarali ma'lumotlarni yetkazish haqida har qachongidan ham ko'proq bo'ladi.

O'zgarishlar moslashishni talab qiladi. To'g'ri, o'zgarish jarayoni biroz vaqt, kuch, ozgina chalkashliklar va ko'ngilsizliklarni talab qiladi, ammo biron bir narsaning chuquriga kirganingizdan so'ng, texnologiya sizning o'qitishingizga ko'p jihatdan foydali bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har bir sohada turli muammo va kamchiliklar uchraydi. Bu kamchiliklar soha vakillarining kuzatish va izlanishlari oqibatida o'z yechimlarini topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinflarda muammoli vaziyatlarning oldini olish "Muallim" 2020.T



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БОЛА НУТҚИНИ РИВОJЛАНТИРИШДА ҚО'ЛЛАНИЛАДИГАН УСУЛЛАР ВА ТАВСИЯЛАР

**О'роқова Зебо Нарзуллаевна**

Zarafshon shahar MTB tasarrufidagi 20-sonli DMTT tarbiyachisi  
narzullayevazebo@gmail.com tel: (97)-797-33-66

**Annatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqidagi muammolarni erta aniqlash va bartaraf etish usullari tushunarli tarzda bayon etilgan

**Kalit so'zlar:** So'zli va rolli o'yinlar, ko'rgazmali va ko'rsatmali vositalar

Nutq o'stirish usullarining mazmuni ta'limda bolalar og'zaki nutqini o'stirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomila qilishni bilishga o'rgatishdir. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar 2-3 ming so'z boyligiga ega bo'lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, suratlariga qarab mazmun bo'yicha hikoya tuzish va uni aytib berish, asosiy tayanch so'zlar yordamida hikoya tuzishga o'rgatiladi. Shuningdek, bolalar nutqidagi muammolarni anotamik-gimnastik mashq qildirish orqali nurqning ravon va tushunarli bo'lishini ta'munlash mumkin. Chunki yaxshi rivojlangan nutq ta'sirchan bo'ladi, bola o'zining nuqsonini o'zi tuzatib boradi. Maktabgacha ta'lim ishidagi bolalarda qanday nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozimligi ta'lim mazmunini tashkil etadi. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasining ta'lim mazmunini zaruriy o'zagi hisoblangan ta'lim standarti asosida amalga oshiriladi, bunda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti bajariladi. O'quv yuklamalari me'yorga keltiriladi, tarbiyachi bolaning o'quv faoliyati darajasi shaxs sifatleri rivojlanishi, uning nutqiy faoliyatini nazarda tutgan holda ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarinigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Til birliklari nutqni hosil qiladi ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalarni fikrlarini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak- atrofdagi voqea hodisalar haqidagi fikr mulohazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun nutq v atil inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning nutqini rivojlantirishda ko'rgazmali vositalardan foydalanishning samarasi yuqori. Masalan rasmlardan foydalanish- bunda rasmlarning rangi yorqin va aniq, bola yoshiga mos bo'lishiga ahamiyat qaratish kerak. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati bunda bola ko'rib turgan narsasining nima ekanligini anglashda qiynalmaslligiga ahamiyat qaratish lozim. Ko'rsatmali usulda esa bolaga topshiriq berishda uni o'zi mustaqil narsalarni topib ko'rsatishiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi. Maktabgacha ta'limning kichik guruhlaridan boshlab ko'rgazmali usulni qo'llash orqali bolalar nutqi o'stiriladi. Bunda qiyoslash, ajratish, to'plash, umumlashtirish va tasvirlashga alohida ahamiyat beriladi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko'rgazmali vositalar asosida tasviriy, ijodiy hikoya tuzishga e'tibor beriladi. Bunda rasm va buyumli ko'rgazmani bolalar kuzatadilar, tarbiyachi tomonidan ko'rgazma asosida suhbat uyushtiriladi, ko'rgazma asosida tasviriy va ijodiy hikoyalar tuziladi, bolalar hikoyani so'zlab beradilar. Hikoya mazmuni, gap qurilishi, bolaning hikoyani bayon qilish qobilyati, nutq egallanishi, nutq odobiga amal qilinishiga ko'ra tahlil qilinadi. Ushbu mashqlarning natijasi amaliy usulda namoyon bo'ladi. So'z o'yinida bolaga biror bir holatni ifodalovchi so'z aytiladi bola uni gaplar bilan tushintirishga harakat qiladi. Bundan tashqari rolli, harakatli, didaktik o'yinlar ham mavjud bo'lib, ulardan foydalanganda bolalar fikrlaydi, bayon qiladi, nima demoqchi bo'lganini o'rtoqlariga tushintirishga urinadi. Bu usullardan tez-tez foydalanish bolalar nutqidagi nuqsonlar erta aniqlanib bartaraf etish choralari ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud ahloq" 1998 PDF
2. R. Mavlonova O. To'rayeva "Pedagogika" Toshkent 2001 y
3. Babayeva D.R "Nutq o'stirish" Toshkent 2000 y



## INGLIZ TILIDA ARTIKLLARNING ISHLATILISHI

**Otabayeva Shoira Atabayevna**  
Urganch tumani 47- son IDUM  
Ingliz tili fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya :** Maqolada ingliz tilini o‘qitishda artikllarning ishlatilishi va ulardan foydalanib dars o‘tish usullari va o‘quv jarayoniga tadbiriq etish.

**Kalit so‘zlar :** aniq, noaniq, sifat, artikl tarjima, lug‘at, unli , undosh.

Ingliz tilida ikki xil artikl bo‘lib , noaniq va aniq artikllar.

1. Noaniq artikllar . Noaniq artiklning ham ikki xil shakli bor.

“ An va An shakli. ” A” shakli birlikda turgan , undosh harf bilan boshlangan , sanaladigan otlar oldidan ishlatiladi va o‘zbek tiliga “ Qandaydir bir dona “ deb tarjima qilinadi.

Masalan : a book , a pen , a copybook

“ An “ shakli esa unli harf bilan boshlanadigan , sanaldigan otlar oldidan ishlatiladi. Uning ham ma’nosi shunday.

Masalan: an apple, an apricot, an enginner .

Aniq artikl “ The “

Aniq artikl – gap suhbatlashayotgan tomonlarning ikkalasi uchun aniq bo‘lgan narsalar, hodisalar haqida gapirilayotgan bo‘lsa, aniq artikl “ The “ ishlatiladi.

Masalan : Give me a book – menga xohlagan kitobingizni bering

Give me the book – menga ikkimiz bilgan kitobni bering.

Biron bir narsa haqida bir marta gapirilib, ikkinchi marta yana gapirilsa , aniq artikl “the” ishlatiladi.

Masalan: This is a book. The book is red. Bu kitob . Kitob qizildir.

(Read, send, write...) fe’llari bilan hamisha aniq artikl ishlatiladi.

Aniq artikllarning ishlatilishi

1. Dunyoda yakka bo‘lgan narsalarda ishlatiladi : the sun , the sky, the moon, the earth , the world

2. Guruhni bildiruvchi so‘zlarda : the army, the police, the brigade

3. Musiqa asboblarida : the piano, the guitar, the rubob

4. Radiolarda: the radio

5. Xona ichidagi narsa buyumlarda: the door, the window, the floor, the carpet

6. Ingliz gazetalarida : the times, the news

7. Muzeylarda : the british museum, the globe museum

8. Qutblarda: the north, the west, the east, the south

9. Tog‘larda: the alps

10. Daryo va dengizlar oldida : the syr- daryo

11. Davlatlardan : Ukraine, United Kingdom, Union

12. fasllar oldida qo‘yilsa ham bo‘ladi, qo‘yilmasa ham : the winter, winter

Artikllar ishlatilmaydigan holatlar:

1. Olmoshlardan so‘ng ishlatilmaydi.

2. Ismlarda ishlatilmaydi

3. Qarindoshlik so‘zlarida ishlatilmaydi . Uncle, aunt

4. Ovqatlanish holatlarida ishlatilmaydi : breakfast, dinner

Ingliz tilida artikllarning o‘rni juda katta va ahamiyatlidir. Ularsiz gaplar va so‘zlarning ma’nosi bo‘lmaydi. Artikllar faqat chet tillarida bo‘ladi. Shuning uchun o‘rganuvchilarga artikllarning har birini misollar bilan tushuntirishimiz va hayotda qo‘llay bilishni o‘rgatishimiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Bo‘ronov J.B “ Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi ” T., 1973

2. Murphy R. “ English Grammar in Use “ Cambr. Unv.press, 1995.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.

**Pirmatova Dildora Karimovna**  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda boshlang'ich sinflarda darslarini tog'ri tashkil etishda keng qo'llanadigan zamonaviy o'yin metodlarining ahamiyati haqida hamda tajribali pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan usullar haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy metodlar, "Men boshlayman, sen davom ettir" o'yini, "Keyingi bo'g'inni top" o'yini, "Talaffuzda adashmang" o'yini, "Egizaklar" o'yini.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda barcha sohalar qatori ta'lim sohasini ham zamon ruhiga mos ravishda isloh qilish: talimning yangicha uslublarini soha olib kirish, maktab va ta'lim muassasalarini rivojlangan davlatlar ta'lim standartini asosida qayta qurish, ta'lim tarbiya jarayonida ta'limning yangicha metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning dunyoqarashiga mos milliylik bilan zamonaviylikning uyg'un holda ta'lim jarayonini tashkil etish bugungi kunda har bir pedagogning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib qolmoqda. Bu hol ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagog o'z gacha noan'anaviy metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Pedagog noan'anaviy darslarni tashkil etishda ta'limiy o'yinlarni tanlash va uni o'tkazishda o'quvchilarning yosh xususiyati, bilim saviyasi, o'yinning o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, dars maqsadi bilan o'yin maqsadi orasidagi uyg'unlikni ta'minlash, o'yinning ularda o'qish istagini, bilim olish va izlanish xohishini vujudga keltirishi, o'yinda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning birligi kabilarni hisobga olishi kerak.

**"Men boshlayman, sen davom ettir" o'yini.** O'quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdan bir so'zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so'zning ikkinchi qismini topish talab etiladi. (mas, do'st- ... baland - ... yosh - ..., tez - ..., qattiq - ... v.h) Bu o'yin partadoshlar orasida ham o'tkazilishi mumkin. Ish - harakatni predmetning nomini, belgi va son - sanogini bildiruvchi so'zlar yuzasidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar.

**"Keyingi bo'g'inni top" o'yini.** Berilgan bo'g'inlar ishtirokida so'z tuzish tushuntiriladi. Qaysi o'quvchi ko'p so'z tuza olsa, "besh" baho bilan mukofatlanadi. Masalan, bo, bo', jo', ni, lo, sa, mu, no, hu, ko'

1. Bola, bobo, bozor, bodom, ...
2. Bo'gin, bori, bo'liq, bo'zchi ...
3. Jo'ja, jo'ra, jo'xori, jo'na ...
4. Nima, nizom, nido, nihol, ...

Bu o'yin metodi orqali o'quvchilarda tez fikrlash hamda so'z boyligini ko'payishiga erishish mumkin bo'ladi. O'z - o'zidan o'quvchida tezkorlik xususiyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

**"Talaffuzda adashmang" o'yini** O'qituvchi o'quvchilarga x va h yoki f-p tovushlari ishtirok etuvchi so'zlardan aytishni topshiradi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so'zni noto'g'ri aytsa, o'yindan chiqadi. Mavzu asosida so'zni aytgan o'quvchi shu so'zni taxtada yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko'p to'g'ri so'z aytgan o'quvchiga, sinfda o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlardan sovg'a sifatida beriladi.

Namuna:

- Shoh - davlat boshlig'i
- Shox - novda, daraxtning shoxi
- Xil-xil - saralangan -tanlangan
- Hil-hil - ezilib pishgan
- Uhladi-xafa bo'ldi, -uh tortdi.
- Uxladi -uxlamoq - dam olmoq

Ushbu o'yin metodi orqali o'quvchilarda paronimlarni ajrata olish ko'nikmasi shakllanadi hamda nutqiy faoliyat davomida turli xatolarni oldini olishga erishiladi.



Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan jihat mavjudki, u ham bo‘lsa, endigina maktabga kelgan bolaning psixologiyasidir. Bizga ma‘lumki, 6-7 yoshli bola hali o‘yin faoliyatidan to‘liq ajralmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham, tajribali pedagoglar tomonidan darsni tashkil etishda ana shu jihatga e‘tibor qaratiladi. Yuqorida keltirgan o‘yin metodlari ham bola psixologiyasi hamda samarali ta‘limni tashkil etish uchun dars jarayonida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Ernazarova , A.Bobomurodova “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil etish metodlari va dars shakllari” - Navoiy - 2007
2. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000-yil .



## TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA ILMIYLIK, KO'RGAZMALILIK QOIDALARI

**Qodirova Muazzam Toxirovna**  
Farg'ona viloyati Farg'ona shahar  
16-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'atni o'qitishda ko'rgazmalilik, ko'rgazmalilikning turlari, ilmiylik, natura haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** ko'rgazmalilik, natura, reproduksiya illyustratsiya, Tabiiy ko'rgazmali qurollar, Tasviriy ko'rgazmali qurollar.

Ko'rgazmalilik tasviriy san'atni o'qitish jarayonida bilimlar manbai hisoblanib, borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Naturani o'rganish chog'ida (sinfda va plerda) o'quvchilarning kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanadi.

O'qituvchida har doim ham o'rganilayotgan ob'ektni ko'rsatish imkoni bo'lavermaydi, bunday hollarda unga ko'rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda ob'ektlar obrazini jonlantiradi.

O'quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doimo izlanadi, shakllarni solishtiradi, naturaning konstruksiyasi, o'lchovlari, rangi kabilarni bilib oladi. Shubhasiz, bularning hammasi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi.

Ma'lumki, bolalarning fikrlashi konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushuncha va abstrakt qoidalar, ma'lum faktlar, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o'quvchilar ongiga oson yetib boradi.

Ko'rgazmalilik tasviriy san'at darslarida boshqa o'quv predmetlaridagidek yordamchi emas, balki o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o'ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu o'rinda tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik printsiptining roli juda katta.

Ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va tanlashda quyidagilar kabi ma'lum talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalariga mosligi.
2. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi.
3. Ko'rgazmaning konkretligi va aniqligi tushunarli.
4. Tasvirning sifatli, aniq va ravshan bo'lishi.
5. Ko'rgazmalarning rang – barangli bilan o'quvchilarda zavq va qiziqish uyg'otish.
6. Estetik talablarga mosligi.

Rassomlar asarlarining reproduksiyalarini, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni tanlashda quyidagilarni e'tiborga olishlari kerak:

1. Materiallarning g'oyaviyligi.
2. Yuksak badiiyli.
3. Tasviriy san'at darslarining o'quv – tarbiyaviy vazifalariga mosligi.
4. Bolalar idrokiga mosligi.

o'rinli, maqsadga muvofiq ravishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ehtiborga olgan holda foydalanilsa, u yaxshi natijalar berishi mumkin.

Ko'rgazmalilikning ikki xil turi mavjud.

1. Tabiiy ko'rgazmali qurollar.
2. Tasviriy ko'rgazmali qurollar.

Tabiiy ko'rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo'lgan buyumlar (meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, geometrik gipsli shakllar, o'quv qurollari, amaliy san'at buyumlari va h.k) ni kiritish mumkin.

Tasviriy ko'rgazmali qurollarga rasmlar, tablitsalar, hayvon va qushlarning tulumlari, suratlarning reproduksiyalari, pedagogik rasmlar, fotografiya va boshqa sunhiy usul bilan tayyorlangan tasviriy vositalar kiradi. Sanab o'tilgan ko'rgazmali qurollar quyidagicha guruhlanadi:

2. Mehnat va turmush buyumlari. Bu guruhga geometrik shakllar, sabzavotlar, mevalar, qushlar, hayvonlar, gullar va o'simliklar, amaliy san'at buyumlari kiradi.

3. Buyumlarning tuzilish xususiyatlarini, perspektiva qonunlari, yorug' – soya, rangshunoslik,



dekorativ stlizatsiyaga doir geometrik shakldagi simdan yasalgan modelar, vidoiskatelg‘ va boshqa ko‘rgazmlar.

4. Rasmlar va tablitsalar.

Unda rasm va naqsh chizishdagi ketma – ketlik, atrof muhitning perspektiv ko‘rinishlari tasvirlanadi.

4. Rassomlar asarlarining reproduksiyalari, amaliy san‘at asarlari tasvirlari. Bunday ko‘rgazmali qurollarda yorug‘ – soya va rangshunoslik, kompozitsiya qonunlari tushuntiriladi.

5. Bolalarga naturani chizishdagi ketma – ketlikni, har xil eksponatlar bilan ishlash uslubini, buyumlarning qurilishini, tasvirlanayotgan predmetlar va obyektlarning fazoviy holatini ko‘rsatuvchi pedagogik rasmlar va boshqalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. M.Nabiev, B.Azimov Rasm chizishni o‘rganish metodikasi “O‘qituvchi” Toshkent 1976.
2. T.Maxmudov “Nozik didli san‘atkor” jurn. “Sovet O‘zbekistoni san‘ati” №3, 1979.
3. R.Xasanov Maktabda tasviriy san‘at mashg‘ulotlarini takomillashtirish yo‘llari.-Toshkent: O‘qituvchi. 1986.
4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san‘at ta’limi kontseptsiyasi.-Toshkent, 1995.



## CHIZMACHILIK FANINING MAKTAB O'QUVCHILARI HAYOTIDAGI ROLI

**Rasulov Bekpo'lot G'iyosovich**

Navoiy viloyat, Qiziltepa tuman

24-maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik fanining o'qitilish metodikasi, maqsad va vazifalari.

**Kalit so'zlar:** tarixiy an'analar, masofaviy va hayoliy yondashuv, shakllar.

Xozirgi davrda ta'lim va tarbiya jamiyatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishda ustuvor yo'nalish kasb etmoqda. Ma'lumki, kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonning intellektual va ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashga bog'liq. Eng asosiysi, fuqorolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasb bo'yicha mehnat qilish huquqi kafolatlanadi. Keyingi vaqtlarda respublika kasb - hunar kollejlarning moddiy-texnikaviy bazalarini mustahkamlash, axborot bilan ta'minlash darajasini rivojlantirish maqsadida ular ta'limining zamonaviy texnik vositalari, yangi dasturlar, qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari va boshqa turdagi o'quvmetodik adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Ta'lim jarayonida qo'llanib kelinayotgan ta'lim berish va tarbiyalashning mazmuni, vosita hamda uslublari tizimiga halqimizning o'ziga xos xususiyatlarini, tarixiy an'analari, qadriyatlarini va ma'naviyat durdonalarini kiritish, oliy maktabda o'qitish samaradorligini oshirish, uni takomillashtirish, sharqona tarbiya nazariyasini o'quvchilar ongiga singdirish imkonini bermoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilab berilishi bilan birga har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga ham keng o'rin berilgan. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilingandan keyin fanlar bo'yicha davlat standartiga muvofiq o'quv dasturlari ishlab chiqildi va ularni joriy etishga kirishildi. Respublikamizda 300 dan ortiq kasb - hunar kolleji mavjud bo'lib, ularning 250 taga yaqinida chizma geometriya va chizma geometriya fanlari o'qitiladi. Kasb - hunar kollejda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish bu jabhadagi ta'limiy jarayonlarni yangi sifat bosqichiga ko'tarishni pedagogik jihatdan kafolatlaydi. Demak, bu fikrlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish shunday hulosalarga olib keladi. Chizma geometriya fani oliy professional bilim darajasini belgilovchi. Davlat ta'lim standartida umum ta'lim va umum professional o'quv fanlari qatoridan o'rin olgan. "Chizma geometriya" ni o'quvchilarga o'qitishdan asosiy maqsad turli ob'ektlar va ulardagi bog'liqliklarni chizmalar ko'rinishidagi fazoning grafik modellari asosida shu ob'ektlarning fazoviy shakllari va munosabatlarni fazoviy va xayoliy tasavvur qilish, fazoviy konstruktiv-geometrik fikrlash, shuningdek, ularni fazoviy tahlil qilish va umumlashtirish bilan bog'liq qobiliyatlarni oshirish hamda rivojlantirishdan iborat.



## SINFDAN TASHQARI MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARDA BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASH.

**Ro'ziyeva Gulchehra Sharipovna**

Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli  
19-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish bilan bir qatorda ularning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil qilish barkamol insonni tarbiyalashdagi milliy axloqiy ishlar samaradorligini oshiradi.

**Kalit so'zlar.** Barkamol inson, metod, kompleks usul, milliy qadriyatlar, e'tiqod, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar.

O'quvchilarni sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonida qo'llaniladigan metodlar: tarbiyaviy tadbirning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo'lishi; tarbiyaviy ishlarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishini yaxlit amalga oshirish, materialning rang-barangligi, qiziqarliligi va hayotiy bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilardan axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmuni, shakli va usullari borligini ta'minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati, ta'lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy sifatlarni shakllantirish metodini tanlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

- o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan u yoki bu fazilatning mazmuniga;- o'quvchining yoshi, ruhiy holati, aql zakovati, faoliyatiga ta'sir eta oladigan bo'lishiga;- o'quvchilar yashaydigan hudud sharoitini hisobga olish va moslashga;- tarbiyaviy ta'sir etuvchi usul-metodlarni qo'llashda kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida tarbiya vositasi xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an'ana, teatr, amaliy san'atdan foydalanishga. Sharq mutafakkirlarining madaniy me'rosi bo'lmish pandnomalar, bitiklar, yozma yodgorliklar, xalq kitoblari, urf-odat, bayramlarni amalga oshirishda qo'llanilgan. Bu metodlar quyidagilar:

1. Har bir ishda kattalarning namunasi;
2. Pand-nasihati qilish, suhbat o'tkazish;
3. O'yin va mashq;
4. Muammoli vaziyat;
5. Rag'batlantirish, tabassum, iljayish, "barakallo", yaxshi degan so'zlar;
6. O'rgatish va tushuntirish;
7. Mustaqillik va ijodkorlik;
8. Jazolash. Yuqoridagi tarbiya usullari xalqning kundalik hayotida qo'llanilib u yo ijobiy, yo salbiy ta'sirga ega bo'lgan. O'quvchilarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda yuqoridagi materiallardan kompleks usulda foydalanish hayot taqozosidir.

Maktabda o'tkaziladigan tarbiyaviy soatni sinfdan tashqari tadbirlar yoki ma'naviy tarbiyaviy ishlar turli shakllar va usulda olib boriladi. Buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan beqiyos ma'naviy va ma'rifiy me'rosimizni, milliy qadriyatlarimizni yanada boyitish va rivojlantirish, farzandlarimizni yetuk insonlar etib voyaga yetkazish, ularning baxti va kamoli uchun hech narsani ayamaslikni davlatimiz va jamiyatimizning doimiy ustuvor vazifasi bo'lib qolishi, ayniqsa muhimdir. "Ma'naviyatli el- botir el" deb bejiz aytilmagan. Ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, axloqi va ichki dunyosi namoyon bo'aldi. Komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni ham yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat-ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Dars jarayonida va sinfdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida milliy qadriyat, milliy an'ana, urf-odat tushunchalarini shakllantirishning rang-barang turlaridan, vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish zarur.

Ishimizda asosan inson shaxsni shakllantirishdagi milliy qadriyatlarining maqsadi, vazifalarini, o'zbek xalqining o'tmishidagi me'rosini o'rganib, uni hozirgi paytda bolalarni tarbiyalashdagi ahamiyatini tahlil qilishga harakat qildik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyat haqida tushunchalarni tarkib toptirish uchun o'qituvchi maktab tarbiyaviy tadbirlarning shakliga, mazmuniga alohida e'tibor bermog'i va



unga har tomonlama tayyorgarlik ko'rish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bolalar bilan ta'lim tarbiya ishlarini olib borishda milliy qadriyatlardan foydalanish jarayonidagi kamchilik va nuqsonlar hisobga olindi. Tadqiqotni tashkil qilishda bola shaxsini kamol toptirishning hamma bosqichlarida xalq milliy qadriyatlaridan foydalanishga tayanildi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ishimiz natijasiga ko'ra quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

1. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyat turlaridan foydalanish;

2. Milliy qadriyatlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga moslashtirilgan ssenariylarni tuzish yaxshi natijalarni beradi.

3. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarning shakllantirishning turlari bu yoshdagi bolalarning idrok qilish jarayonini mustahkamlaydi. 4. Ota-bobolarimizdan, ona-momolarimizdan bizga qoldirgan boy me'rosini avaylab asrab, boyitib, takomillashtirib, uni zamon yutuqlari bilan ijodiy boyitib boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkuri, dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida shakllantirib, kundalik turmushlarida qo'llashga o'rgatish muhimdir.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda buyuk allomalarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'g'itlari, pandnomalaridan foydalanib borilsa yaxshi natijalarga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Raxmonov S. "Bolalarda madaniy ko'nikma va odatlarni tarbiyalash", - T.: "O'qituvchi", 1994-y.

2. G'aybullayev N. R. "Barkamollik - taraqqiyot kaliti". - T.: "O'qituvchi", 2000-y

3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## О‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA ULARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLIHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

Siddiqova Xursand Jabbor qizi  
Buxoro Davlat Universiteti  
I bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ularning individual xususiyatlarini hisobga olishning pedagogic-psixologik mexanizmlari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zamonaviy ta’lim, qadriyat, mafkura, vatanparvarlik, individual xususiyat, ta’lim-tarbiya.

Bugungi kunda yosh avlodga zamonaviy ta’lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbini mafkuraviy, ma’naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g‘oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalo, yoshlarimizning qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalangan, ma’naviyati yuksak, odobli, barkamol insonni voyaga yetkazish har bir ota-ona, tarbiyachi va jamoatchilikning muqaddas burchidir. Bu vazifani to‘laqonli ado etishda milliy qadriyatlarimizning o‘rni beqiyosdir. Dastavval “qadriyatning o‘zi nima?” degan savolga e’tibor qaratsak. Bunga birdaniga bir so‘z bilan javob berib bo‘lmaydi. “Qadriyat” atamasi bizga arabcha “qadr” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, bugungi kunda bu tushuncha borliq va jamiyatdagi biror-bir narsa va hodisaning kishilar o‘rtasidagi, o‘zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatini ifoda etishi uchun qo‘llanilmoqda. Qadriyat deganda ehtiyoj va manfaatlarini qondiruvchi jamiki moddiy hamda ma’naviy ne’matlar tushuniladi. Qadriyat–voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Barcha holatlarda qadriyat o‘zida ezgu niyatlar, maqsadlar va intilishlarni namoyon etadigan, millatning ma’naviy yetukligini ko‘rsatib turadigan mezonlardan sanaladi. O‘zida mujassam etgan, eng ezgu tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan va komillik sari da’vat etuvchi ma’naviy-ruhiy tushunchalar qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Mana shu hayotda yashashimiz, tinch va osuda hayotimiz, bayramlarimiz, udumlarimiz, mehrliligimiz, folklorimiz, o‘yinlarimizning barchasi ezgu va azaliy qadriyatlar sanaladi. Ularda bizning o‘zligimiz, xalqimizga xos eng muhim xususiyatlar bo‘rtib turadi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz, yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitib borishimiz, kelajak avlodlarga yetkazishimiz zarur. Qadriyatlar har doim insonlarni mehr-oqibatga, o‘zaro hamjihatlikka chorlovchi, asrlardan-asrlarga o‘tib xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan moddiy va ma’naviy jarayonlarning sara namunalaridir. Zero, qadriyat bu–millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini belgilab beruvchi muhim omildir. U muayyan bir xalq turmush tarzi, ijtimoiy taraqqiyotida asrlar davomida shakllanadi va sayqal topadi. Mana shunday takomil topgan oliy qadriyatlar millatning o‘ziga xosligini, mentalitetini namoyon etadi. O‘z milliy qadriyati bo‘lmagan millat yoki elat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma’naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Demak, ular muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o‘tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog‘liqdir. Milliy davlatchiligimiz poydevori barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy qadriyatlarning o‘rni har qachongidan ham ortib bormoqda. Ko‘p asrlik tarixga ega o‘zbek xalqining shunday qadriyatlari borki, ularni boshqa biror xalqnik bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlarinikiga o‘xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an’analardagi o‘ziga xoslikni ko‘rish mumkin. Mana shu qadriyatlar necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to‘fon va bo‘ronlardan sog‘-omon asrab kelmoqda. Komil insonni tarbiyalashda qadriyatlarining o‘rni beqiyosdir.



Jamiyatning asosiy negizi bo'lgan milliy qadriyatlar inson ongida axloqiy tarbiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, iymoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog'lom, intellektual salohiyatli, bir so'z bilan aytganda, sog'lom avlodni tarbiyalash davr talabi ekan, bu ishni amalga oshirishda yoshlarimiz tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish va bu jarayonda milliy qadriyatlarning ta'sirini yanada oshirmoq lozimdir. Milliy qadriyatlar, urfodatlar va an'analar xalq ma'naviyatini boyituvchi muhim omil ekanligi haqida gapirib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edilar: "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urfodat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi". O'z milliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini teran anglagan, uni e'zozlagan, asrab-avaylagan, undan faxrlana oladigan kishi chinakam xalqparvar, millatparvar sanaladi. O'zbekiston Respublikasining istiqbolli taraqqiyoti bugungi kunda yosh avlodning har tomonlama mukammal darajada shakllanishiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammosi psixologiyada eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani ilmiy-amaliy jihatlarini o'quvchilarda o'rganish va tarbiyalash yoshlarda huquqiy-psixologik bilimlarni zamon talablari asosida rivojlantirish imkonini beradi. Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday niyat, orzu, o'y-xayollar bilan yashamoqda, biz bunga aslo loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-ona, ustoz, murabbiy, yetakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatib turishga haqqimiz yo'q. O'zini haqiqiy pedagog, murabbiy-ustoz deb bilgan har bir ziyoli kishi ta'lim-tarbiya maskanida faoliyat yuritir ekan, demakki, shu yerda tahsil olayotgan har bir bolaning tarbiyasida, ma'naviy olamining shakllanishida bevosita mas'uldir. Odob-axloq, ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqat milliy merosgina emas, balki, insoniyat ma'naviy hayoti borasida katta o'rin olishi mumkin bo'lgan ma'naviy boylik hamdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yosh avlodni ular bilan tanishtirish mustaqilligimizni mustahkamlashda, odamlarda insonparvarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarini qaror toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"-Toshkent:2008 yil.
2. M.M.Mamatov. "Etnopsixologiya". – Toshkent:1999 yil.
3. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, D.X.Umirzoqov- "O'quvchilarning milliy xususiyatlarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari"-Toshkent:2018 yil.



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI O'STIRISHDA BAYONLARNING AHAMIYATI

**Tajimuratova Sharofat**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
8-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini o'stirish hamda ularni so'z boyligini oshirishda bayon yozishni ahamiyati xususida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** bayon, diktant, ijodiy tafakkur, pedagogik mahorat, ta'lim-tarbiya.

Ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni o'sayotgan, rivojlanayotgan va tarqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan ijodiy va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish biz muallimlar oldida turga eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Abu Nasr Farobiyning "**Ta'lim-tarbiya berish usullari**" asarida "*Bilim, ma'rifat yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayonini o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim*",- degan fikri boshlang'ich sinflarga ona tili o'rgatishda ham asosiy bosh mezon vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni bayon yozishga o'rgatish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat talab etadigan muhim va asosiy ish turlaridan biridir. Bayon bolalarda adabiy nutqning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi, nutq madaniyatini yaxshilaydi, badiiy estetik jihatlarni tarbiyalaydi, tilga sezgirlikni oshiradi. Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng qayta hikoyalashdir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish qayta hikoya qilishga nisbatan murakkabroq faoliyatdir. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin shunga ko'ra bayon uchun kichik hajmdagi, kompozitsiyasi sodda, til tomonidan ham mos matn tanlanadi. Bolalarda o'z fikrini mustaqil yozishga, o'qilgan matnni qayta hikoya qilishga o'rgatishni iloji boricha erta boshlash ma'qul. Buning uchun o'quvchilar og'zaki hikoya qilayotganda qo'llangan alohida so'zni yozishdan gapni yozishga, so'ng matnning qismlarini yozishga va ikkinchi sinfdan boshlab maxsus tanlangan matn asosida bayon yozishga o'rgatiladi. Bayon uchun tanlangan matnni o'quvchilar bir ikki marta o'qiydilar; bolalarning matn mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni uning g'oyaviy mazmunini qismlari orasidagi bog'lanishni to'liq bilib olishga qaratilgan suhbat o'tkaziladi, matn rejasi tuziladi, lug'at ishi o'tkaziladi, muhimroq sintaktik tuzilmalarga va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi. Ayrim gaplar, hatto matn qismlari tuzdiriladi, o'quvchilar bayon matnini mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ular ishini kuzatadi, o'qituvchi sinfdagi boshqa o'quvchilarga halaqit bermay ayrim bolalarga individual yordam beradi: bolalar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar.

Bayon o'tkazishda o'quvchilar matn mazmunini qanday tushunganliklari, o'z fikr va tushunchalarini ijodiy va mustaqil ifodalaganlari, yozma nutq malakasi va savodxonligi sinab ko'riladi. Bayon uchun matn tanlashda esa o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. Bayon turi o'quvchilarning kuchiga qarab belgilanadi.
2. Matnlar mazmuni o'quvchilar uchun mos bo'lishi shart.
3. Bayon ustida ishlash o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan mashg'ulotlarning boshqa turlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinf ona tili dasturiga ko'ra 3-sinfda 40-60 so'zdan iborat matnning mazmunini jamoa bo'lib tuzilgan 3-5 ta reja asosida bayon yozish ko'zda tutiladi. O'quv yilining 1- yarmidan yoziladigan bayonlar rejasi asosan o'qituvchi yordamida tuziladi, 2- yarim yildan mustaqil reja tuzish talab etiladi.

O'quvchilar tuzgan rejaları asosida bayon yozadilar. Reja har qanday o'g'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning "loyihasi". Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqida aytish, nihoyat hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi. Bolalar avval o'qigan hikoyalarga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzib shu asosda bayon yozadilar. O'quvchilar yozgan bayondagi so'zlar soni dasturda talab qilinganidan



oshmasligi kerak. Dastlab bayonlarga tayyorgarlik ko‘rishda o‘quvchilarni matnni qismlarga bo‘lib gapirtirishga ko‘proq e‘tibor berish kerak va reja savollariga sodda gaplar bilan to‘g‘ri javob olishga erishish kerak. Shu bilan birga bayonlarga puxta imloviy tayyorgarlik ko‘riladi. Bayon darsigacha va shu darsda o‘tkazilgan imloviy tayyorgarlik o‘quvchilarni bayon yozishlariga zamin hozirlaydi. O‘quvchilar butun fikrlarini ishning mazmuniga qaratadilar, har bir so‘z va gapni xotirjam o‘ylab yozadilar. Masalan, 3-sinf darsligida berilgan “Aqlli bog‘bon” ertagi asosida bayon yozishni ko‘rib chiqamiz. “Aqlli bog‘bon” ertagi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga ifodali o‘qib beriladi. Ertak matni yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. Suhbatdan o‘quvchilar oltin yerda emas, balki mehnatda ekanligini tushunib yetadilar o‘quvchilar berilgan reja asosida ertakni qayta hikoya qiladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bayonlarini tekshirganda, o‘qituvchi barcha imlo xatolarini tuzatishi shart emas, balki diktant va boshqa tekshiruv ishlardagi xatolarni ko‘rsatishda qo‘llangan usullardan foydalanishi ham mumkin. Bayonlar muhokamasiga maxsus darslar ajratilmay, navbatdagi ona tili darsida bayon matnining mazmunini yoritishda va gaplarni tuzishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish ishiga 12-15 daqiqa vaqt ajratish kifoya qiladi. O‘quvchilarning xatolariga barham berish ishini shunday rejalashtirish kerakki, bu ona tili darsida navbatdagi grammatik – imloviy mashqlar bilan qo‘shilib ketsin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ona tili darslarida o‘quvchilarni bayon yozishga to‘g‘ri yo‘naltirish o‘quvchining ijodiy tafakkurini o‘stirish bilan bir qatorda ularni so‘z boyligini oshirishga va o‘z fikr tushunchalarini izchil va erkin bayon eta olishga o‘rgatishi bilan o‘ta muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009
2. Safarova R. Ona tili o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: 2016
3. Umarova M. Bayonlar to‘plami. – T.: 1992



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL USTIDA ISHLASH METODIKASI

**To‘rayeva Zebiniso Norboy qizi**

Navoiy viloyati Navbahor tumani

26- umumta‘lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda masal ustida ishlashning ahamiyati va metodikasi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** masal, obraz, nutq, kulminatsion, kinoyaviy

Masal, axloqiy mazmuni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko‘proq she‘riy tarzda yoziladi. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba‘zan oxirida qissadan hissa, ya‘ni ibratli xulosa chiqariladi. Bu o‘quvchilarni axloqiy tomondan tarbiyalashga katta imkon beradi. Masalda fikrning qisqa, lo‘nda, chiroyli va ifodali tasvirlanishi, tilining o‘tkirligi va xalqchilligi o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirishda muhim material hisoblanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa va mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo‘la oladi. Bolalarni masaldagi kinoyaviy mazmun emas, balki, birinchi navbatda, obrazlarning go‘zalligi o‘ziga jalb qiladi. Shuning uchun masal ustida ishlashni hayvonlar hayotidan yozilgan hikoya ustida ishlash kabi uyushtiriladi. Odatda, masal personajlari o‘z xatti-harakatlari, fe‘l-atvori bilan, nutqiy uslublari, odatlari bilan o‘zlarini tavsiflaydilar, ba‘zan u xarakteristikani masalning boshqa personaji to‘ldiradi. Muallifning o‘zi esa bir-ikki so‘z bilan tavsifni mukammallashtiradi. Boshlang‘ich sinflarda masalni o‘rganishda bolalarni masalni ifodali o‘qishga va uning mazmunini qisqa, ba‘zan bir necha so‘z bilan aytib berishga (masalni to‘liq qayta hikoya qildirish tavsiya etilmaydi), ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o‘zaro qiyoslashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Masalning allegorik mazmuniga to‘xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi. 1- sinfdan bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o‘xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, 2- sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlari ba‘zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko‘proq she‘riy tarzda bo‘lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib olish boshlaydilar. Masal tili ustida ishlaganda, o‘quvchilar nutqini boyitish uchun unda ishlatilgan obrazli iboralar, badiiy vositalar o‘quvchilarga mustaqil toptiriladi: o‘quvchilar o‘qituvchi bergan gap yoki iborani masaldagi ibora bilan almashtiradilar. Masalan, Shukur Sa‘dullaning “Laqma it” masalining tili ustida ishlash jarayonida o‘qituvchi “Qish kelib sovuq boshlandi. Bo‘ron turdi” gaplarini beradi, o‘quvchilar gaplarini topib aytadilar. Masal tahlil qilinishida voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba‘zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif tuzish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Personajga xarakteristika berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, avtor tilini yaxshi tushunish, har bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda masal o‘quvchilarda axloqiy tarbiyani shakllantiradi, masaldagi personajlarni ijobiy va salbiy sifatlaridan o‘quvchi o‘ziga xulosa chiqaradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida berilgan masallar o‘zida kelayotgan yosh avlod ongiga yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, yolg‘onchilik va tog‘ri so‘zlik kabi tushunchalarni singdiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qish darsliklari
2. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
3. [www.referat.uz](http://www.referat.uz)



## ОНА ТИЛИ ДИДАКТИКАСИНING ТАДҚИҚОТ ПРЕДМЕТИ.

Ubaydullayeva Sanobar Sayfullayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 21- maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchis

**Annotatsiya.** Umumiy didaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish muammolarini tadqiq qiluvchi fandır. Ona tili didaktikasi esa yoshlarda ijtimoiy tajribaning alohida xususiyati — fikrni til vositasida shakllantirish va uni ro'yobga chiqarish tajribasini rivojlantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar.** Fan yutuqlari, Ta'lim jarayoni, metodika, L.P. Fedorenko, didaktika, tovush, harf, so'z, gap, matn

Til yashagan, yashayotgan va bundan keyin yashaydigan avlodlar o'rtasidagi vorislikni ta'minlaydigan asosiy vosita bo'lib, uni maktabda o'quv predmeti sifatida o'qitish tilning ta'lim-tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Shunday ekan, ona tili didaktikasining tadqiqot predmetini qanday tushunmoq kerak? Adabiyotlarda til o'qitish metodikasining tadqiqot predmetini ajratishga urinishlar istagancha topiladi. L.P. Fedorenko «ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari va til bilimlarini bolalarga o'rgatish vositalarini» bu fanning tadqiqot predmeti sifatida ajratgan. L.P.Fedorenkoning ta'rifida ikki xil hodisa metodikaning tadqiqot predmeti sifatida qayd etilgan. Tilni o'zlashtirish qonuniyatlari keng hodisa bo'lib, u ona tili metodikasi fani doirasidan chiqishga olib keladi. Birinchidan, ona tili o'quv predmeti sifatida ta'lim jarayonida o'qitiladi. Tilni o'zlashtirish qonuniyatlari, avvalo, tilning o'z tabiatiga, urf- odat, an'analar, jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqot, fiziologik va psixologik hodisalarga daxldor. Ko'p qirrali, rangbarang jarayonlarga mansub hodisani ona tili metodikasining tadqiqot predmeti sifatida ajratish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Ikkinchidan, til bilimlarini bolalarga o'rgatish vositalarini metodikaning tadqiqot predmeti shaklida tan olish, bu fanning harakat doirasini toraytirishga sabab bo'ladi. Aslida esa, ona tili metodikasi va uning qobig'ida shakllanayotgan ona tili didaktikasi didaktika o'rganadigan hodisalarni xususiy holatlarda — ona tili o'qitish nuqtai nazaridan o'rganadi. Binobarin, ona tili didaktikasi umumiy didaktikaga o'xshab, ta'lim jarayoni, ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmuni, ta'lim turlari, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari kabi muammolarning barchasi bilan aloqadordir. Barcha o'quv predmetlariga o'xshab ona tili ham maktabda ta'lim jarayonida o'rganiladi. Ta'lim jarayoni esa bola uchun tilni o'zlashtirishning yangi shart-sharoiti bo'lib, u makon va zamonda yuz beradi. Til ta'limining ma'lum sharoitida — ta'lim jarayonida amal qilishi, uni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga oid hodisalarni ma'lum darajada osonlashtiradi, o'quvtarbiya jarayonida uchraydigan stoxastlikni (kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan, muqarrar va tasodifiy hodisalar mavjudligi) chegaralash imkoniyatini beradi. Ona tilidan qanday mashg'ulot bo'lmasin, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri ma'lum o'quv materialiga yo'nalgan. O'qituvchi faoliyati (o'qitish), o'quvchilar faoliyati (o'qish), bolalarning real o'quv imkoniyatlariga mos o'quv materialini tilni ta'lim sharoitida o'zlashtirishning barqaror uzvlari sanaladi. Ulardan birontasi qatnashmasa, ta'lim zuhur etmaydi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu doirasida o'z bilimlarini tushuntirish yo'li bilan bolalarga ta'sir qilsa, o'quvchilar o'qituvchi tushuntirishini tinglash, savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yo'llari bilan unga ta'sir qiladi. Ikki xil ta'sirning amal qilish natijasi o'laroq, ta'lim ijtimoiy institutining alohida turi sifatida amal qiladi. O'quv materiallariga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri ona tili didaktikasining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ona tili didaktikasining maqsadi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an'analar davlat tili vositasida e'zozlanadi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to'plangan ijtimoiy tajriba ona tili orqali o'zlashtiriladi, ona tili vositasida o'rgatiladi. Shu tufayli ona tili birinchi muallim sanaladi. Maktabda ona tilini o'quv predmeti sifatida o'qitish uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Bola o'zining ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini til vositasida yuzaga chiqaradi. U o'zini va o'zgalarni, atrofdagi narsa-hodisalarni til yordamida taniydi, bilib oladi. Maktabda til o'qitish — uni o'zlashtirishning tabiiy davomi bo'lib, u bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tajribasi asosida tashkil etiladi. Ona tili predmeti o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og'zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so'z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o'qish va yozish) egallashlari bilan qo'shib olib borishning yetakchi



omilidir. Ona tili didaktikasining maqsadi o‘quvchilarda fikrlash mahsulini adabiy til me‘yorlari hamda nutq maqsadiga muvofiq, og‘zaki va yozma shaklda ongli, to‘g‘ri, ravon, ta‘sirchan bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalarini tadqiq qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. IKROMOVA R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. — T.: « O‘qituvchi», 1993.
2. M AHM UDOV M.H. Ta‘lim etaloni. — Buxoro. 1999.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI SIFATLI TA'LIM JARAYONI BILAN TA'MINLASH

**Umarova Zebo Usmonovna**  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani  
24-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayonlariga qiziqtirish va fanlarga yo'naltirish to'g'risida fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ aloqani yo'lga qo'yish, fanlarga yo'naltirish, innovation yondashuv.

Boshlang'ich sinf turli xil qobiliyatlarga va xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradigan dinamik muhit sifatida ajralib turadi. Shunday qilib, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitishning ijodiy va innovatsion strategiyasini amalga oshiradigan samarali o'qituvchi bo'lish juda muhimdir. O'qituvchilik kasbida bo'lganingizdan qat'i nazar, ikki oymi yoki yigirma yilmi, talabalar uchun eng mos keladigan to'g'ri o'qitish usulini bilish oson ish emas.

Boshlang'ich o'qitishda sinfni ilhomlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bir qator samarali o'qitish strategiyalarini ko'rib chiqishimiz mumkin.

1. Faol tinglash - boshlang'ich sinflarni o'qitish uchun eng muhim mahorat. Faol tinglash, o'zlarini to'liq ifoda etish uchun zarur bo'lgan og'zaki mahoratga ega bo'lmagan bolalarga yordam berish uchun o'qitish usuli sifatida ishlatilishi mumkin. Faol tinglash ko'p jihatdan o'yinlarni o'ynashga o'xshash sport translyatsiyasiga o'xshaydi, bu yerda o'qituvchilar harakatni amalga oshirishda bolalarga harakatlar va xatti-harakatlarni tasvirlaydilar. Har bir boshlang'ich o'qituvchini o'qitish dasturida o'qitiladigan faol tinglash texnikasi, o'zlarini noto'g'ri ifoda etganda, o'quvchilar o'rtasida almashinuv vaqtida yordam beradi. Sinfdagi ziddiyatlarni hal qilishda katta yordamni faol tinglash nafaqat bu, balki o'qituvchilarga boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'rsatmalar va ma'lumotlarni yetkazib berish orqali ham yordam beradi.

2. Konstruktiv qayta aloqa. Ijobiy mulohazalarni bildirish boshlang'ich o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berish va ularga rahbarlik qilishda yordam beradigan usullardan biridir. Konstruktiv mulohaza yaxshi bajarilgan ish uchun to'g'ridan-to'g'ri maqto'vni taklif qiladi. Ushbu usulni sinfga kiritish orqali o'qituvchi bolalarni qandaydir vazifani bajarayotganda yoki ko'rsatmalarga rioya qilganda tan oladi. Shuningdek, bu boshqa bolalarni yangi maqto'vga sazovor bo'lgan bolaning yo'lidan yurishga undaydi.

3. O'zaro o'qitish. Bolalar bir-biriga bo'lgan ishonch va qiziqish tuyg'usini namoyon etadilar - bu o'qituvchilar uchun o'qitishning istiqbolli usuli sifatida diqqat markazida bo'lishi mumkin. Tengdosh o'qitish bolalarni bir-birlariga yordam berishga va birgalikda ishlashga undaydi. Agar bitta bola boshqa bola qiynalayotgan hududda o'zini yaxshi his qilsa, u holda qo'shma loyihada ikkalasini birlashtirib, ularni bir-biridan o'rganishga undashadi. Boshlang'ich o'qituvchi sifatida tengdoshlarni o'qitish, tengdoshlariga taqdim etilishi mumkin bo'lgan individual loyihalarda ham yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinflarda innovation ta'lim 2020. T



## POWERFUL STRATEGIES TO TEACH ELEMENTARY ESL FOR IMPRESSIVE RESULTS

**Urazova Nasiba Bektemirjanovna**

Khorezm region, Urgench city.

The English teacher of secondary school № 16

email: nasiba.urazova.2020@mail.ru

**Annotation.** In this article I provide some advice on how to deal with starting work with primary level pupils in English language classes in secondary schools and I give three powerful strategies for impressive results.

**Keywords:** primary level, FluentU, teach elementary ESL, powerful strategies.

Teaching at primary level can cause many teachers, particularly those who have trained to teach elementary ESL, a variety of problems and generate a range of worries. Language by nature is very abstract and intangible. Learners, on the other hand, are very literal and concrete. This makes it challenging to explain grammar or syntax rules to children. But rest easy. As long as you know these three essential strategies for teaching English to learners, your pupils will succeed. Even if they can't articulate what a first conditional is.

### **1. Make it fun ! Pupils learn best through play**

It's entirely possible to teach a fun and educational class. One of the top ways to achieve this is with native content from FluentU. FluentU takes real-world videos like music videos, movie trailers, news and inspiring talks and turns them into personalized language learning lessons. With inbuilt video quizzes and interactive flashcards, your pupils will be able to learn real English through context and games. Here some ways you can make learning more fun with your pupils:

- Play games. Games are great way to make learning fun. Not only do games play on the competitive nature of most pupils, but games also give them a goal to accomplish.

- Be creative. Doing the same things in class every day boring for your pupils.

So be creative with your plans. You can also have pupils come up with their own games, activities and exercises. Have your pupils write quiz question for each other, or give them make their own review game for the latest grammar point. You might be surprised at how creative pupils can be.

### **2. Make it active**

If there is one thing learners like more than having fun, it's moving. The more language learners move, the better and faster they understand what you are teaching and the more easily they can retain the information. TPR (Total Physical Response) is a teaching method that works really well with pupils. In essence, you associate physical movements with language instruction. Pupils move as they learn English. You can use simple items like flashcards, but you can also be more creative with what you give your pupils to handle.

### **3. Don't put pressure on your pupils.**

One of the most important things to remember when you teach pupils is not to put pressure on them. Remember that children learn some aspects of foreign languages more easily than adults. So no matter what you do in class, they will already be on the road to fluency in English.

Their natural acquisition process will follow three simple steps. They will recognize words and grammar when you use them. They will be able to respond when you ask them questions about the words and grammar you use. And then they will be able to use those language structures themselves.

You can avoid putting pressure on pupils by:

- Not correcting every error they make.

Focus on what you have recently taught, and correct errors with those words and structures. But if you haven't covered a grammar point yet, let it go. Your pupils don't have to have all of English perfect right away.

- Modeling correct language use.

When you hear a pupil say something wrong or use a word incorrectly, just use it correctly right afterwards. The natural language learning feedback system in the human brain will notice the difference, and your pupils will likely use the language correctly just from hearing it right.

- Not giving everything a grade.



Sometimes it's enough to just go over correct answers with you pupils or have them discuss their answers together. You don't have to collect every paper and mark it up with the mighty red pen. Because language is abstract and learners are concrete, they may not be able to articulate grammar and other technical aspects of language, and that's okay.

If you're looking for creative ways to teach English, then you'll love using FluentU in your classroom!

**The list of used literature:**

1. My English Language <https://www.myenglishlanguage.com/teacher-resources/>
2. Busy Teacher.org <https://m.busyteacher.org>



## “SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FARZAND TARBIYASIDAGI QARASHLARI”

**Xayriyeva Nafisa Mustaqimovna**

Zarafshon shahar MTB tasarrufidagi 20-sonli DMTT tarbiyachisi  
nafisamustaqimovna@mail.ru tel: (91)334-37-91

**Annatasiya:** Ushbu maqolada bola tarbiyasida yo‘l qo‘yiladigan xatolar va ularni bartaraf etishdagi sharq mutafakkirlarining qarashlari bayon qilingan

**Kalit so‘zlar:** axbarot texnologiyalari, aqliy faoliyat, jismoniy mehnat, real dunyo, globallashuv, dunyoqarash.

Turkiy xalqlarda azal azaldan farzand tarbiyasiga yuksak e‘tibor berilgan. Oilalarda bolalarga kattani hurmat, kichikni izzat qilish kerakligi doimo o‘qtirib kelingan. Qaysiki oilada yoshi ulug‘ keksa insonlar bo‘lsa bu tarbiya yosh avlod ongiga singdirib borilgan. Hozirgi axbarot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bugungi davrda bu kabi tarbiyaviy o‘g‘itlardan chekinilayotganday. Hali ongi rivojlanib ulgurmagan farzand qo‘liga telefon berib uni o‘zlaricha band qilganday bo‘layotgan ota ona ertaga bu ishi qay darajada salbiy oqibatlariga olib kelishini o‘ylarmikan? Ulug‘mutafakkir olim Farobiyning shunday fikrlari mavjud. “ Har kimki ilm hikmatni o‘rganmagan bo‘lsa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin , yaxshi ahloq va odobi bo‘lsin , so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli-ilmidan mol dunyoni ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin” Ushbu fikrlardan shuni anglash mumkinki Farobiy talim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga aloxida e‘tibor bergan .Yusuf xos Xojibning o‘qtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topishi kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Shundagina ularning noo‘rin xatti harakatlarini oldini olinadi. Shu o‘rinda Ibn Sinoning ajoyib hikmatini eslash joizdir. Farzand tarbiyasida eng avvalo ota ona oynadir, har bir farzand birinchi galda ota onaning aksidir. O‘z kamchiligini tuzatishga qodir ota onagina haqiqiy tarbiyachidir. Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda , yakkama- yakkam suxbatda bo‘lish, unga nasixat qilishdir. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e‘tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘ziga yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-biriga bo‘lgan ruxiy ma‘naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb, farzandni voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o‘qtiradi. Voiz al-Koshifiyning ta’kidlashicha insonni ta’lim –tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatni o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e‘tibor beradi. Bu masalada oilaviy va tashqi muhit ham muhim o‘rin tutadi. Bolani to‘g‘ri so‘zli vadaga vafodor,yaxshi xulqli qilib tarbiyalash kerak. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo‘lmasa, boladagi qobiliyat so‘nadi, tarbiyaning uchta asosiy –aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga e‘tibor berish lozim.. Adib bolaning tarbiyasida ota –onaning o‘rnini yuksak baholaydi. Abduraxmon Jomiy “Baxoriston” asarida o‘z qarashlatini bayon qilib yoshlarni ilm egallashga da’vat etadi. Aqlli va dono, eng avvalo adolatli insonlargina jamiyat ning gullab yashnashiga o‘z hissalarini qo‘sha oladilar, Sharq mutafakkirlarining asarlarini o‘rganar ekanmiz ularda eng avvalo farzandlarni yoshligidanoq mehnatsevarlikka va ilm olishga da’vat qilish lozimligi bunga eng avvalo ota-ona mas’ul ekanligi ta’kidlangan. Zero jamiyatni tanazzulgan ongli va har tamonlama intellektual salohiyatli avlodgina saqlab qolishi hech kimga sir emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud ahloq” 1998 PDF
2. A.Zunnunov “Pedagogika tarixi” Sharq 2004 y
3. R. Mavlonova O. To‘rayeva “Pedagogika” Toshkent 2001 y



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISH VA MILLIY MADANIYAT QADRYATLARINI SHAKLLANTIRISH.

**Xudoyqulova Marg‘uba Raxmiddinovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

7-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon : +998(94)254 66 88

shokirova\_188@mail.ru

**Annotasiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish jarayonida ularga diktantlar o‘rgatish, interaktiv usullar orqali diktantlar o‘tkazish borasidagi ma‘lumotlar berilgan..

**Kalit so‘zlari:** Boshlang‘ich ta‘lim, o‘zbek xalqi, Davlat ta‘lim standarti, Xalqaro baholash dasturlari, sifatli ta‘lim, texnik elementlar, kasbiy kompetenlik.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutadi. O‘quvchi matni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta‘lim standard (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashga yo‘l ochiladi. O‘qish darslarida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O‘qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma‘naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroficha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta‘limiy, ilmiy- ommabop asarlar kiritiladi. O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy- ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang‘ich sinf „O‘qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan beqilganadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Har qanday sohada rivojlanish jadal sur‘atlarda davom etmoqda. Ana shu jarayon bilan hamohang holatda ta‘limda, boshlang‘ich sinflar bosqichida ham yangiliklar, o‘zgarishlar, sifatli ta‘lim jarayonlari muhim, albatta. Bunda asosan pedagogik kadrlarni o‘rni katta. Bir necha yillik tajribaga tayangan holda shuni aniq ayta olamanki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘limtarbiya sifatini oshirishning birinchi fundamenti bu sinf o‘qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta‘limdan boshlanadi. Avvalo insonda ustoz bo‘laman degan qiziqish, qobiliyat va ma‘suliyatni his qila oshish hissi bo‘lishi kerak. Qolaversa bilim yurtida beriladigan ta‘limni tushunarli holda o‘z ongiga singdira bilgan talaba keyinchalik amaliyot jarayonida qiynalmaydi. Bilim berish bilan birga amaliyotni ko‘paytirish kerak. Chunki kelayotgan amaliyotchi xuddi yangi zamonga tushib qolganday sezmasligi kerak.

Bundan tashqari barcha pedagoglar besh yildan oshmagan holda o‘z vaqtida pedagoglarning malakalarini oshirish hududiy markazlarida malaka oshirib zamon talablariga mos holdagi yangi metodlardan va yangiliklardan xabardor bo‘lishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi berayotgan ta‘lim zamon talablariga mos holda bo‘lishi uchun texnik elementlarni aniq bilishi hamda ularni ta‘limiy tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarda q‘llay olishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hududiy qishloq, shahar va yoshini hisobga olgan yondashilsa o‘qituvchi hamda o‘quvchi uchun ham qulaylik yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti. T.:2005
2. 2-3 sinf “O‘qish” darsliklari T.: 2013.



## BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA PREZIDENT SHAHKAT MIRZIYOYEVNING “OLIIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI”GA OID MATERIALLARDAN FOYDALANGAN HOLDA O‘QUVCHILARNI VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBİYALASH

**Xujanova Iroda Baxtiyorovna**  
Navoiy shahar 12-IDUM  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan e’tibor, shuningdek boshlang‘ich sinf matematika darslarida mamlakatda ijtimoiy rivojlanish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga oid ma’lumotlardan foydalangan holda o‘quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash to‘g‘risida fikrlar bayon etib o‘tilgan.

**Tayanch so‘zlar:** istedod, mantiqiy tuzilma, yordamchi axborot, ommaviy axborot vositalari, ijodiy tafakkur, mustaqillik.

Hozirgi paytda yosh avlodning zamon talablariga mos tarzda barkamol inson bo‘lib yetishishi ijtimoiy ma’naviy sohada har tomonlama rivojlanayotgan davlatimizning eng oliy maqsadlaridan biridir. Shu sababli Markaziy Osiyo mutafakkirlari, taniqli fan arboblari ijodida ham yosh avlod ta’lim tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan 2021 yilni mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilindi. Davlatimiz rahbarining ushbu taklifi xalqimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Prezidentimiz parlament a’zolariga, ular orqali xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasi, davlatimiz demokratik islohotlar yo‘lidan hech qachon ortga qaytmasligini ta’kidlab, yangi O‘zbekistonni barpo etish borasidagi ulug‘vor maqsadlarni bayon etib o‘tdi. 2021 yilda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini ta’minlash borasidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi.

O‘quvchilarning qiziqishlari kichik maktab yoshidanoq tarbiyachi pedagoglar hamda ota-onalarning diqqat-e’tiboridan chetda qolmasligi ya’ni ularning istedod, bilim, qobiliyatlari har doim rag‘batlantirilishi va qo‘llab quvvatlanishi lozim. Ilmiy manbalarda o‘quvchilarning bilish faolliklari ularning moddiy borliqqa bo‘lgan munosabatlari sifatida talqin etiladi. O‘quvchilar ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishlari asosida ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan moddiy va ma’naviy vositalarni bilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlari ularning bilish faoliyatlarini jadallashtiradi. Bu ularning ixtiyoriy harakatlari va muloqotlarida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarga mamlakat mustaqilligi, uning mazmun- mohiyati va zaruriyati to‘g‘risida tushunchalar berishda “mustaqill davlat” tushunchasi mazmun-mohiyatining asoslab berilishi o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari adolat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida belgilangan. Mustaqillik tufayli adolat qaror topdi, adolat qoidalarining tantana qilayotganligini umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy an’analarning tiklanganligida ham ko‘rishimiz mumkin. Bularni qadrlash va asrash mustaqillikni mustahkamlash yo‘nalishida qator vazifalarni oldimizga qo‘yaydi.

Bu borada mamlakatimizda ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqdaki, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ham xalqimiz faravonligi yurtimiz tinchligi va osmonimiz musaffoligini taminlash va mustaqillikni yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Ta’lim jarayonida o‘quv materialini asosiy va yordamchi axborotning birlashmasi sifatida qarashimiz mumkin. Asosiy axborotni berishdan maqsad ta’lim oluvchida uni bilimga yoki ko‘nikmaga aylantirishdir. Yordamchi axborotlarning maqsadi esa o‘zlashtirilgan asosiy axborotlarning mustahkamlanishini ta’minlashdan iboratdir. Axborotlarni izlab topish, o‘rganish va tahlil qilish jarayoni hozirgi paytda shunchalik tezlashib ketganki, o‘quvchi xohlagan ma’lumotni o‘zi istagan vaqtda ommaviy axborot vositalari manbalaridan yoki internet saytlaridan olishlari mumkin va bu borada hech qanday muammo yo‘q.



Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha O'zbekiston dunyoning 141 mamlakati orasidan 2-o'rinni band etgan. Shundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ta'lim sohasi yildan-yilga jadal suratlarda rivojlanib, yoshlar bilimlari ham kundan-kun yaxshilanib borayotganligining yaqqol aksidir.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayotiga oid aniq dalillarni o'rganish, tahlil qilishga odatlanish, turli nuqtai nazarlarni tinglash va tushunish, ularni baholashga tayyor bo'lish ko'nikma va malakalarini shakllantirish boshlang'ich sinf matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim. Shu sababli ham bugungi kunda maktab dasturlari bir muncha murakkablashgan bo'lib, bu holat o'zining ma'lum asoslariga ham ega. Ta'lim mazmunini yangilash nuqtai nazaridan yondashganda o'quvchining loyihachilik faoliyatiga keng yo'l ochish alohida ahamiyatga ega va ushbu faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqlarida ta'kidlab o'tilgan Respublikamizda madaniy va iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan yangiliklarni aks ettiruvchi ma'lumotlaridan, shuningdek matbuot yangiliklaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oliy Majlisga murojaatnomasi" keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan eshitildi. Ushbu maruzada Respublikamizda barcha sohalarda inson manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshirilayotgan ko'plab ijobiy ishlar to'g'risida raqamli ma'lumotlar berib o'tilgan.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida ushbu ma'lumotlar asosida matnli masalalar tuzish va uni o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qilib yechish o'quvchilarda ko'plab ijobiy xislatlarni shakllantirish va eng asosiysi ularda Vatandarparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning bebaho nemat ekanligini to'g'ri anglash, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida baxtli va farovon kelajak taminlanishiga aniq ishonch hosil qilish uchun o'quvchilarda ilmiy duny qarash hamda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik tafakkurini rivojlantirishda avvalo, mustaqillikning yoshlarga berayotgan katta imkoniyatlari, ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush qurish mustaqillikdan ko'zlangan asosiy maqsad ekanligi, umuminsoniy qadriyatlar, Vatandar tuyg'usi, Vatanga muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, urf-odatlar, ma'naviyat, milliy g'ova boshqa ko'plab tushunchalarning mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongida shakllantirib borish zarur bo'lib bu esa o'quvchilarda quyidagi ijobiy xislatlarni tarkib topishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi:

- vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash;
- o'ziga bo'lgan ishonch;
- tafakkur mazmundorligi;
- tez fikrlay olish, tezkor xulosa chiqarish;
- har qanday jamoaga tez moslasha olish;
- insonlarga nisbatan g'amxo'r mehribon bo'lish;
- yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bog'lash;
- ongida bunyodkorlik g'oyalarining shakllanganligi va b.q.

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarning ona Vatanga bo'lgan muhabbati, Respublikamizda amalga oshirilayotgan yuksak bunyodkorlik ishlari to'g'risida tushunchalarini shakllantirishni boshlang'ich ta'lim davridanoq rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonning ijobiylikini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari hamda matbuot yangiliklaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 30-dekabr 276 soni
2. Komil inson tarbiyasida o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish. Mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Navoiy 2011 y
3. Xalq ta'limi jurnali 2012 yil 6 soni
4. Pedagogik mahorat jurnali. 2011 yil 3 soni



## “BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN‘AT FANI O‘QITISH TEKNOLOGIYASI”

**Asemgul Yersultanova Karibayevna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tasviriy san‘at darslarini o‘qitishga o‘quvchilarga osonroq va samarali o‘tib berishda qanday texnologiyalar yordam bera olishi to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsion usullar, ijodiy mashq, evristik ta‘lim

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san‘at darslarini o‘qitishga oid muammolar maktablarning tasviriy san‘at o‘qituvchilari uchun talaygina. Ularni to‘g‘rilash va bartaraf etishning yo‘llaridan biri sinf o‘quvchilari uchun tasviriy san‘at darsliklari, qo‘shimcha manbalar ustida ishlashdir. Lekin, hanuzgacha bu sohada muammolar uchrab turibdi. Shuni hisobga olib bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tasviriy san‘at darslarida qo‘llash uchun ishlatiladigan quyidagi usul va o‘yinlarni tavsiya etmoqchiman. Har bir narsani o‘ziga qarab rasm ishlash, san‘atshunoslik asoslari, kompozitsion faoliyatga oid bo‘lib ularni grafikada, rangtasvirda natryurmortlar va manzaralar yaratish kabi masalalar yoritiladi. Bu usullar nafaqat boshlang‘ich sinfda tasviriy san‘atni o‘qitishda, balki, yuqori sinf o‘quvchilariga mavzularni tushuntirishga yordam beradi degan umiddaman.

**“Ijodiy mashq” usuli.** Ushbu usul o‘ziga xos xususiyarga ega bo‘lib, o‘ziga xoslik rasmlarni tasvirlashning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo‘llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

**“Evristik ta‘lim” usuli.** Bunda o‘qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish. To‘garak rahbari bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma‘lum qiladi qolganini esa o‘quvchilar topshiriqlarni echish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o‘zlashtiradi o‘zlari bilimlarni mustaqil egallashadi.

**“Xatolarni topamiz” usuli. Tashkil etish tartibi.** O‘qituvchi bolalarga kartochkalarni chizilgan rasmlarni o‘qib beradi. O‘quvchilar rasmlarni diqqat bilan ko‘rib, qanday xatolar topganliklarini, to‘g‘ri yechimi qanday bo‘lishi lozimligini tushuntirib berishlari lozim.

**“O‘z xotirangni sinovdan o‘tkaz”** Bunda o‘qituvchi o‘z mavzularidan kelib chiqib, qog‘ozga berilgan topshiriqni ( mavzuga oid rasmni) eslab qolish asosida to‘g‘ri va xatosiz chizishlari lozim.

**“Muammo” usuli .** Bu usulda mavzuga tegishli biror narsa , hodisa muammo qo‘yib qo‘yiladi. Bunda masalan, “Meva solgan daraxt” misolidagi ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Bunda oldindan rasmi daraxt va uning mevalari tayyorlab qo‘yiladi. Dars jarayonida javob beradigan o‘quvchi ushbu mevalardan birini olishga muyassar bo‘lishi uchun uning orqa tomonidagi savolga javob bera olishi shart.

**“Chigil yozdi” metodi.** Dars boshlanishida bu usul darsga o‘quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida o‘quvchilar diqqatini darsning keyingi bosqichiga chorlash uchun qo‘llaniladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning ko‘zlari toliqib qolishini oldini olish maqsadida ushbu usuldan foydalanadi.

**“O‘zingni sinovdan o‘tkaz” metodi.** Har bir guruh ushbu fandan olgan taassurotlari, bilim va malakalarini sinovdan o‘tkazish maqsadida “O‘zingni sinovdan o‘tkaz” toshirig‘i asosida o‘tilgan mavzularga aqliy hujum asosidagi tezkor savol-javoblarga javob berishlari aytiladi.

**“Kichik muhokamachi”** Ushbu topshiriq jarayonida o‘quvchilarning o‘tilgan darslar davomida erishgan yutuqlari va kamchiliklarini shaxsiy kuzatishlari asosida aytishlari, muhokama qilishlari lozim. Ushbu topshiriq turli fanlarda turlicha kechadi.

**Noan‘anaviy darslar imkoniyatlari.** O‘qituvchilik doimiy izlanishda bo‘lishni taqazo etadi. Dars jarayonida yangiliklardan, yangi pedagogik texnologiyalardan, turli dars turlaridan foydalanish o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishiga asos bo‘ladi.

**1 . Yangi bilimlarni bayon etish darsi.** Darsni tashkil etish, maqsad va vazifalari, yangi darsni o‘qitishga zamin tayyorlash, yangi bilimlarni bayon etish, mustahkamlash, darsni yakunlash, uyga vazifa.



2. **Aralash dars.** Bunda ish olib borishning har xil turlari – tushintirish, ma’ruza, yozma, mustahkamlash, tekshirish, yakun yasash uyg’unlashgan bo’ladi.

3. **Bilim, ko’nikma, malakalarni hosil qilish va mustahkamlash darsi.** Amaliy faoliyatga va mashqlarga e’tibor berishga asoslanadi.

4. **Umumlashtiruvchi yoki takrorlash darsida** muayyan mavzular va bilimlar bo’yicha o’rganilgan material tizimga solinadi.

5. **O’quvchilar bilimni nazorat qilishni tekshirish va baholash darsida** o’quvchilar turli xildagi sinov va nazorat, og’zaki va yozma ishlarni bajaradilar.

**Noan’anaviy dars turlari:**

1. **Musobaqa darsi** – bunda o’quvchilar ikki guruhga bo’linib, o’zaro bellashadilar.

2. **Aqliy hujum** – Bunda o’qituvchi mavzuga oid savollarni tezlik bilan o’qiydi, o’quvchilar qisqa muddat ichida ularga javob berishlari kerak.

**FSMU** - metodida to’rtta bosqichda yozilgan qog’ozlar tarqatiladi.

F – mavzu bo’yicha fikringizni bayon eting

S – fikringiz sababini ayting M – misollar keltiring U – Umumlashtiring

O’quvchilar bilan o’rtaga tashlangan muammoli vaziyat yechimini belgilab olinadi.

Tasviriy san’at fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o’quvchilarni ijodkor, komil, mustaqil fikrga ega bo’lgan insonlar bo’lib shakllanishiga yordam beradigan, nafosat tarbiyasini qalbiga singdiradigan fanni ta’limiy – tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga uslubiy yordam tariqasidadir.

Amaliy rasm chizish jarayonida o’quvchilar o’zlarining qobiliyati, iqtidori, iste’dodi va talantini namoyish etadi. Har bir insonning faqat san’at bilan ochiladigan qopqoqchasi bo’ladi deyiladi. Bola amaliy ishlar bajarish orqali o’zining iste’dodini ko’rsatadi. Chunki tasviriy san’at darslarining hamma turlarini o’qitish jarayonida kompozitsiya yaratiladi. Bu esa ijodiy ish hisoblanadi. Shu orqali o’quvchilarning bilim, kunikma va malakalari shakllanib boradi.

Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi o’yinlar orqali davom ettirish mumkin. Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri har bir o’quvchiga puxta va chuqur bilim berish, tasviriy san’at faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta’minlashdan iborat. Bu hol o’qitish metodlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. O’qitishda o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish o’quvchilarning ongliligi va faolligini ta’minlash bilan uzviy bog’liq. Shuni unutmagan holda har bir darsni fanlararo bog’liqlik asosida tashkil etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. “Umumta’lim fanlar metodikasi” jurnali 2016- yil ,1-son

2. Internet saytlari:-ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



## ADABIY TA'LIMDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH.

**Yoqubova Dilnoza Xurshidovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
15-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon: +99 890 732 28 47

**Annotatsiya:** mazkur maqolada maktab ta'limida Bobur ijodini o'rgatish jarayonida darslikdagi ma'lumotlarga suyangan holda ularni kengaytirib, shoir biografiyasiga oid qo'shimcha dalillar berishda “Boburnoma” asarining ahamiyati haqida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** olubolu, qovun, xat, qimmatbaho narsalar.

Insoniyat tarixidagi g'oyat dilbar shaxs sanalmish Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rgatishda darslikda berilgan ma'lumotlar bilan birga uning shaxsiy sifatlarini ham alohida ta'kidlab o'tish zarur. Chunki adib hayoti ma'lumot uchungina o'rganilmaydi. Balki yosh avlodga yetuk inson, butun shaxs namunasi o'laroq o'rnatiladi. Toki bolalarimiz ularga o'xshashga, hech bo'lmaganda ularga munosib bo'lishga intilsinlar. Shu o'rinda “Boburnoma”ga murojaat qilish o'rinli bo'ladi.

Bobur xarakteri uchun eng birinchi xususiyat Vatan tuyg'usi, ota yurtga nisbatan e'zoz va hurmat hislari bilan to'lib tushganligidir. U xoh afg'on, xoh hindyerida bo'lsin o'z vatanidagi daraxtlardan, mevali ko'chatlardan, gullardan parvarish qildiradi. Masalan, 1504-yilda Kobulga olubolu keltirib ekadi

1528-yili Bobur Andijondga, Xo'ja Kalonga yozadi: “Bizning ehtimomimiz ul sorilar bormoqqa behad va beg'oyatdur. Hindiston ishlari ham bir nav' somon topib keladur... Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay... Bu fursatta bir qovun keltirib edilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi, tamom yig'lab edim.” Boburning ota va o'g'il, shoh va shahzoda munosabatidagi qarashlari ham alohida diqqatga sazovor. U taxtni egallash uchun Ulug'bekday otasini qatl qildirgan Abdullatifni qattiq qoralaydi. Nizomiyning: “Padarkush hech qachon podshoh bo'lolmaydi. Podshoh bo'lsa ham olti oydan ortiq turmaydi” degan hikmatini keltirib, Abdullatifning ham juvonmarg bo'lib ketganini aytadi va avlodlarga tanbeh beradi. Boburning o'zi esa farzandlariga mehribonlik va talabchanlik namunalarini ko'rsatadi. 1528-yili Humoyun o'g'illik bo'lganida Bobur farzandini tabriklaydi. Murabbiy va ustoz sifatida unga otalik nasihatlarini beradi. Humoyunga xatlaridagi imlo xatolaridan tortib, yurish-turishigacha yo'l ko'rsatib, mehribonlik qiladi: ... bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'quyolmagandin so'ng albatta tag'yir berur eding. Xatingni xud tashvish bilan o'qusa bo'ludur, vale asru mug'laqdur (juda chalkashdur). Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni “to” bila bitibsen, Qulungni “yo” bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ludur, vale bu mug'laq alfozingdin (chalkash so'zlar) maqsud tamom mavhum bo'lmaydur (tushunmaydi). Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'ludur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham sanga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qug'ichig'a”.

1529-yili Humoyun kasal bo'lganida uni Badaxshondan Dehliga, Bobur yoniga yuboradilar. Og'ir yotgan o'g'li tuzalavermagach, “yaxshi nimarsalardin tasadduq qilmoq kerak,” ya'ni qimmatbaho narsalardan nimadir shahzoda uchun bag'ishlash kerak deya tadbir aytadilar. Bobur “Muhammad Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q”, deb o'g'lining atrofida uch bor aylanib o'zini tasadduq qiladi. Shunda “O'shal zamon men og'ir bo'ldim, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qopti. Men noxush bo'lib yiqildim. A'yon davlat va arkoni mamalakatni chorlab, bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lga berib, joynishinlig'iga va valiahdlig'iga nasb qildim va taxtni anga topshirdum”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. T. Sharq, 2002. 28-bet (Keyingi misollar ham shu manbadan olingan)



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

**Yuldasheva Zumrad Karimovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani  
36-IDUM Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Yakubova Nigora Shonazarovna**

Xorazm viloyati Xonqa tumani  
34-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada Boshlang'ich sinf darslarini samarali tashkil qilishni zamonaviy usullari hamda vositalariga oid fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlari:** boshlang'ich ta'lim, interfaol metod, axborot-texnologiya.

Yurtimizda istiqbolning ilk yillaridanoq ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Bu e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu sohada bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimiga oid bir qancha qarorlar, dasturlar qabul qilindi. O'z navbatida bu qaror va dasturlar bugungi kun ta'lim tizimining jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oldi desak adashmaymiz. Haqiqatdan ham rivojlangan davlatlarning tarixiga nazar tashlasak, ularda ham, eng avvalo, islohotlar ta'lim tizimida boshlanganini ko'ramiz.

Hammamizga ayon, yosh avlodning asosiy bilim manbayi maktabda shakllanadi. Boshlang'ich ta'lim esa umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Farzandlarimizning maktablarda olgan ilk bilim va ko'nikmalari o'z navbatida maktab davrining keyingi bosqichlariga o'z tasirini tekkizmay qolmaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli juda ahamiyatli. Shuning uchun, eng avvalo, maktablarimizda, jumladan, boshlang'ich ta'limda zarur ishlarni amalga oshira olsak, o'quvchilarning zamonaviy bilim olishlariga imkon yarata olsak, yosh avlodlarimizni nurli kelajak sari otgan ildam qadamlarining sababchisi bo'la olamiz. Zero, Prezidentimiz takidlab aytganlaridek: *"Maktab bu – hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi"*.

Hozirgi kunda maktablarimizda, jumladan, boshlang'ich sinflardagi dars jarayonlarida o'qituvchilarimiz tomonidan turli interfaol metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari samarali foydalanib kelinmoqda. O'qituvchining bu kabi metod va texnologiyalardan foydalanishi, o'quvchining ushbu fanni qiziqish bilan o'rganishiga, berilgan ma'lumotlarni yodida saqlab qola olishiga, egallagan bilim va ko'nikmalarni real hayotda qo'llana olishiga asos bola oladi. Boshlang'ich sinflarda bunday metod va texnologiyalarni qo'llashda eng avvalo o'quvchining yoshi, qiziqishi va bilim darajasi e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq. Bu yoshdagi bolalarga asosan oson, oddiy didaktik o'yinlardan foydalansak dars jarayoni maroqli va zavqli o'tadi. Hozirgi vaqtda o'qituvchi zamonaviy texnika va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi faqatgina darsliklarda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, hozirgi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mavzuga oid internet ma'lumotlarini topa olishi, ulardan dars jarayonida foydalana olishi kerak. Bu o'z navbatida o'qituvchidan kompyuter savodxonligini va dars uchun kerakli manbani internetdan topa olish ko'nikmasini talab qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'z darsida turli multimedia vositalaridan, mavzuga oid suratlar va roliklardan foydalansa, darsga o'quvchi qiziqish bilan qarashdan boshqa, mavzuni to'liq o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini uzoq ushlab turib bo'lmasligini inobatga olgan holda, multimedia vositalaridan foydalanishga 10-15 daqiqa ajratsak bo'ladi. Ya'ni o'qituvchi darsini faqat multimedia qo'yib berish bilan o'tkazishi kerak emas. Bu o'quvchilarning zerikishiga olib keladi. Dars jarayonida turli xil testlardan, boshqotirmalardan, ko'rgazmali slaydlardan ham foydalanish darsning maroqli o'tishiga sabab boladi. Test va boshqotirmalarni birgalikda yechib o'quvchilar orasida jamoada ishlay olish ko'nikmasini hosil qiladi. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'limni shakllantirish jarayonida ortiqcha kuch sarflamay, o'quvchiga qisqa vaqt ichida muayyan bilimni yetkaza olish, o'qituvchidan kasbiy mahoratni talab qilishi aniq. Bu jarayonda o'qituvchi nafaqat internet ma'lumotlarini topa olishi, balki ushbu ma'lumotlarni o'quvchiga aniq va ravon tushuntira olishi ham juda muhimdir. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, mutaxassislik bo'yicha bilimlardan tashqari, pedagogik va psixologik bilimlar, o'qitish metodikasiga oid bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Ya'ni yosh avlodga bilim va tarbiya berayotgan



ustoz bugungi kunda faqat o'z mutaxassisligi bo'yicha izlanishlar olib borishdan tashqari, o'zida mujassam bilim va ko'nikmani o'quvchilarga yetkaza olish metodikasini ham bilishi zarur. Bu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtira olgan o'qituvchi bugungi zamonaviy ta'limning haqiqiy shakllantiruvchilari bo'la oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'limni rivojlantirishda o'qituvchilar ma'lumotlarni faqatgina global tarmoqlardan ko'chirib olishdan tashqari, bu yangiliklarni o'zlari ham yarata olishlari zarur. Yani, hozirgi zamon zamonaviy o'qituvchisi o'z faniga oid ma'lumot va yangiliklarni o'zi tayyorlagan slaydlar, videoroliklarda taqdim eta olishi zarur deb o'ylayman. O'qituvchi o'z o'quvchilarining yoshini va salohiyatini inobatga olgan holda, bu jarayonga ijodkorona yondashuvi talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini 45 daqiqalik dars davomida darsga qiziqтира olish va chalg'itmaslik uchun o'qituvchi dars jarayonining mukammal xaritasini yarata olishi kerak. O'qituvchi o'quvchisini zeriktirmasligi, har bir darsda yangi o'qitish metodlaridan, didaktik o'yinlardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanishi zarur. O'quvchi keyingi darslarni, dars jarayonida o'qituvchisi tomonidan beriladigan yangiliklarni kutishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Boshlang'ich ta'limda zamonaviy ta'limni rivojlantirishda bizga, eng avvalo, o'z sohasidagi va psixologik bilimlarni mustahkam egallagan, zamonaviy pedagogik texnologiya va o'qitish metodlarini dars jarayonida mahorat bilan qo'llana oladigan, o'quvchilarni darsga qiziqтира oladigan, yosh avlodga bilim va ilm berishdan tashqari, ularni ona-vatanga sadoqat, milliy urf-odatlarimizga hurmat nazari bilan qaraydigan mukammal shaxsni shakllantiruvchi o'qituvchilar zarur deb o'ylayman. Buning uchun o'qituvchilarni yangi metodik qo'llanmalar bilan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar bilan ta'minlashimiz, va albatta, bu texnologiya va metodlarni o'quv jarayonlarida qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003
2. Munavvarov T. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 1996.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog- o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: 2008



## БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ЎҚУВЧИЛАРДА АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Байджанов Бекзод Хаитбоевич,**  
Фарғона давлат университети  
таянч докторанти  
Телефон:(+99891) 667-01-51  
baybekzod@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада ёшларда интернет ва бошқа ахборот ресурсларидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш масалалари, шунингдек, ахборот хавфсизлиги мураккаб ҳодиса сифатида мазкур тушунчани изоҳланишига доир бир қатор таҳлиллار келтириб ўтилган.

**Таянч сўзлар:** таълим, тарбия, ахборот, зарарли ахборот, интернет, маънавий тарбия, педагогик-психологик фанлар, ахборот психологик хавфсизлик.

Мустақиллик йилларида республикада жамиятни ахборотлаш-тиришга доир давлат сиёсати ишлаб чиқилиб, ахборот ресурслари, ахборот технологиялари ва ахборот тизимларини ривожлантириш ҳамда замонавий жаҳон тамойилларини ҳисобга олган ҳолда миллий ахборот тизимини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари яратилди[7, 50-б.]. Шунингдек, жамиятни ахборотлаштириш шароитида тарихий-маданий меросни кенг тарғиб этиш, талабаларда миллий ғурур ва ифтихор туйғусини, аجدодлар меросига аксиологик муносабатни қарор топтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Натижада ижтимоий-гуманитар таълим йўналиши талабаларида ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантиришнинг самарали ташкилий-педагогик механизмлари ва зарарли ахборотлар таъсиридан ўз-ўзини ҳимоялашнинг профилактик тизими ишлаб чиқилди. Мазкур профилактик тизимни мустаҳкамлаш мақсадида “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”да ахборот хавфсизлигини таъминлаш ва ахборотни ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш, ахборот соҳасидаги таҳдидларга ўз вақтида ва муносиб қаршилиқ кўрсатиш масаласи алоҳида йўналиш сифатида белгиланиб, ёшлар онгига таҳдид солувчи ахборот хуружларининг олдини олиш, ёшларда Интернет ва бошқа ахборот ресурсларидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш[5, 27-б.] масаласи муҳим ўрин эгаллади.

Айни пайтда жаҳонда талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш; миллий маданий мерос воситасида талабаларда ахборот хуружларига қарши ўз-ўзини ҳимоялашнинг диагностик-профилактик тизимини такомиллаш-тириш; талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятларини ёритиб бериш; тарихий-маданий меросдан фойдаланишнинг методик шарт-шароитларини аниқлаштириш; талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантириш технологиясини ишлаб чиқиш; талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантиришнинг методик тизимини такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Бу борадаги илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш ва олиб боришда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ 4947-сон Фармони[5], 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ 2909-сон Қарори[6], 2018 йил 19 февралда “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5349-сон Қарори, Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 мартдаги “Алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация хизматлари сифатини янада яхшилашга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги 185-сон Қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари муҳим манбаа сифатида хизмат қилиб келмоқда.

Келгусида педагог-мутахассис сифатида фаолият олиб бориши белгиланган бакалаврият таълим йўналишлари талабаларини ўқувчиларда ахборот хавфсизлиги кўникмаларини шакллантиришга тайёрлашнинг амалдаги ҳолатини таҳлил қилганимизда, ўқув



материалларида ахборот хавфсизлиги тушунчасини изоҳланиши билан боғлиқ бўлган бир қатор мураккаб ҳолатларга дуч келдик. Қуйида, ахборот хавфсизлиги мураккаб ҳодиса сифатида мазкур тушунчани изоҳлаш қийин эканлигини кўрсатувчи бир нечта асосларни келтириб ўтамиз:

1. Ахборот хавфсизлиги – жамият ривожининг объектив шарт-шароитлари билан боғлиқ объектив ҳодиса. Унинг шаклланиши жамиятни ахборотлаштириш жараёни билан боғлиқликда юзага келади.

2. “Ахборот хавфсизлиги” тушунчасини таърифлашдаги мураккабликлар, бизнингча, унинг турли – техник, ҳуқуқий, психологик, педагогик, ижтимоий жиҳатлар билан алоқадорликда тадқиқ этилиши билан боғлиқ. Албатта, олимлар ўзининг илмий фаолият соҳаси билан боғлиқликда мазкур тушунчага турли-туман таъриф беришади. Бу эса, “ахборот хавфсизлиги” атамасига ягона бир таърифни шакллантиришда қатор қийинчиликларни юзага келтиради.

Социологик-психологик адабиётларда “ахборот психологик хавфсизлик” атамасини қўллаш анъанага айланган.

Ахборот-психологик хавфсизлик – давлат, жамият ва шахсга зиён етказиши мумкин бўлган тасодифий ёки қасддан қилинган ахборий таъсирлардан ҳимоялашга қаратилган муҳим саъй-ҳаракатдир. Мутахассислар фикрича, бу қуйидаги мақсадларда амалга оширилади: ахборот соҳасида шахс, жамият ва давлат хавфсизлигига таҳдидларнинг олдини олиш; ахборотнинг конфиденциаллигини сақлаш, унинг ОАВда чиқиб кетиши, ўғирланиши ва йўқолишининг олдини олиш; ахборотни бузиб кўрсатиш ва сохталаштиришнинг олдини олиш[8].

Бундан кўриниб турибдики, бугунги глобаллашган маконда ахборот хавфсизлигини таъминлаш ахборот соҳасига зиён етказилишининг олдини олишга хизмат қилади. Бу жараёнда ёвуз ниятли кишиларнинг кирдикорларига қарши кураш билан бир қаторда турли даражада келтирилиши мумкин бўлган зарарларнинг ҳам олди олиниши, табиий.

Адабиётлар таҳлили асосида ахборот хавфсизлиги – ахборотлашган жамият билан уйғун ривожланишга ёрдам беришга йўналтирилган замонавий социумнинг объектив тараққий этиши билан боғлиқ мураккаб ҳодиса эканлиги ҳақидаги хулосага келинди. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш энг аввало, ахборот технологияларини қўллаш билан боғлиқликда юзага келадиган салбий таъсирларни ўрганиш, талабаларни мазкур салбий таъсирлардан ўз-ўзини ва жамият аъзоларини ҳимоя қилиш, юзага келадиган муаммоларнинг олдини олишга тайёрлашни талаб этади.

Тадқиқот натижалари талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантириш – бўлажак касб эгаси сифатида бевосита инсон руҳиятига таъсир ўтказиш орқали уни ўз ақидалари, маънавий-ахлоқий идеаллари, эътиқодидан айирадиган бузғунчи ғояларга қарши курашиш малакасини таркиб топтириш билан алоқадорлигини кўрсатди.

Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, психологик-педагогик, методик адабиётлар ва ахборот хавфсизлиги соҳасига доир илмий ишларни таҳлил этиш асосида талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлашга доир ахборий-ҳуқуқий, дастурий-техник, меъёрий-методик ва ижтимоий-маданий компетенциялар тизими аниқлаштирилди.

Таҳлил натижалари асосида талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантиришга доир асосий меъёрий ҳужжат Давлат таълим стандарти саналиб, таянч ўқув режасида алоҳида ахборот хавфсизлиги асосларига доир махсус фанни ўқитиш кўзда тутилмаслиги ҳақидаги хулосага келинди. Натижада “Педагогика ва психология” туркумига кирувчи фанларни ижтимоий-гуманитар, математика ва табиий-илмий фанлар, умумқасбий ва ихтисослик фанлари билан алоқадорликда ўқитиш орқали талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини ривожлантиришга эришиш мумкинлигини айтиб ўтиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

2. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. – 56 б.



3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017.– 102б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 92 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил, 21 апрель, 79 (6773)-сон.
7. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни // Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008.
8. Раимов Ш.У. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш – миллий хавфсизлик стратегиясининг энг муҳим йўналиши. / Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси жорий архиви, 2006.
9. <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/12/Full-Paper-COMPATIBILITY-OF-THE-RENEISSION-PEDAGOGY-AND-ABDULLA.pdf>
10. <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/10/Full-Paper-SOME-FEATURES-OF-PROTECTION-OF-STUDENTS-FROM-THE-THREAT-OF-HARMFUL.pdf>
11. <http://journals.e-science.uz/index.php/conferences/article/view/302/242>
12. <http://journals.e-science.uz/index.php/conferences/article/view/71/288>



## ЁРУҒЛИКНИНГ ҚУТБЛАНИШИ МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

**Х.Н.Қодирова**

Ўз Тест ДУК мутахассиси

Андижон Давлат университети

эркин тадқиқотчи

E-mail: hamida1983@yavdex.com,

тел: (97) 967-61-97

**Аннотация:** Мақолада олий таълимда оптика бўлимининг ёруғликни қутбланиши мавзусини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари ҳамда интерфаол методларни танлаб олиш ва улардан самарали фойдаланиш ҳақида фикр юритилган. Маъруза машғулотларини ташкил этишда интерфаол методлардан фойдаланиш талабаларни ўрганилаётган мавзулар бўйича фикр ҳамда муносабатни уйғотиш, ҳаётий зарур кўникма ва малакаларни шакллантириши баён этилган.

**Калит сўзлар:** интерфаол метод, ёруғликнинг қутбланиши, маъруза машғулоти, “Б/Б/Б”, “Тезкор саволлар”, “Ақлий ҳужум”, “Муаммоли саволлар” талаба, кўникма, малака.

Бугунги кунда интерфаол методлар ўз моҳиятига кўра таълим олувчиларда ўқув-билиш фаоллигини ошириш, уларни кичик гуруҳ ва жамоада ишлаш, ўрганилаётган мавзу, муаммолар бўйича шахсий қарашларини дадил, эркин ечимни танлаб олишга рағбатлантириш имкониятига эгаллиги ифодалаш, ўз фикрларини ҳимоя қилиш, далиллар билан асослаш, тенгдошларини тинглай олиш, ғояларини янада бойитиш, билдирилган мавжуд мулоҳазалар орасидан энг мақбул билан алоҳида аҳамият касб этмоқда [1].

Олий таълимда умумий физика курсининг оптика бўлимига доир ҳар бир машғулотни ташкиллаштиришда ахборот технологиялари ва компьютар дастурларини, дидактик материалларини шу билан бирга мавзуларга мос ҳолда замонавий интерфаол методларни қўллаш таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда. Улардан “Силлабус”, “Кейс-стади”, “ФСМУ”, “Ассесмент”, “Инсерт”, “Тушунчалар тахлили”, “Венн диаграммаси”, “Блиц-ўйин”, “Брифинг”, “Портфолио” “Ақлий ҳужум”, Биламан/Билишни ҳохлайман/Билиб олдим (Б/Б/Б) - жадвали, Венн диаграммаси, SWOT, Делфи, Кластер, Зинама-зина ва бошқа кўплаб интерфаол услублари таълимга кенг жорий қилинган.

Бизга маълумки маъруза машғулоти катта аудиторияларда ўтказилади. Маъруза машғулоти давомида кўп ҳолатларда ўқитувчининг диққат маркази янги билим беришга қаратилган бўлади. Бу ҳолат ўқитувчининг фақатгина сўзловчи, талабалар эса тингловчи бўлиб, маъруза дарсларидаги фаолиятлари сусайишига олиб келади [3]. Шунинг учун маъруза машғулотларини ташкиллаштиришда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Маъруза дарсларини ташкиллаштиришда талаба фақатгина тингловчи эмас, балки иштирокчи бўлиши мумкинлигини дарс жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўлланилиши мисолида кўрсатиб ўтмоқчимиз.

Оптика бўлимидаги “Ёруғликнинг қутбланиши. Малюс ва Брюстер қонунлари” маъруза машғулотида, янги дарсни бошлашдан олдин *Биламан/ Билишни ҳохлайман/ Билиб олдим (Б/Б/Б)*- интерфаол методидан фойдаланиш мумкин. Талабаларга жадвал тақдим этилади ва қандай фойдаланиш кераклиги тушунтирилади. Талабалар умум таълим ва ўрта махсус таълим физика дарсларида мавзуга доир ўтилган тушунчаларни ёдга олган ҳолда жадвални тўлдиради (1- расм). Ўқитувчи томонидан мавзу юзасидан янада атрофлича тўлиқ тушунча берилгандан сўнг эса жадвалнинг қолган қисмини тўлдиради.



1- расм.

№	Мавзу саволи	Биламан(+)	Билишни хохлайман(-)	Билиб олдим(+)
1	Табиий ёруғликни биласизми?			
2	Қутбланган ёруғликни биласизми?			
3	Ёруғликнинг қутбланиши деганда нимани тушинасиз?			
4	Қутбланган ёруғликни қўлланилишини биласизми?			

1-расм. “Ёруғликнинг қутбланиши. Малюс ва Брюстер конунлари” мавзусига доир Биламан/ Билишни хохлайман/ Билиб олдим (Б/Б/Б)-жадвали.

Бу методдан дарс жараёнида фойдаланиш орқали талабаларнинг янги мавзуга муносабатини, улар нималарни билишни хошлашини ойдинлаштириб олиш, машғулот ўтказилгандан сўнг эса, талабаларнинг янги мавзуни ўзлаштириш даражаларини аниқлаштириб олиш мумкин бўлади.

Дарс сўнгида ўқитувчи томонидан ўтилган мавзуни мустаҳкамлаш мақсадида мавзуларга мос ҳолда “Тезкор саволлар”, “Ақлий ҳужум”, “Муаммоли саволлар” интерфаол методларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Мавзуга доир саволлар тузиб кичик гуруҳларга тарқатиш билан талабалар олган билимларини мустаҳкамлаш фанга қизиқишини орттиришда яхши самара беради.

Дарс жараёнида машғулот турларига қараб интерфаол методларни танлаб олиш ва улардан самарали фойдаланиш қуйидагиларга олиб келади:

- талабаларда билимларни ўзлаштиришга бўлган қизиқишни уйғотади;
- таълим жараёнининг ҳар бир иштирокчисини рағбатлантиради;
- ҳар бир талабанинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатади;
- ўқув материалининг самарали ўзлаштирилиши учун қулай шароит яратади;
- талабаларга кўп томонлама таъсир кўрсатади;
- талабаларда ўрганилаётган мавзулар бўйича фикр ҳамда муносабатни уйғотади;
- талабаларда ҳаётий зарур кўникма, малака шакллантиради;
- талабаларнинг хулқ-атвори ижобий томонга ўзгартирилишини таъминлайди.

Юқоридаги таълим жараёнида замонавий интерфаол методларни қўлланилиши натижасида талабалар мустақил изланувчан, фикрларини кўркмасдан мазмунли ифодалашни, ўзларига бўлган ишончни ортирибгина қолмасдан балки илмий изланишлар олиб бориш кўникмасига тайёрланади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Педагогик маҳорат: Схема ва расмларда / Методик қўлланма. Н.Эркабоева, М.Усмонбоева, Тошкент – 2013, 65 бет.
2. М.Иргашова, Н.Хўжаназарова. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. - 14-бет.
3. Kokanbayev I.M., Ne'matova Sh. Oliy ta'lim fizika darslarida interfaol metodlarni qo'llashning avfzalligi // “Замонавий микроэлектрониканинг ривожланишида фан, таълим ва инновация интеграцияси” Республика илмий-услугий анжумани материаллари, 22-25 декабрь 2020 йил Андижон, Ўзбекистон, 417-418 бет.



## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИГА ЎРГАТИШ

**Одилова Нилуфар Икромовна**  
Қибрай тумани Умумий ўрта таълим  
мактаби ўқитувчиси  
Telefon :+998 (93) 531 63 19  
nilufarodilova40@gmail.com

Республикамизда бугунги кунга келиб бошланғич синф ўқувчиларида китоб ўқиш маданиятини шакллантиришга жуда катта эътибор қаратилмоқда. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 12 январдаги “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги қарорда “Китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини оширишга доир тарғибот ишларини тизимли ва самарали ташкил этиш” масаласи муҳим вазифалар сифатида қайд этилган. Мазкур вазифа ҳар бир бошланғич синф ўқитувчисига катта маъсулият юклайди. Китоб худди, катталар билан кичикларнинг ўртасида бир воситачи вазифасини ҳам бажаради. Шунинг учун мактаб олдидаги энг катта вазифа китобга қизиқтиришдан иборат. Бошланғич синф ўқувчиларида мутолаа илмини ўргатиш орқали уларнинг дунёқарашини шакллантириш, ўз фикрига эгаллик каби ижобий сифатлар шакллантирилади. Зеро, ўқувчи қанчалик кўп китоб мутолаа қилса шунчалик билимдон бўлади. Мактабда китобга қизиқтиришнинг асосий йўллари ўқиш ва синфдан ташқари ўқиш дарслари ҳисобланади. Мактабда китоб ўқиш, китобга қизиқтиришни масаласи ҳар бир ўқитувчи педагогнинг кундалик фаолияти мазмунига айланиши керак. Шу билан бирга қайд этиш лозимки, фақат мактаб эмас, балки мамлакатдаги барча муҳим таълим муассасалари ҳам бу вазифажиддий эътибор беришлари талаб қилинади. Ўзбекистон Республикаси мактаблари ўз олдида кўпгина мақсадларни кўяди. Жумладан: 1. Ота-она ва фарзанд ўртасидаги китобга бўлган маданиятни ошириш, зиёли ўқувчини тарбиялаш. 2. Уйда оилавий мутолаани кўллаб-қувватлаш. 3. Болани китобни эъзозлашга, уни кадрлашга ўргатиш. 4. Таълим соҳасидаги ўқувчиларни, педагогларни, ота-оналарни китобга бўлган муносабатини ошириш. 5. Мактаб ўқитувчилари ўқувчиларга китоб ўқишнинг фойдаси, унинг китобхон кўнглига, қалбига нуру ҳузур бўлиб кириши, унга қанот бағишлаши, китоб ҳаётида энг яқин дўст бўла олиши ҳақидаги ҳаётий мисоллар асосида тушунтиришлари керак. Умумтаълим мактабларида хат саводга ўргатиш болалар боғчаси ва бошланғич синфлардан бошланар экан, уларда китобхонлик фаолиятини барқарорлаштириш, болалик чоғларидан китоб ўқишга ўргатиш муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун синф раҳбарлари ташаббуслари билан «Синф кутубхонаси» ташкил этилиши мақсадга мувофиқдир. Ўз-ўзини бошқариш тизими бўйича энг зукко, билимли бир ўқувчини «Синф кутубхоначиси» этиб тайинлаш орқали, синфдаги китоблар сони, сақланиш ҳолати қатой назоратга олиб борилади. Синф раҳбари, ўқитувчининг билими, истеододи, маҳорати ўқувчини китобга нисбатан меҳрини ошириб, уни севишга ундаши муҳимдир. Чунки, болалар мўжизаларга ишонадилар, китоб қаҳрамонлари улар ҳақидаги дастлабки таассуротларни буви-бувалардан, отаоналардан, тарбиячи-ўқитувчидан эшитган эртагу-афсоналардан олсалар, кейинчалик ўзлари китобни ўқиш орқали билим доиралари кенгайиб боради. Болаларга қомусий олимларнинг ҳаётий фаолиятига оид маълумотлардан келтириб ўтиш ҳам мақсадга мувофиқдир. “Улуғбек ёшлигидан кўп китобларни мутолаа қиладиган бўлиб, у айниқса, математика, астрономия илмларига қизиқди”. Ота-боболаримиз хонадонларда А.Жомий, А.Навоий, Бедил ва бошқа шоирларимизнинг асарларини мароқ билан ўқишган. Фарзандларимиз китобхонлик давраларида иштирок этишган. Натижада фарзандларида китоб ўқишга ҳавас уйғонган. Ҳозирги кунда оилаларда китобни кўпроқ болаларга ё буваси ё бувиси ўқиб беришади. Оилада болаларга алоҳида хона ажратиш ва албатта кичкина китоб жавонини ташкил этилса фарзандида китобни ўқишга ва севишга янада имкон беради. Шу ўринда ҳурматли ота-оналаримиз болажонларга китоб ниҳоятда муқаддаслиги, у билан эҳтиёт бўлиб муомала қилиш кераклигини уқтиришлари лозим бўлади. Абдурахмон Жомий илмининг аҳамияти борасида тўхталиб ўтар экан, китобнинг мавжуд билимларни эгаллашдаги ўрни ҳамда китобнинг фазилатларини очиб беради. Бунинг учун энг аввало ўқувчида “Китоб ўқиш маданияти”ни шакллантириш лозим. Китоб ўқиш маданиятини шакллантириш тизимли ва изчил ташкил этилиши билан бирга



бир қатор босқичларни ўз ичига олади: 1. Китоб танлаш; 2. Китобни ўқишни билиш; 3. Китоб ўқиганда нималарга эътибор бериш ва нималарни эсда сақлаб қолиш; 4. Керакли маълумотларни қаердан, қандай, қайси воситалардан фойдаланиб топиш; 5. Олинган билимни ёки хабарни қандай етказиб бериш; 6. Қайта ўқиш-китобхонлик кўникмасини шакллантириш; 7. Кутубхона картотекалари билан ишлаш билиш; 8. Китобни тез ва секин ўқишни фарқлай олиш; 9. Китобни ўқиб, унинг фусункор оламига кира билиш; 10. Китобни мустақил ўқий билиш. Китоб ўқишнинг фойдаси мўл, баракаси беҳисоб. Аввало, мутолаа турли-туман маданиятлар ва билимларни ўрганиш учун инсонга асосий кўприк бўлиб хизмат қилади.

Айнан мазкур даврда мактабда синфдан ташқари ўқишни амалга оширишга турли-туман ёндашувлар ва унинг келажаги тўғрисидаги прогнозларнинг турличалигига қарамай, олимлар ва педагоглар синфдан ташқари дарслар уларнинг анъанавий кўринишида кутиладиган натижа бермаслиги ва сезиларли фойда келтирмаслиги тўғрисидаги ягона фикрга келдилар. Ўқувчиларнинг мустақил ўқишларига раҳбарликнинг камчилиги айнан нимадан иборатлиги ва уни қандай бартараф этиш мумкинлиги тўғрисидаги масала методик фан олдида долзарблик касб этди, чунки бошланғич синфларда ўқишга ўргатиш бошланғич таълимни такомиллаштириш ва унинг истиқболлари, жумладан синфдан ташқари ўқиш дарсларининг мазмунини кўриб чиқиш зарур. Бошланғич синфларда ўқитишнинг шахсий тажрибаси, бошланғич таълим факультети талабаларининг педагогик амалиётларига раҳбарлик, мактаб шароитида болаларнинг мустақил ўқишларини ташкил қилиш бўйича илғор ўқитувчилар фаолиятининг таҳлили бизни аввал ҳам бошланғич синф ўқувчиларини ўқишга ўргатишнинг натижалари ва мазкур натижаларни болаларнинг амалий қўллашлари ўртасидаги номувофиқлик ўртасидаги сабабларни ўйлашга ундаган. Бизнинг кузатишларимизга кўра, деярли барча бошланғич синф ўқувчилари саводхонликка эгалар, уларга тақлиф этилган матнни ўқиб чиқиш ва элементар тушуниш қобилиятига эгалар, аммо ушбу болалар бўш вақтларида ташқаридан ундашсиз мавжуд китобларни ўқишга интилишлари мавжуддир. Бошқа ҳолатлар ҳам эътиборни ўзига тортди: бутун “китобхон синф” ўқитувчи алмашиши ёки болалар мактабнинг бошланғич синфидан ўрта поғонага ўтишлари билан ўқимай кўярдилар. Ўз ташаббуси бўйича китоб билан мулоқот – ўқишга умумий қониқарли тайёргарликда улар учун меъёрга айланмаслиги сабабли мактаб ҳақиқатда ҳам ўқувчиларга ниманидир етказа олмаётганлиги тўғрисидаги хулосага келиш мумкин. Шу тариқа, муаммоли вазият – махсус тадқиқотсиз “ўқишни биламан, аммо ўқишни истайман” бошланғич синф ўқувчилар учун одатий бўлган зиддиятни ҳал этишни таъминлаш мумкин эмаслигига боғлиқ равишда бошланғич синф ўқувчиларининг бошланғич китобхонлик тайёргарлиги жараёни тўғрисидаги билимларнинг анланган объектив етарли эмаслиги яққол намоён бўлади. Аммо ўқиш бўйича анъанавий кўникма ва малакаларни эгаллаш билан мустақил китобхонлик фаолиятига табиий жалб этиш учун ўқувчиларга тайёргарликнинг қайси жиҳатларида камчиликлар мавжуд? Бошланғич синфларда болаларнинг мустақил ўқишларининг функционал роли қандай? Умумий бошланғич таълим тизимида истисносиз барча болаларда мустақил ўқишга қизиқишни шакллантириш талаби қанчалик ҳақлидир? 7-10 ёш болаларда “китобга муҳаббат”, “ўқишга муҳаббат”ни тарбиялашда қандай умумий ва махсус қонуниятлар ҳал қилувчи ҳисобланади? Бу қонуниятлар қандай шароитларда намоён бўлади?... Муаммоли таъсирни белгилаган бундай саволларга жавоб тариқасида бизга куйидаги вазифаларни ҳал этиш керак: 1. Ўқувчиларнинг ўқишдаги мустақилликларининг асосий жиҳатларини аниқ ажратиш, аммо қарама-қарши қўйиш учун эмас, балки уларни махсус китобхонлик тайёргарлиги ягона мажмуига мақсадга мувофиқ бирлаштириш учун. 2. Бизнинг фикримизча болаларнинг мустақил ўқишларига педагогик раҳбарлик жараёнида бошланғич синф ўқувчилари учун (7-10 ёш) шахсий мазмунга эга бўлиши мумкин бўлган тахминий илгари сурилган китобларга мурожаатнинг мақсадли ва мотивацион таъсирнинг аҳамиятлилигини тажриба-синовда текшириш. 3. Бошланғич синф ўқувчиларида китобларга шахсий қизиқишни ва уларнинг мустақил китобхонликларини шакллантириш учун шароитларни аниқлаш ва яратиш мақсадида болалар китобхонлигининг таҳлилига ва ўқув жараёнини ташкил этишга эътиборни қаратиш.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, кўп ўқиш тилни тўғирлайди, оғзаки нутқни ривожлантиради, сўз бойлигини орттириш учун асосий манба бўлиб ҳисобланади. Киши қанчалик кўп мутолаа қилса, шунча тили равон ва беҳато сўзлайдиган бўлади, дунёқараши кенгаяди, маданий савияси ўсади. Китоб, газета ва журналларни кўп мутолаа қилишга одатланган кишининг мустақил таълим олиш маҳорати янада ошиб боришига ёрдамлашади.



## THE ROLE GRAMMAR ACTIVITIES IN ENGLISH

**Nasiba Abdullayeva Hamidjanovna**  
**Zulfiya To‘xtanazarova Mashrabboyevna**  
English teachers of Namangan region,  
Chartok district, school №11  
943081771 abdullayevanasiba@gmail.com.

**Annotation:** The article is discussed the use of grammar games in English lessons. Examples of games for use in grammar lessons are also provided. The author’s personal experience is described and conclusions are made about how games influence motivation and improvement of grammatical skills.

**Key words:** activity, grammar, important, skills, interest, method, pupils, main

Grammar is one of the most essential way of learning any young age since, without grammar knowledge, there can be no question of full communication. The vocabulary itself is not a language — it only serves as a building material. The vocabulary becomes an effective tool when it is placed at the disposal of the grammar. This is why it is so important to teach children grammar from the very beginning of language learning. However, working with children, mainly of primary school age, it became obvious to me that it is useless to load students with rules, schemes and a huge number of training exercises. Pupils simply lose interest not only in learning grammar but also in the language as a whole. Therefore, it is important to choose a bright, unusual and exciting method of learning grammar. One of these methods, of course, is grammar games. The main goals of grammar games: to teach children the use of speech patterns containing certain grammatical difficulties; to practically apply knowledge of grammar, to create a natural situation for the use of grammatical structures in natural communication situations. Grammar games-exercises should be considered as a special method of teaching English. The exercises are performed in the form of a game, active competition between children. Students are given a task to show their knowledge, skills and abilities during the exercise. The teacher must tell about the conditions of the game, about the order of its implementation. The task should be explained using an example. The teacher can choose the games that seem more appropriate to the class level. And I have accumulated quite a lot of game tasks, some of which can be practiced in lessons on various software topics. Examples of games:

Activity 1 “Button”. The verb to have is well learned in the game “Button”. All students hold their hands in a boat. The host puts the button in the hands of one of them, and the other host must guess who has it. The second presenter addresses the student: “Button, button! Have you a button? No”, he hears in response and addresses the same question to another student. The game continues until the host guesses who is holding the button; he can only ask three questions. This game prepares students for dialogical speech.

Activity 2” Fast train”. For processing more complex phrases with the verb to have, the game “Fast train” can be used. A moderate rate of pronouncing a phrase is suggested, for example: “I have a book in my hand”. After a while, I warn you that the train is picking up speed and speeding up the pace of pronouncing the phrase. All students rush to say the phrase to “keep up with the train.” Activity 3. “ What is this?” The teacher shows the card to the children and asks “ “ Guess, what is this?” The guys asking the questions:” Is this a girl?” The teacher is responsible:” No it isn’t”or “Yes, it is.”n

Activity 4. “Make up words”. Form words according to the diagrams From live games “for conducting morphemic analysis” between the players, the “roles” of prefixes, roots of suffixes, and words were determined. The host calls a word for parsing, such as distribution. Morphemes or “parts of the word” should fall into place in the word. For verification, they call themselves. The success of the game depends on a good selection of words.

Activity 5. “Game with pictures”. The goal is to learn how to make sentences based on story pictures, and to work out the intonation of sentences. Students are given pictures that depict the actions of people or animals. For example, a girl draws, children play, a cat plays with kittens. Students should make sentences based on the image, and then, changing the purpose of the statement, make



Activity 6. "How many?". - How many students are there in the class? There are... girls, boys, tables, doors, chairs, windows, walls, books, pictures, pens, pencils Thus, the game usually allows even difficult material for students to present in an interesting form for them. Also, grammar games in English lessons create a situation of success for these sentences interrogative. For example, the Mother cat is playing with kittens. ( Is mother cat playing with kittens?). Activity weak students, they allow such students to open up.

**References:**

1. Luu, T.T & Nguyen, T.M.D. (2010). Teaching English grammar through games.
2. Hamzah, M.H.B., & Dourado, J.E. (2010) Using grammar games in teaching grammar
3. Nguyen, L.H. (2005). How to Teach Grammar Communicative



## О‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH TIZIMIDA SINTAKTIK ISHLAR. SO‘Z BIRIKMASI USTIDA ISHLASH

**Abdumutalliyeva Nilufar Anvarjonovna**

Namangan viloyati uychi tumanidagi  
7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun so‘z birikmasi ustida ishlashning ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, nutq, fikr, so‘z birikmasi, gap, bolalar, dars.

Tilda leksik (so‘z), sintaktik (so‘z birikmasi va gap) va bog‘lanishli nutq saviyalari ajratiladi. Shu mazmunda so‘z birikmasiga leksik saviyadan sintaktik saviyaga o‘tish halqasi sifatida qaraladi. So‘z birikmasi leksik-grammatik birlik bo‘lib, tugallangan fikr ifodalamaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. So‘z birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi. Bolalarga so‘z birikmasini o‘rgatish fikrlar ustida ishlash hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda so‘z birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi:

1. Bosh so‘zdan ergash so‘zga so‘roq berish, so‘zlaming o‘zaro bog‘lanishini aniqlash. Masalan, Anvarjon yaxshi o‘qiydi. Kim (o‘qiydi)?— Anvarjon. (Anvarjon) nima qiladi? — o‘qiydi. Qanday (o‘qiydi)? — yaxshi. Yaxshi o‘qiydi — so‘z birikmasi.

2. Gapda so‘zlaming o‘zaro bog‘lanishini chizmada ko‘rsatish. Bu o‘quvchilarni asta-sekin murakkab qurilmalarni tuzishga o‘rgatadi. Masalan: Terimchi- terdi -gullar -ochildi, paxtani - mashinada -har xil - Gulzorda

Terimchi paxtani mashinada terdi. Gulzorda har xil gullar ochildi.3. Matnda uchragan so‘z birikmasining ma’nosini tushuntirish.

4. Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi so‘z bilan so‘z birikmasi tuzish. Mashqning bu turi so‘zning ma’nosini chuqur tushunishga va undan o‘z nutqida foydalanishga yordam beradi.

5. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘z birikmasi tuzdirish. Ot so‘z turkumi o‘tilganda, ot va sifat bilan (jonajon Vatanim), ot va boshqa ot bilan (maktab bog‘i)\ fe’l o‘tilganda, ot va fe’l bilan (kinoga bordi, maktabda bo‘ldi, uydan keldi, kitobni o‘qidi) so‘z birikmalari tuzdiriladi. So‘z birikmasi tuzishda yo‘l qo‘yilgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi, shuning uchun uning oldini olish kerak. Masalan: o‘quvchi nutqida uchraydi: maktabga bo‘ldim . To‘g‘risi: maktabda bo‘ldim. maktabni bog‘i - maktabning bog‘i

Bolalar ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadigan so‘z birikmalarini yig‘ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So‘z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to‘g‘ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so‘z birikmasi ustida o‘rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog‘lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o‘tish lozim. Gap ustida ishlash Gap ustida ishlash o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o‘quvchilarni sintaktik jihatdan to‘g‘ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirish- ga o‘rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lan- gan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo‘lgan) nutq birligi bo‘lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo‘yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap — grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so‘zlam ing bog‘lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap nutq va til birligi bo‘lib, tugallangan mazmunni bildiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. G‘afforova, X. G‘ulomova. G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod o‘rgatish darslari. - T.: „O‘qituvchi“, 1996.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Axmedova Maxfuza Alijonovna**  
Marg'ilon shahar 29-maktab o'qituvchisi  
**Xoshimova Odinoxon Tojialiyevna**  
Marg'ilon shahar 29-maktab o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada darslarda o'yinli texnologiyalardan qanday foydalanish misollar yordamida keltirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda o'yinli texnologiyalarni qo'llash qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, didaktik topshiriq, 33 ta 33 o'yini, o'yinli texnologiyalar, pedagogik mahorat

Darslarning sifatli o'tishi, undagi berilgan mavzular, o'tilgan darsni mustahkamlash o'quvchilarga o'yin orqali yaxshi yetib boradi. O'tilgan darsni mustahkamlashda o'yinning ahamiyati katta, roli beqiyos. o'yin o'quvchilarning ongi va qalbiga singib ketgan faoliyatdir. *O'quvchilarga samarali dars o'tishda, sifat va samaraning oshishida didaktik o'yinlar yordam beradi.* Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar faol bo'lishga chorlanadi.

Didaktik o'yinlar o'tilayotgan fanlarning ijobiy tomonlarini ko'rsatadi. Boshqa fanlarni bir-biriga bog'laydi. Motivatsiyani kuchaytiradi.

Didaktik o'yinlarga bir qanchalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Misol tariqasida "33ta 33" didaktik o'yinida bola ko'paytirish jadvalini yaxshi yodlagan bo'lishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak bo'ladi. O'yin sharti sinf o'quvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga bo'linadigan sonlar aytilmay o'rniga qarsak chalinadi. (1,2, qarsak, 4,5,qarsakvah.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil qilingan darslarda integratsiya ya'ni fanlar aro bog'lanish yaqol ko'zga tashlanadi.

Matematika darsida "Sayohat dars" didaktik o'yinini misol qilib oladigan bo'lsak, matematika darsini bir vaqtning o'zida ona tili va tabiat fanlari bilan bog'lash mumkin. Didaktik topshiriq: berilgan misollarni to'g'ri va aniq yechish xatolar ustida ishlay olish. O'yin topshirig'i: O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. O'yin sharti, magnit doskaga aeroport maketi chizilgan surat osib qo'yilgan. Suratda qadimiy shaharlarimiz nomlari yozib qo'yilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari soniga mos chiptalar tayyorlangan bo'lib chiptalarning orqa tomonida misollar berilgan bo'ladi, old tomonida yo'nalishlar yozilgan bo'ladi. Masalan, Buxoro-Toshkent, Buxoro-Xiva singari. O'quvchilar misollarni to'g'ri yechsa, berilgan yo'nalish bo'yicha sayohatga chiqadi. Ya'ni o'rinidan turib poyezdcha ko'rinishida saflanib sinf bo'ylab yuradi. Videoprojektor ekranida qadimiy shaharlarning video tasviri ko'rsatiladi. Samalyot aeroportga qo'ngach, o'quvchilardan chiptalarga diqqatbilan qarash talab etiladi. O'quvchilar chiptadagi xatolikni topishlari kerak ya'ni bitta chiptada joy nomi kichik harf bilan yozilgan bo'lib ushbu xatoni topgan o'quvchidan atoqli otlar qoidasi so'raladi.

Bolalarni yoshligidanoq o'yin orqali bilimlar ummoniga yetaklash zarur. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatini hisobga olib, ularga o'yin orqali bilim berish tez samarasini ko'rsatadi. ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirishi bilan birga bilimlarini o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. — T.: «Turon-Iqbol», 2006
2. T. G'afforova. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedtexnologiyalar". "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent – 2011
3. X. G'ulomova boshqalar. "O'qish darslari". "Tafakkur" nashriyoti 2011.
4. <https://fayllar.org/boshlangich-sinf-matematika-darslarida-didaktik-oyinlardan-foy.html?page=2>



## EFFECTS OF TEACHING METHODS ON ACHIEVEMENT OF ENGLISH LANGUAGE LEARNERS

**Azamatova Dilfuza Aprakhojayevna**

Teacher of English school 9  
Tashkent city Chirchiq district  
+998917767695 Dilya@bk.ru

**Abstract:** An American school overseas is concerned with offering equal academic opportunities for the non-native English language learners (ELLs) on campus. It has not been determined if the in-class teaching method or the out-of-class teaching method is more effective. The purpose of this study is to determine if there is a difference in end-of-year achievement between these 2 different methods.

**Keywords:** methods , ESL , goal.

The two methods of teaching ESL both have the goal of the student becoming an independent and fluent speaker of the English language. Vygotsky’s and Krashen’s theories support the ELL methods being studied through an interactive, social-academic environment. Both the push-in method, as a student spends all day in a mainstream classroom situation, using Krashen’s acquisition-learning hypothesis, and the pull-out method, when a teacher focuses on individual learning as a conscious process using Vygotsky’s ZPD, are both samples of intentional learning with the teacher focused on keeping the ELL student one step ahead of his or her competency level (Schutz, R., 2014). In his zone of proximal development ( ZPD), Russian psychologist, L. Vygotsky, 8 puts forth the idea that support is essential in order for students/learners to go beyond their current performance level (1978). With guidance, they gradually take on more responsibility for their own learning while participating jointly in learning activities with their more proficient instructors and colleagues. This interaction through activities is considered a key factor for the ELL in understanding the English language as he seeks to grow in independence and knowledge. ELLs are given learning instruction through production tasks. According to John-Steiner, cognitive development from a Vygotskian point of view joins productive activities through social interaction with the learning process. (1996). John-Steiner explains the theory stating that learning is a simultaneously individual and social process. A learner observes through social participation and then internalizes in order to “construct new knowledge” (p. 197). This pattern is true of young children as well as mature thinkers, as internalization is the basis of the lifelong learning process. Vygotsky maintained that theory and practice were complementary to one another and that theory should not be viewed as simply an explanation but a way to understand and implement change (Vygotsky, 1997). Vygotsky’s theory stresses the importance of communication in the development of language, which in turn stimulates the development of thought processes. The importance of the role of the teacher in terms of second language acquisition is reinforced by the need for communication between the teacher and student (Schutz, 2014). Five hypotheses make up Krashen’s theory of second language acquisition: acquisition learning, monitor, input, natural order and affective filter. (Schutz, 2014).

**Summary** The American School of Recife, an American school overseas, has gone from one method of teaching ESL students to another: from pull-out to push-in. Both types of instruction have pros and cons, depending on the teacher qualifications and the individual student profile. This research studied and compared both methods using the causalcomparative research design and compared end-of-year test scores to determine which method was related to greater student academic success. From the research a professional development opportunity was suggested in order to allow teachers and administration to analyze the results and determine if changes could be made to the current teaching method being used. These changes would be implemented with the goal of higher end-of-year language arts test scores for students in Grades 3-5. Review of the Literature To identify prospective, peer-reviewed articles and books, the following databases—ERIC, Sage Publications, Education Source and Google Scholar—were searched for the years 2011-2017 using the following keywords: push-in, pull-out, international schools, overseas schools, ELL teaching methods, ESL teaching methods, bilingualism, ESL pedagogy, second language acquisition, ELL program models, ESL 10 program models, immersion, Vygotsky,



Krashen, language policy, and mainstream. I used the Boolean operators, AND and OR to optimize the results. Abstracts were used to judge an article's relevance to the research question. This review will serve as a background and overview of the concerns of ESL teaching methods for ELLs. Some pertinent research will be provided on the two methods of ESL teaching that are considered in this research: Push-in and Pull-out methods. Learning theories by Vygotsky and Krashen will be discussed as relevant to using the two methods to non-English speaking students. Some states, such as New York, are monitoring the amount of time ELLs spend out of the classroom and have made a determined amount of services that ELLs may receive. The ESL specialist may use an individualized, independent curriculum or she may choose to develop a curriculum closely related to that of the mainstream classroom. The determination of how the instruction will be applied must take into consideration the learning standards expected by national, state and local districts (Honigsfeld, 2009). The U.S. Department of Education does not suggest or demand detailed standards on the evaluation of student proficiency in English other than provide general guidelines as to which students fit into the category of Limited English Proficiency

### References

1. Anyon, Y., Nicotera, N. & Veeh, C. (2016). Contextual influences on the implementation of a schoolwide intervention to promote students' social, emotional and academic learning. *Children & Schools*, 38(2), 81-88. Badji, Y. (2011).
2. Developing an English language learning program. Missouri department of elementary and secondary education, Office of quality schools. Jefferson City, MO: Office of Quality Schools.



## OILADA BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISH

**Barotova Mohichehra**  
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani  
2-umumiy o'rtta talim maktabi  
o'qituvchisi

Ushbu maqolada oilada farzand tarbiysi, Bo'lajak ota-onaning sog'-salomatligi, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy tushunchalari a tegishli bilim sohalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, madaniyat, urf-odatlar, ota-ona, axloq-odob.

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun harakat qilishi, mehnat qilishi, yaxshilik ko'rish uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning inson bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini o'zida mujassam etishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlanadi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori quyiladi va mustahkamlanadi. Yurtboshimiz aytganlaridek, xalqimiz qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarini tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'ri kenglik, mehri daryolik o'ta fidoyilik o'zbeklargagina xos xususiyatdir. SHu boisdan ham, ota-onalarimiz farzandlarning baxti va kelajagi uchun qayg'uradi. Ularning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada to'g'ri tarbiyalash-mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining sharovidir. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ushbu jarayon turmush kuradigan yigit va qizning bir-biriga har tomonlama munosibligidan boshlanadi.

Bo'lajak ota-onaning sog'-salomatligi, nasl-nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq-odobi, moddiy va ma'naviy darajasining mosligi, turmush qurishga ma'naviy va jismoniy tayyorligi farzand ko'rish va uning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Oilada farzand tarbiyasi u paydo bo'lmasdan boshlanmog'i zarur. Ya'ni, homilador ayolning kayfiyati doimo ko'tarinki, asablari sokin, iste'mol qiladigan taomlari bola organizmi uchun foydali bo'lmog'i zarur. O'z vaqtida mehnat qilib, dam olib, sayr qilib, ovqatlanib tug'ilajak bola taqdirini uylash onaning vazifasidir. Er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy muhit, ahillik, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog'lom tug'ilishi garovidir.

Ba'zan oilada uchraydigan er-xotin, qaynona-kelin va boshqalar o'rtasidagi bir-biriga nisbatan hurmatsizlik, o'zaro nizo, urush-janjallar, homilador ayolni avaylab-asrash o'rniga og'ir mehnat qilishga majburlashi, xo'rlashi, xatto unga qo'l ko'tarish bolaning kasalmand, nogiron, jizzaki bo'lib tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ota-onadagi eng yaxshi xususiyatlar ham, yomon xususiyatlar ham irsiy yo'l bilan bolaga o'tishi tabiiydir. Hatto tug'ilmagan bolaga ona qornidayoq ota-onaga nisbatan mehr hissi shakllana boshlaydi. Ba'zan erning bola dunyoga kelmasdan "Agar farzandimiz qiz bo'lsa, to'g'ri otangni uyiga ketasan" yoki "Tug'ruqxonaga yo'qlab borishimni kutmagin" kabi xarxashalar bilan janjal ko'tarishi albatta bo'lajak ona uchun ham bola uchun ham zararli oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Oilada, shu jumladan, o'zbek oilalarida farzandning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar va rasm-rusumlar mavjud bo'lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism quyish kichik va katta chilla saqlash, beshikka belash, soch, tirnoq olish, birinchi qadam, ilk bor gapira boshlash, tish chiqishi, yoshiga to'lishi, o'g'il bolalarni xatna qilish, birinchi muchal, muylavi sabza urishi bilan munosabatlari bilan bog'liq oilaviy tantanalarning o'tkazilishida ramziy ma'no bor. Bunday marosim, rasm-rusumlar bola quvonchiga quvonch



qo'shadi, uni ma'noviy kamolotiga ijobiy ta'sir etadi.

Ota-onaning, avlod-ajdodlarining nojo'ya xatti-harakatlaridan, nopok ishlaridan farzand ham aziyat chekadi, shunday odamlarning farzandi bo'lganidan ruhan afsuslanadi. Ba'zan ota-onalar farzandining kelajagini faqatgina moddiy ta'minlashdan iborat deb biladi. SHuning uchun ham turli yo'llar bilan uzoq avloddan ajdodlariga yetadigan mol-dunyo to'plashga harakat qiladi, ochko'zlik kasaliga muhtalo bo'ladi. Inson jismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni insoniylikdan mahrum etadi, turli jinoyatlarga, noaxloqiy xatti-harakatlar sodir etishga yetaklaydi, el-yurt ichida obro'sizlantiradi. Bunday boyluk farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ota-onaga behisob molu dunyo emas, ilmu ma'rifatga intilish, insof-u diyonatga sadoqat, mehru shafqat, hayotga muhabbat, xalq, millat, Vatan uchun jon fidolik sifatleri meros bo'lib qolmog'i zarur.

Bola uchun millati, madaniyati, san'ati, dini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari, oila an'analari, urf-odatlarini chuqur bilish va ulardan ma'naviy oзуqа olish, g'ururlanish tarbiyaviy xarakter kasb etadi.

O'tmish allomalar, avlod-ajdodlardan faxrlanish, ular merosini mukammal o'rganish, olg'a surilgan hayotiy g'oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo'lida foydalanish, davlat ramzlari (Konstitutsiya, madhiya, gerb, bayroq, milliy valyuta)ning mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlanadi. Bu o'rinda ota-onaning bilim saviyasi, mafkuraviy yetuklik darajasi, dunyoqarashi, jamiyatda tutgan o'rni muhim ro'l o'ynaydi. Oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka o'rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berish, ularning hayot so'qmoqlarida adashib qolmasligi va ravon yo'ldan borishida yordam beradi.

Shunday qilib, oila tarbiya maskani bulib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning kandy amalga oshirilishiga, tarbiyachi xisoblanmish ota-onaning o'z burch va vazifalariga qandy munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Oiladagi har bir kishining o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir. Xullas, barkamol insonni, ya'ni avvalo oila uchun, qolaversa o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi, shaxsni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Shuning uchun maktab o'qituvchi-tarbiyachilari, mahalla, jamoa, davlat xo'jaligi hamda tuman rahbarlari oila ravnaqiga va ayni choqda oila tarbyaisiga diqqat-e'tiborni qaratishlari zarur.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Ergasheva DilafruzBobomurodovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar  
12-IDUM boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi  
Telefon : +998(97)3238828

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinflarda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish .

**Kalit so‘zlar.** Axborot, kommunikatsiya, innovatsion texnologiya

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va Birinchi Prezidentimizning: **«Har qarichi muqaddas bo‘lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g‘urur va iftixor, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko‘raylik»**, - degan fikrlariga javoban ta’lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishishga o‘z hissangizni qo‘shasiz degan umiddamiz.

**«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi**

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi.

**Uy hayvonlari:** sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it.

So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy



tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

#### «Videotopishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.

#### Navro'z udumlari (foydalanish uchun matnlar)


Navro'z kuni odam ota-onasi, yaqin kishilari bilan diydorlashadi. Ginali odamlar Navro'z kuni yarashadi.

Ba'zi joylarda esa Navro'z kunlarida paydo bo'lgan kamalakka qarab yerga suv sepiladi. Shunday qilinsa, go'yo yil seryog'in va barakali bo'lar ekan.

Navro'z kunlari bog'dagi o'rik daraxtlariga arqon solib arg'imchoq yasaladi. Qiz-juvonlar yig'ilishib, navbatma-navbat arg'imchoq uchadilar. Navro'zda arg'imchoq uchsa bir yillik gunohi to'kiladi deyilgan.

Bu metodni 2-sinfda o'quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo'llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko'rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarni ifodalaydigan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda o'quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so'z boyligi oshadi. Namuna:

#### Unlilar



#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Odobnoma kitobi (4-sinf)
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2019-yil
3. O'qish kitobi (4-sinf)



## HARBIY JAMO'A PSIXOLOGIYASI VA SHAXSIY TARKIBNI JIPSLASHTIRISHDA OFITSERLAR FAOLIYATINI HISOBGA OLISH.

**G'aybullayev G'olib G'ayrat o'g'li**  
Bux DU Harbiy ta'lim fakulteti  
2-bosqich talabasi. Tel. (93) 081-75-53.  
**Ziyodulloyev Javoxir Sayfullayevich**  
Bux DU Harbiy ta'lim fakulteti  
2-bosqich talabasi . Tel. (90)513-01-25.

Ushbu maqolada Harbiy jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'zini tutishning o'ziga xos qoidalari va me'yorlari asosida tashkil topishi, rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamoa, guruh, shaxs, muhit, individual, jamiyat, xulq, axloq, o'zaro munosabat, Umumharbiy Nizom, jamoatchilik fikri, kayfiyat.

Shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyat jamoada ko'proq bo'ladi. Faqat jamoadagina shaxsning har tomonlama rivojlanishi, o'z iste'dodini ko'rsata olishi uchun sharoit mavjud. Jamoa har bir kishining kuchini oshiradi va mehnat jarayonida har bir shaxsning individual ishchanligini oshiruvchi hayotiy kuch-g'ayrat paydo bo'ladi.

Jamoa o'zaro ishonch, g'oyaviy birdamlik va jamoatchilik muhitida insonlarning o'zaro yaqinlashuvi sharoitida vujudga keladi. Jamoa axloqi egoizm, xudbinlik bilan mos kelmaydi, faqat o'z manfaatlarini o'ylash jamoaga muvofiq emas, jamoa umumxalq va shaxsiy manfaatlar, mehnat kishisining insonparvarligi va chin ma'nodagi insonlar orasidagi o'zaro munosabatlari, mehribonlik, to'g'rilik, oddiylik va kamtarlik, shaxsiy va jamiyat hayotida faol axloqiy faoliyat, insonni yangi mehnat va ijodiy yaratuvchanlikka undovchi, barcha yomon illatlarga, yot xususiyatlarga teskari turuvchi insonlar guruhidir.

Har bir inson qandaydir bir jamoa a'zosi. Jamoa uning tarkibiga kiruvchi har bir insonga doimiy ravishda ta'sir qiladi. O'z navbatida har bir jamoa a'zosi ham jamoadoshlariga va umuman jamoaga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir jamoa psixologiyasida namoyon bo'ladi. Harbiy jamoa - bu jamoa ko'rinishlaridan biridir. U jamoada yashovchi shaxsiy tarkibning ijtimoiy-g'oyaviy, psixologik muhitini namoyon qiladi, jangchilarning ma'naviyati va jangovar mahoratini shakllantiradi. Harbiy jamoa tarkibi doimiy ravishda o'zgarib turadi. U o'z xususiyatlarini saqlab qolishi uchun unga yangidan qo'shilayotgan kishilar jamoatchilik, g'oyaviylik va axloqiylik tuyg'ularini egallagan bo'lishi zarur. Shundagina harbiy jamoaga bu insonlarning qo'shilishi jamoa jipsligini susaytirmaydi.

Harbiy jamoaga kirish uchun zaruriy tayyorgarlikni har bir inson avvalo maktabdan oladi. Shuning uchun ham harbiy rahbar o'quvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashda harbiy jamoaning barcha xususiyatlarini inobatga olishi shart.

Harbiy jamoa boshqa jamoalardan o'z oldiga qo'ygan vazifasi, ona Vatanni qurolli himoya qilishi bilan farq qiladi. Bo'linma jamoasi uning a'zolari o'zlari oldiga qo'yilgan vazifalarni chuqur anglasalargina, haqiqiy harbiy jamoa hisoblanadi. Harbiy jamoaning o'ziga xos xususiyatlari shu bilan bog'liqki, u o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni dushmanga nisbatan kuch ishlatish, qurol-yarog'lar va harbiy texnikalardan foydalangan holda amalga oshiradi. Shunga muvofiq, harbiy jamoada jamoaning har bir a'zosi o'zida faqatgina mardlik, qat'iylik, bardoshlilik, matonatliliknigina emas, balki harbiy texnika va qurol-yarog'lardan foydalanishning uquv va malakalarini ham puxta egallagan bo'lishlari shart.

Harbiy jamoa uning a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va o'zini tutishning o'ziga xos qoidalari va me'yorlari asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu qoida va me'yorlar faqatgina kundalik xizmat talablaridan emas, balki jangovar faoliyat ehtiyojlaridan ham kelib chiqadi. Ular umumharbiy Nizomlarda ifodalangan.

Harbiy jamoaning barcha a'zolarida qismga, uning bayrog'iga, quroldosh do'stlariga, boshqa bo'linmalar, qismlar, qo'shin turlari va hamdo'stlik armiyalari jangchilariga, dushmanga nisbatan ma'lum bir munosabatlar paydo bo'ladi. Bu munosabatlar harbiy etika me'yorlarini tashkil etadi, ularsiz barcha jangchilar, jamoa harbiy muhitga ega bo'la olmaydi. Agar bo'linma jangchilarida harbiy qasamyodga va o'z burchiga sodiqlik, an'analarga hurmat, dushmanga nisbatan nafrat tuyg'ulari bo'lmasa, bunday jamoa o'z oldiga qo'yilgan jangovar vazifalarni bajarishga tayyor



bo'lmaydi.

Harbiy jamoa quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- g'oyaviy intilishning, ishonch va e'tiqodning umumiyligi. Jangchilarning ilmiy dunyoqarashi qanchalik kuchli va chuqur bo'lsa, ular shunchalik ko'prok jamoada rivojlanadi;
  - jangchilarning xulq-atvorini boshqaruvchi axloqiy me'yorlarning umumiyligi. Jangchilar uchun bu me'yorlar umumharbiy Nizomlarda mustahkamlanadi;
  - ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hamkorlikdagi faoliyat;
- jamoaning har bir a'zosida harbiy mahoratning yoki uni egallashga intilishning mavjudligi.

Jamoaning g'oyaviy ishlari undagi jamoatchilik fikri, kayfiyati va o'zaro munosabatlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Bu esa ijtimoiy psixologik muhitning yig'indisini tashkil qiladi. Ulardan jamoaning salohiyatligi kelib chiqadi. Harbiy jamoalardagi sog'lom fikrlar, kayfiyat, o'zaro munosabatlar manbalarini maktablarda o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar darajasidan izlash lozim. Jamoaning psixologik tuzilmasi, tabiati haqidagi ma'lum axborotlarni harbiy rahbar jamoadan oladi. Jamoatchilik fikri - jamoa a'zolarining ratsional baholash tizimi bo'lib, me'yoriy ta'sirga egalik va sezilarli qo'zg'atuvchi kuchga ega bo'ladi. Aniqlik, oshkoralik, emotsionallik, uzluksizlik, jamoatchilik fikrining talabchanligi har bir inson tuyg'ulari va irodasiga ta'sir qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .**

1. Satibaldiyev A., Karimjonov A. «Harbiy pedagogika» nashriyoti, TDPU Toshkent 2005 y.
2. Abduqodirov A.S., Ahmedov G'. Harbiy xizmat axloqi. O'quv qo'llanma Sharq nashriyoti Toshkent 2007 y.
3. Nasriddinov Ch.R. «Harbiy psixologiya va pedagogika» nashriyoti, TDPU Toshkent 2008 y.



## О‘QUVCHILARNING KASB-HUNAR TANLASHDAGI XATTOLIKLAR VA UNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI

**Ibodullayeva Zubayda Otaboyevna**

Xorazm viloyati Qo‘shko‘prik tumani

24-umumiy o‘rta talim maktab Amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarini kasb-hunarni tanlashdagi qo‘yiladigan xattolar hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarning kasb tanlashdagi xattolari ularning yechimlari yuzasidan gap ketadi.

**Kalit so‘zlar:** Kasb, shijoatkorlik, texnik, eruditsiya, ehtiyojlar.

Kasb tanlashda yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolarni bilish sizni ortiqcha yoki noto‘g‘ri qadam qo‘yishingizdan himoya qilib, vaqtingizni tejab, o‘zingizning imkoniyatlaringiz, qiziqishlaringizga mos kasbni tanlashingizga yordam beradi.

**1. Do‘stlariga ergashib.** Ko‘p hollarda yigit va qizlarimiz o‘zlarining qobiliyatlarini bilmagan holda do‘stlariga ergashib keyingi ta‘lim turlarini tanlaydilar. Bunday tanlov juda kam hollarda samarali bo‘ladi, aniqrog‘i tasodif tufayli muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Chunki kasbni o‘z imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda tanlash o‘zini to‘liq namoyon qilish va tanlov imkoniyatini beradi.

**2. Nufuzli kasb tanlash.** Hozirda iqtisodchi, huquqshunos, menedjer, broker, diler kabi kasblar nufuzli hisoblanadi. Juda ko‘p o‘quvchilar bu kasblarga qiziqadilar, lekin ularning hammasida ham bu kasb uchun zarur bo‘lgan sifatlar (yuqori eruditsiya, shijoatkorlik, g‘ayrat, muloqotchanlik, ishchanlik) bo‘lmasligi mumkin.

**3. Biror bir fanni yaxshi o‘zlashtirishni kasb bilan bog‘lash.** Masalan, o‘quvchi adabiyot darsini yaxshi o‘zlashtiradi, she‘r va hikoyalar yozadi va jurnalist kasbini tanlaydi. Lekin jurnalist kasbi egalaridan turli vaziyatlarda safarga chiqish, turli faoliyat turlarini bilish va muloqotchanlik qobiliyati talab etiladi.

**4. Aka-opalarining kasbini tanlash.** Oila a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan mehri ham kasb tanlashga turtki bo‘ladi. Masalan, uka uchuvchi bo‘lgan akasiga havas qiladi. Akasiga bo‘lgan mehr uni ham uchuvchi bo‘lish qaroriga undaydi. Lekin biror insonni yoqtirish boshqa insonning shu kasbga moyilligi borligini bildirmaydi.

**5. Tanlangan kasb va mehnat sharoitining salomatlikka mos kelmasligi.** Har bir kasb turli darajada inson organizmi va u yoki bu a‘zolarini zo‘riqtiradi. Shuning uchun har bir kasb uchun mavjud bo‘lgan turli tibbiy cheklovlar haqida bilish zarur. Shu bilan birga kasb tanlash bo‘yicha qaror qabul qilinganda, o‘zingizni sog‘lom deb hisoblasangiz ham shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

**6. Ota-onalarning bosimi ostida kasb tanlash.** Ota-onalar farzandlarining ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari haqida unutmastliklari, ularni majburlamasliklari, aksincha yordam berishlari va ularni qo‘llab-quvvatlashlari kerak.

**7. Kasbning imkoniyatlari va mehnat xarakteri haqida tasavvurlarning yetarli emasligi.** Jamiyat va texnik rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan kasbning rivojlanish dinamikasini bilmaslik xatolikka yo‘l qo‘yishga olib keladi. Kasbning zamirida mehnatning umuman o‘zgacha bo‘lgan yangi ko‘rinishi yashiringan bo‘lishi mumkin. Doimo kasbning zamonaviy ko‘rinishi haqidagi bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

**8. O‘zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, moyilliklari va kasb tanlash motivlari haqida bilmaslik.** Bu bir ko‘rinishda oson narsa emas. Bundan tashqari ko‘pgina o‘quvchilar o‘zlarining kamchiliklari va zaif tomonlari haqida bilishdan cho‘chidilar. Buning uchun ular haqiqatni bilish uchun o‘zlarida jasorat topa olishlari, aql-zakovatni ishga solib xatolarni tuzatishga intilishlari lozim. Bitiruvchining o‘zini anglashida tengdoshlari, yaqin insonlari va albatta kasbga yo‘naltiruvchi mutaxassislar yordam beradilar.



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki yoshlarimizni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish, bu eng muhim vazufalardan biri ekanligini yana bir bor ta’kidlab o‘tmoqchiman . Inson to‘g‘ri kasb tanlash orqali o‘z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo‘jayeva N.N “Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2003 y.
2. Torskiy V.Ya va boshqalar. “Texnik ijodkorlik va qishloq xo‘jalik tajribaligi bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar”-T.: “O‘qtuvchi”, 1991-179-bet.
3. Molodobrava O.S. Izgotovlenie igrushek suvenuv-M.: “Proevisheniye”-1990-167
4. Stolyarov Yu.S. idr. Texnicheskoe tvorchetvo ugashixsya.-M.: “Proveshenie”,-1989-223 str.



## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI HARBIY XIZMATCHILARINING TARBIIYA TIZIMI.

**Ibroymov Shaxboz Samandar o‘g‘li**

BuxDU Harbiy ta’lim fakulteti  
2-bosqich talabasi. Tel. (97) 860-28-18.

**Musayev Ramazon Karim o‘g‘li**

BuxDU Harbiy ta’lim fakulteti  
2-bosqich talabasi . Tel. (88)847-67-66.

Ushbu maqolada Harbiy xizmatchilar bilan ma’naviy – axloqiy, ma’rifiy tarbiya ishlarning samaradorligini oshirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axloqiy sifat, ma’rifat, ma’naviyat, bilim, qobiliyat, tarbiya, birdamlik, birodarlik, jipslilik.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari respublika mudofaasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu yakkaboshchilik, qat’iy markazlashuvi asosida insonlarning birlashuvini o‘zida namoyon etuvchi va markazga birlashtiruvchi maxsus ijtimoiy organizmdir.

Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Qurolli Kuchlar mamlakat hududiga bosqinchilik qilingan taqdirda jangovor texnikalar va qurol - yaroqlarning har xil turlaridan foydalangan holda bosqinchini tor – mor qilishdan iboratdir.

Respublika Qurolli Kuchlarida harbiy tarbiyaning mohiyati shundan iboratki, u o‘zida umumiy ma’naviy - axloqiy sifatlarni shakllantirgan Vatan himoyachilariga, armiyaning o‘ziga xos xarakterlarini hisobga olishni, qurolli kuchlarining nimaga uchun tuzilganligini, urush va tinchlik davrida harakatlanish vazifalarini o‘rgatishdir. Chunki, ma’naviy – axloqiy tarbiyasi mukammal askar hayotini xatarga qo‘yib bo‘lsa-da, safdoshidan yordamini ayamay, uning uchun xuddi o‘z tug‘ishgan aka-ukasidek qayg‘urishi zarur. Milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning jangovar an‘analariga sodiq bo‘lish, shu bilan birga, eng zamonaviy talablar va andozalarga mos keladigan armiyamiz jangovar shayligini oshirishga, ya’ni Ona yurtini qo‘riqlash – muqaddas va sharaflil majburiyatini bajarishi lozim.

Har bir harbiy xizmatchining ruhiy xususiyatlari – bu uning axloqiy - siyosiy, jangovar va psixologik sifatlarini chuqur tushungan va uning boshqa ideologik ishlar yo‘nalishlari bilan bog‘liqligidadir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosi uning ichki tuzilishida o‘z ifodasini topgan. Avvalom bor kadrlarni malakali tayyorlashni markazlashtirish, yakkaboshchilik va boshqalar. Bu tamoyillar harbiy tarbiyaning mohiyatiga va mazmuniga ta’sir etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy tarbiya tizimlilikini talab qiladi. Shu o‘rinda harbiy tarbiyada o‘zaro birdamlik katta o‘rin egallaydi.

Tarbiya ishini harakatlantiruvchi kuch - bu turli unvondagi harbiylardir. Ofitserlar faqatgina yuqori darajadagi professional harbiy xizmatchi bo‘libgina qolmay, balki tarbiyachi bo‘lishi ham kerak. Bu ishlar bilan butun ofitserlar tarkibi shug‘ullanishlari lozim. Buning uchun yaxshi material, texnik baza, ommaviy axborot vositalari bo‘lishi kerak. Turli yerlarda, urushlar bo‘layotgan bir davrda kishilar ongiga, yetkazuvchi ommaviy axborotning roli kattadir. Ushbu axborotlarni televizor, radiouzel, kinoapparat, magnitofonlar, videoproektorlar orqali yetkazish mumkin.

Qurolli Kuchlarda tarbiyaviy ishlarni mustahkamlashda brigada va garnizon kutubxonalari, oynoma, ro‘znoma, devoriy gazeta va shunga o‘xshash boshqa ommaviy axborot vositalarining roli katta. Bularni hammasini harakatga keltirishda va to‘g‘ri tashkil qilishda komandir hamda uning shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari katta rol o‘ynaydi.

Harbiy xizmatchilar bilan ma’naviy – axloqiy, ma’rifiy tarbiya ishlarning samaradorligini oshirish – qo‘shinlarning yuksak jangovar shayligi va qobiliyatini saqlash, o‘quv – jangovar vazifalarni bajarish, tezkor hamda jangovar tayyorgarlikni sifat jihatdan yaxshilash, harbiy va mehnat intizomini, huquq – tartibotni mustahkamlashda asosiy rol harbiy qism faollariga qarashli bo‘ladi. Ular shaxsiy tarkibni o‘z namunalari bilan qiziqtirishi kerak.

Ofitserlar doim guruh faollari ishi xaqida ma’lumot olib, xulosa chiqarib turishlari lozim. Guruh faol(aktiv)lari ofitserlarni suyanchi bo‘lgan holda tarbiya ishi xaqida ma’lumot berib borishlari lozim. Aktiv ofitserlarga noto‘g‘ri ma’lumot bersa, u holda tarbiya ishlari o‘z - o‘zidan oqsaydi.



Tarbiyaviy ishlarning asosi bo'lgan, ijtimoiy - siyosiy tarbiya, ya'ni huquqiy bilimlar yagona kuni, milliy istiqloq g'oyasi, ma'naviy – axloqiy tarbiya, etika va estetika masalalariga bag'ishlangan dars - mashg'ulotlari olib boriladi.

Tarbiya ishini harbiy hayotga tadbiiq etishda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud.

Birinchiidan, tarbiyaviy ish jarayoni og'ir - o'ta ma'suliyatli va uzoq davom etadigan ishdur.

Ikkinchiidan, bu uzoq vaqt mobaynida olib borilgan ishlar samarasini ko'rish va aniq baholash-dagina o'z natijasini berishi mumkin.

Uchinchiidan, harbiy tarbiyachidan katta pedagogik mahoratni talab etadi. Bu vazifani har tomonlama rivojlangan, zehni o'tkir, so'zga usta, yuqori malakali ofitserlargina bajara olishadi.

O'zbekiston jangchisining tarbiyasida uning burchini, ya'ni ajdodlar an'anlarini muqaddas bilish, mustaqil Vatanning munosib vatanparvari bo'lish avvalo, mustaqil Vatanimiz xafsizligi uchun shaxsan javobgarlik hissini sezish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchisi degan nomni munosib ravishda va iftixor bilan oqlash har qanday sharoitda o'z harbiy burchini bajarishga shay turishdek hissiyotlar bo'lmog'i lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari. Toshkent. O'zbekiston 1996.
2. Sa'dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O'zbekistonda ma'naviy – ruhiy tiklanish. Toshkent. «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2003.
3. Harbiy - Vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. «Ma'rifat» nashriyoti 1988.
4. Harbiy vatanparvarlik tarbiyaning o'zagi. Pedagogik oliygohlar uchun o'quv darsligi 1998 yil.



## JAMIYATDA FUQAROLARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSIY MEZONIDIR.

**Jo'rayeva Oysha**

Buxoro viloyati Vobkent tuman  
11-maktab huquq fani o'qituvchisi.

**Annotasiya:** Ushbu maqolada demokratik prinsiplarga asoslangan fuqarolik jamiyatining asosi fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatining huquqiy asoslari ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, Davlat, fuqaro, ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati.

Fuqarolik jamiyati – huquqiy demokratik davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu yerda insonvar fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish bog'lovchi omil sifatida amal qiladi. Fuqarolik jamiya-ting asosiy unsuri ayrim shaxs bo'lsa, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, guruhlar va hokazolar uni shakllantiruvchi omillardir. Ular shaxs, uning manfaatlari, maqsadlari niyatlari va hokazolarni ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. SHu sababli iqtisodiy va siyosiy hokimiyatni ajratish, haqiqiy fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi va qaror topishining bosh omili hisoblanadi. Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. SHunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratishdan iborat.

Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlari rivojida, huquqiy munosabatlarning tartibga solish kuchi katta ahamiyat kasb etadi. Huquqning tartibga solish kuchi bir tomondan, mavjud ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlasa, ikkinchi tomondan rivojlanib kelayotgan ishtimoiy munosabatlarni yuksak darajada ko'taradi. Ijtimoiy hayot rivojiga ayniqsa insonlarning huquq va majburiyatlarning shakllanishida, barcha erkinliklarning ta'minlanishida, demokratik prinsiplarga asoslangan jamiyatning faol fuqarosi bo'lish omillarining shakllanishida huquqiy munosabatlarning o'rni beqiyosdir.

Huquq insoning ong doirasida yuzaga kelib, uning ayrim munosabatlarning cheklab, majburiyat yuklab, ularning fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy munosabatlarning tarkibiy elementlari inson tafakkurida aks etib, shaxs ongida huquqiy ong va huquqiy madaniyatga munosabat yuzaga keladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat inson ongining bir debochasi. Demak hayotning qirralari xilma-xil, ular diniy, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy ko'rinishlarida nomoyon bo'ladi.

Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan komil inson o'z hayot tarzi davomida huquqiy ong va huquqiy madaniyati odatda oddiy o'z-o'zidan vujudaga kelgan va odamning o'z shaxsiy tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy fazilatlar, vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Yuzaga keladigan bunday munosabatlarga insoning nikoh tuzish tartibidagi yoki fuqarolarga tegishli bo'lgan shaxsiy daxlsizlik huquqlarni buzganlik uchun javobgarligi haqidagi bilimlari misol bo'la oladi.

Demokratik prinsiplarga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda huquqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiya jarayonlarning tizimlarini farqlashda qo'llaniladigan muhim omillardan biri – ong shakllarning turlicha ekanligidir. Chunki alohida olingan tarbiya, inson ongining barcha tomonlarini emas, faqat uning ayrim ko'rinishlarini qamrab oladi. Masalan, ma'naviy tarbiya – ma'naviy ongni, huquqiy tarbiya-huquqiy ongni, axloqiy tarbiya-axloqiy ongni qamrab oladi.

Yangitdan yangilayotgan jamiyatimizning asosiy mezonlari huquqiy tarbiyani yaxshilash, huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, fuqarolarimizni faol jamiyat a'zosi qilib shakllantirish borasida 2020 yil 30-oktabrda Vazirlar Mahkamasining 678 –sonli qarori “2020-2021 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” qabul qilindi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki har qanday davlatni boshqaruv tizimida huquq yetakchi



o'rinda o'z vazifasini amalga oshirsa, jamiyatning barcha sohalari barqarorligi ta'minlangan holatda, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining eng yuksak darajasi fuqarolik jamiyatining asosi bo'la oladi.

**Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Davlat va huquq nazariyasi "Davr nashriyoti" Toshkent 2012 yil. X.T.Odilqoyiyevning umumiy tahriri ostida.

2. google.com

3. www.ziyonet.uz



## JISMONIY TARBIYA VA SOG‘LOMLASHTIRISH

**Jumaniyozov Ruslon Ibrohimovich**

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi

13-son maktab Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Telefon: +998977928883

**Anotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida yozilgan bo‘lib, quyosh radiatsiyasi, toza havo va suv muhitlarining xususiyatlari va sog‘lomlashtiruvchi yurish, sog‘lomlashtiruvchi yugurishning ijobiy ta’siri bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tarbiya, quyosh radiatsiyasi, suv, havo, fiziologik.

Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari - bu sog‘lomlashtirish mashqlari va tabiiy omillardir. Jismoniy mashg‘ulotlar organizmning tashqi muhitidagi salbiy omillar ta’siriga chidamliligini oshiradi, moddalar almashinuvi qon aylanishini yaxshilaydi, qayta tiklash jarayonlarini faollashtiradi va asab tizimini mustahkamlaydi.

Jismoniy sog‘lomlashtirish mashqlari ta’siri samaradorligini oshirish maqsadida turli kasalliklarning oldini oluvchi noan’anaviy vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Quyosh radiatsiyasi, toza havo va suv vositalari. Quyosh radiatsiyasi, toza havo va suv muhitlarining xususiyatlari o‘quvchining salomatligini mustahkamlash, chiniqish va ish qobiliyatini oshirish vositalari sifatida xizmat qiladi.

Chiniqishni amaliy mashg‘ulotning so‘nggi qismida 10-15 daqiqa davomida amalga oshirish tavsiya etiladi. Havo, quyosh vannalari vositasida chiniqish faol harakatda ham amalga oshirilishi mumkin.

Sog‘lomlashtiruvchi yurish. Sog‘lomlashtiruvchi yurish sport yurishining nomusobaqaviy ko‘rinishidir. Sport yurishining bosh o‘ziga xos xususiyati - oddiy yurishga o‘xshamagan, o‘ziga xos yurish uslubidir. Sport yurishi sonlarning kuchli harakatiga asoslangan. Sport yurishi sog‘lomlashtiruvchi yurishning turlaridan biri. Farqi shundaki, sog‘lomlashtiruvchi yurish bilan shug‘ullanayotgan inson sport yurishida mavjud qoidalarga amal qilmaydi. Sog‘lomlashtiruvchi yurishda har kuni 10 ming qadam va u sog‘liq uchun foydalidir. Inson yurganda yurak daqiqasiga 120 marta urishi maqsadga muvofiqdir, ammo bunday yurishni tashkil etmasa, bunday yurish vaqtni bekorga sarflash demakdir. Yurish harakat tezligi soatiga 5-6 km ni tashkil etsagina foydali bo‘ladi. Bunda inson albatta terlashi va charchoqni his etishi kerak.

Sog‘lomlashtiruvchi yugurish. Sog‘lomlashtiruvchi yugurish - elementlarning butun bir majmuidir. Yugurish va chiniqish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Istalgan ob-havoda yugurish kerak, qo‘shimcha chiniqtiruvchi element - yugurishdan so‘ng dush qabul qilish. U teri va teri osti tomirlarining o‘ziga xos gimnastikasidir.

Sog‘lomlashtiruvchi yugurish bilan shug‘ullanuvchilar kapillarlarining zich tarmog‘i yoziladi, yurak-qon tomir tizimining elastikligi oshadi, mustahkamlanadi va yosharadi. Sog‘lomlashtiruvchi yugurish havaskorlari chuqur va tez-tez nafas oladilar, yurak urishi daqiqasiga 50-60, ayrim hollarda 40-50 martani tashkil etadi, o‘pkalari sig‘imi yugurmaydiganlar o‘pkalari sig‘imiga nisbatan 20-30% ga kattaroq bo‘ladi.

Yengil yugurish mashqlariga mutaxassislar aqliy charchashdan xalos etuvchi, ayni paytda tetiklik va shodlik ulashuvchi vosita sifatida qarashadi. Shuning uchun amaliy mashg‘ulotlarda 20daqiqa 45daqiqagacha 6-8 km soat tezlikda sog‘lomlashtiruvchi yugurish bilan shug‘ullanish tavsiya etiladi.

Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarning tanasidagi har bir ichki va tashqi a’zolarining o‘z faoliyati mavjud. Bu faoliyatni bosh miya orqali yurak, qon tomirlari, asab tolalari, nafas olish va chiqarish yo‘llari va boshqa a’zolar ishida ko‘rish mumkin. Bu jarayonlar o‘qituvchilarga anatomiya, fiziologiya, biologiya, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardan ma’lum. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan aytish mumkinki, inson tanasidagi barcha funksiyalar, hatto uxlash, uyg‘onish, harakat-mehnat qilish ovqatlanish, hayotdan huzurlanishda biologik va fiziologik jarayonlar tabiiy ravishda amalga oshadi. Ularni bosh miyadagi markazlar boshqaradi, xotira, tafakkur va ongning ustuvorligi tufayli barcha faoliyatlar yuzaga chiqadi. Inson nimalar bilan oziqlanmasin yoki suyuqliklarni iste’mol qilmasin, uning qonida rang o‘zgarmaydi, ya’ni qizillik yo‘qolmaydi.



Buning asosiy siri qondagi oq va qizil tanachalar o'rtasidagi kurashlar davoimiyligini ta'minlaydi. Tananing asosiy tirikligi va issiqlik quvvatini ta'minlovchi birdan-bir omil qon hisoblanadi. Qonda salbiy o'zgarishlar yuz bersa, tananing harorati odatdagidan baland ko'tarilishi turli kasalliklarning alomati bo'lib, qon bosimi pasayishi yoki ko'tarilishi mumkin. Bunda ko'proq kimyoviy jarayonlar yuzaga kelishi mumkin. Ularning oldini olish, kasalliklarga yo'l qo'ymaslik uchun qon bosimini vaqti-vaqti bilan tekshirib borish, doimiy kuzatish zarur. Bu yo'lda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy mehnat, faol harakatlarning fiziologik ta'sirlari, ya'ni yurish, yugurish, sakrash, yuk ko'tarish, suvda suzish va umuman, barcha sport turlari bilan shug'ullanish yuqori darajada faol harakat qilishga olib keladi. Bu esa, mushaklar, bo'g'inlar, umurtqa pog'onalari harakatini tezlashtiradi. Shu asosda nafas olish va chiqarish tezlashib, chuqurlashib boradi. Bu jarayonlar yurak urishi va tomirlarda qon aylanishini tezlashtirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada oshqozon, ichak, buyrak va boshqa a'zolarining ish qobiliyati oshadi. Shu sababdan qon to'qima va hujayralarga tez yetib boradi va ularni oziqlantirish bilan bir qatorda issiqlik quvvatini beradi. Keyinchalik harorat ortsa, hujayra va to'qimalardagi ortiqcha suv, tuz va boshqa keraksiz moddalar tez yuzaga chiqadi. Bunday kimyoviy, biologik va fiziologik hodisalar jismoniy tarbiyaning ijobiy ta'siri deb ta'riflanadi.

Ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning tanadagi kimyoviy, biologik, fiziologik o'zgarishlarni tegishli fanlar bilan bog'liq holda bilib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanib, organizmda modda almashish, tana a'zolarini kuchsiz, o'rta va kuchli haroratlarga keltirish yo'li bilan ularning bir zaylda yaxshi ishlashiga, chiniqishiga erishish mumkin. Bu, asosan, bo'yin, yelka, qo'llar, oyoqlar, gavdadagi bo'g'inlar hamda umurtqa pog'onalarining elastikligi, burilish, egilish, tortilish va boshqa harakatlar yengil bo'lishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanuvchilar sog'lom, tetik, chaqqon, yengil bo'ladilar va ishda tez toliqib qolmaydilar. Inson tanasini jismonan rivojlantirish uchun to'g'ri va me'yorida ovqatlanish, dam olishni ta'minlash, o'z vaqtida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanib borishi lozim.

Jismoniy tarbiyaga asoslangan sog'lomlashtiruvchi sportto'garagi mashg'ulotlari pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismidir. o'quvchilarni jismonan to'g'ri rivojlantirishga, sog'ligini mustahkamlashga, jismoniy mashqlarni mustaqil bajarishga yordam beradi.

O'qituvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning sog'ligi, yosh-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirishi lozim.

O'qituvchi o'z sinfi yoki guruhidagi bolalar orasida sog'ligi va jismoniy rivojlanishi birmuncha orqada qolgan o'quvchilar maxsus guruhlarda shug'ullanishlari uchun tashkiliy ishlarni olib borishi kerak.

Jismoniy tarbiyaga yo'naltirilgan sog'lomlashtiruvchi to'garak, mashg'ulotlari, asosan, o'quvchilarning faol dam olishiga mo'jallangan bo'lib, maxsus jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida bajariladigan harakatlarni o'rgatish vazifalariga kamroq e'tibor beriladi. O'quvchilarning kun tartibida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatadiki, jismoniy faoliyatdan so'ng aqliy faoliyat ularning ish qobiliyatini oshiradi.

Jismoniy mashqlarning insonning ruhiy va jismoniy holatiga ta'sirini ham qayd etish muhim. Harakat faolligi hordiq chiqarish va bo'sh vaqtini o'tkazish vositasida inson osoyishta va yoqimli kayfiyat uyg'otadi, inson atrofdagilardan, turmushdan qoniqish hissini tuyadi. Bunday ruhiy osoyishtalik jismoniy holatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli yoshlarni bo'sh vaqtdan doimo unumli foydalanishga o'rgatish juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Soatov N. X., Nadjimov F. F. Maktabda jismoniy tarbiya



## KASB TANLASHDA IKKILANAYOTGAN O‘QUVCHILAR UCHUN PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR

**Qalandarova Zubayda Ro‘zmatovna**

Xorazm viloyati Qo‘shko‘prik tumani

41-umumiy o‘rta talim maktabining Amaliyotchi psixologi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat har doim yangi me‘yorlar va mehnat talablarini taqdim etishi va bu ta‘lim tizimini rivojlantirishni taqozo etishi haqida gap boradi. Bunday rivojlanishda o‘quvchilarni to‘g‘ri kasb-hunarga yo‘naltirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Bunda maktab, ota-ona va pedagoglar o‘quvchilar uchun dolzarb bo‘lgan masalalar yuzasidan gap ketadi.

**Kalit so‘zlar:** Kasb, nufuzli, sezgi organlari, tikuvchi, oshpaz, atmosfera.

Mehnat bozorida holatni tahlil qiling. Yildan-yil yangi kasblar paydo bo‘layotganligiga e‘tiboringizni qarating. Doimiy malakani oshirish, qo‘shma kasblarni egallashga to‘g‘ri kelishiga tayyor bo‘ling. Hozirgi kunda, Siz maktabni tugatayotgan paytda kasb tanlashingiz, Sizning taqdiringizni butunlay hal qiladi deb qo‘rqmang. Navbatdagi tanlovdagi o‘zgarishlar, yangi mutaxassislikni o‘zlashtirish, Sizni fanlararo faoliyat bo‘yicha qimmatli mutaxassis qilib tayyorlaydi.

Birinchi kasb, garchand Siz keyinroq undan voz kechishingiz va o‘zingiz uchun qiziqrog‘ini topsangiz ham hayotning turli kutilmagan holatlarida Sizga asqotadi. Bundan tashqari, e‘tibor qiling-ki, har bir erkak uchun uyda chilangar ham, sartarosh ham, elektrchi ham, haydovchi ham bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Ayollar uchun esa, tikuvchi, oshpaz, kir yuvish va boshqa maishiy mashinalar “operatori” bo‘lishga to‘g‘ri keladi.

Albatta, kasbning nufuzliligi u yoki bu holda Siz tomoningizdan inobatga olinadi, lekin buni o‘zingizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlaringiz, sog‘lig‘ingizning holatini hisobga olgandan so‘ng amalga oshiring. Mehnat birjasidagi bo‘sh o‘rinlar to‘g‘risidagi gazetalarni tahlil qilish juda foydali (u yerda odatda har bir bo‘sh o‘rin uchun qaysi ta‘lim yo‘nalishidagi mutaxassis kerakligi ko‘rsatiladi).

Shunday kasblar borki, ular Sizga mos kelmaydi, chunki ular sizning sog‘lig‘ingizni yomonlashtirishi mumkin. Bunday kasblar ko‘p emas va ular asosan u yoki bu jismoniy tizimlarning uzoq muddatli zo‘riqishini talab etadi.

O‘quvchilarni kasb tanlashda fiziologik holatlarini e‘tiborga olish zarurligi to‘g‘risida tavsiyalar. Kasb tanlashda o‘quvchilar qobiliyatlaridan tashqari salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog‘liklarini e‘tiborga olgan holda kasbni to‘g‘ri tanlaydi deb bo‘lmaydi. To‘g‘ri, batafsil tavsiyalarni tegishli tekshiruvlardan so‘ng vrach beradi, lekin dastlabki cheklovlarni (agar ular mavjud bo‘lsa) tanlovchining o‘zi belgilashi lozim. Bu undan qandaydir maxsus bilimlarni talab qilmaydi, chunki, ko‘pchilik asosiy qarshi ko‘rsatgichlar organizm anomaliyasining (normadan chetga chiqish) to‘rt guruhi bilan belgilanadi:

A. Skelet mushak apparati anomaliyalari-skelet, bo‘g‘imlar, umurtqaning jarohatlanishi yoki kasalligi, muskullar kamchiligi bor bo‘lgan o‘quvchilar uchun quyidagi kasblarni tanlashlari tavsiya etilmaydi. Ko‘plab jismoniy energiyani, uzoq vaqt oyoqda turishni, tez-tez engashib turishni talab qiladigan kasblar (yukchi, g‘isht teruvchi, stanokchi, temirchi, metallurgiya ishlab chiqarishdagi bir qator kasblar va boshqalar).

B. Sezgi organlari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta‘m bilish) da kamchiligi bor o‘quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi. Haydovchilik mutaxassisligining barcha turlari, mayda detallar bilan ishlash, oziq-ovqat, parfyumeriya sanoatining qator kasblari, oshpaz, degustator (mazasiga qarab ta‘m bilish) va boshqalar.

V. Asab tizimining buzilishi – bosh aylanishi, qo‘lning qaltirashi kabi kasalliklarga chalingan o‘quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi. Balandlikda (montajchi, minorali kran mashinisti, va h.k.z.) transportda ishlash bilan bog‘liq kasblar (yig‘uvchi, soatsoz, zargar, va boshqalar) tavsiya etilmaydi.

G. Ichki organlar-yurak-tomir va nafas tizimi kasalliklariga chalinganlar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi: Changlangan, gazlangan muhitda, havoning siyrakligi muhitida yoki uning teskarisi bo‘lgan yuqori atmosfera bosimi ostida, yoki yuqori harorat sharoitlari bilan bog‘liq



kasblar va boshqalar.

Shunday qilib, kasb tanlashda yana bir qadam-bu o'zining qobiliyatlari va sog'lig'iga baho berishdir. Bunda ushbu baholashning zarur, lekin yetarli bo'lmagan muolaja ekanligini inobatga olish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo'jayeva N.N "Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat" (o'quv qo'llanma) Toshkent 2003 y.
2. Torskiy V.Ya va boshqalar. "Texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribaligi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar"-T.: "O'qtuvchi", 1991-179-bet. Internet saytlar. W w w.ziyonet.uz
3. www.pedagog.uz



## EFFECTIVE WAYS AND TECHNIQUES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

**Qurambaeva Sabokhat**

English teacher of 48 schools of Urgench district

**Annotation.** This article discusses the Constructivist Learning Strategy of Constructivist Teaching - The main objectives of using constructivist learning are to teach students how to learn by taking the initiative for their own learning.

**Keywords:** teaching, methods, democratic, research projects, oral discussions

Teaching came into its own as a profession in the last century. Central to this process was the emergence of the concept of methods of language teaching. The method concept in language teaching-the notion of a systematic set of teaching practices based on a particular theory of language and language learning-is a powerful one, and the quest for better methods preoccupied teachers and applied linguists throughout the 20th century. The following method strengthens the teacher-student relationship. Constructivist teaching strategies of Constructivist Teaching of the primary goals of using constructivist teaching is that students learn how to learn by giving them the training to take initiative for their own learning experiences. to Audrey Gray, the characteristics of a constructivist classroom are as follows:

- \* the learners are actively involved
- \* the environment is democratic
- \* the activities are interactive and student-centered

\* the teacher facilitates a process of learning in which students are encouraged to be responsible and autonomous of constructivist activities, in the constructivist classroom, students work primarily in groups and learning and knowledge are interactive and dynamic. There is a great focus and emphasis on social and communication skills, as well as collaboration and exchange of ideas. This is contrary to the traditional classroom in which students work primarily alone, learning is achieved through repetition, and the subjects are strictly adhered to and are guided by a textbook. Some activities encouraged in constructivist classrooms are:

\* Experimentation: students individually perform an experiment and then come together as a class to discuss the results.

\* Research projects: students research a topic and can present their findings to the class.

\* Field trips. This allows students to put the concepts and ideas discussed in class in a real-world context. Field trips would often be followed by class discussions.

\* Films. These provide visual context and thus bring another sense into the learning experience.

\* Class discussions. This technique is used in all of the methods described above. It is one of the most important distinctions of constructivist teaching methods. In the constructivist classroom, the teacher's role is to prompt and facilitate discussion. Thus, the teacher's main focus should be on guiding students by asking questions that will lead them to develop their own conclusions on the subject. Jonassen identified three major roles for facilitators to support students in constructivist learning environments:

\* Modeling \* Coaching

\* Scaffolding recommends making the learning goals engaging and relevant but not overly structured. It is driven in CLEs by the problem to be solved; students learn content and theory in order to solve the problem. This is different from traditional objectivist teaching where the theory would be presented first and problems would be used afterwards to practice theory. On students' prior experiences, related cases and scaffolding may be necessary for support. Instructors also need to provide an authentic context for tasks, plus information resources, cognitive tools, and collaborative tools. Assessment in the classrooms is based on testing. In this style, it is important for the student to produce the correct answers. However, in constructivist teaching, the process of gaining knowledge is viewed as being just as important as the product. Thus, assessment is based not only on tests, but also on observation of the student, the student's work, and the student's points of view. Some assessment strategies include:

Oral discussions. The teacher presents students with a "focus" question and allows an open discussion on the topic.

KWL(H) Chart (What we know, What we want to know, What we have learned, How we know



it). This technique can be used throughout the course of study for a particular topic, but is also a good assessment technique as it shows the teacher the progress of the student throughout the course of study (See Appendix 1).

Mind Mapping. In this activity, students list and categorize the concepts and ideas relating to a topic.

Hands-on activities. These encourage students to manipulate their environments or a particular learning tool. Teachers can use a checklist and observation to assess student success with the particular material.

Pre-testing. This allows a teacher to determine what knowledge students bring to a new topic and thus will be helpful in directing the course of study.

Jigsaw and RAFT activities (See Appendix 2, 3).

The aim is to discuss what has happened in the role play and what they have learned. In addition to group discussion, an evaluation questionnaire can be used. methods submitted above are only less part of the whole list of various effective methods of teaching a foreign language. The teacher should remember that each of the submitted methods works more effectively if they are combined and applied together at every lesson. It is impossible to allocate the best and most effective of them, every teacher himself chooses for himself what method approaches for each concrete case better.

#### Bibliography

1. Jonassen D.H. Constructing learning environments on the web: Engaging students in meaningful learning. EdTech 99: Educational Technology Conference and Exhibition 1999: Thinking Schools, Learning Nation. - 1999 - p. 45-46
2. Brown H.D. (2001). Teaching by principles: An attractive approach to language pedagogy. New York: Longman



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI

**Qurambayeva Nasiba**

Urganch tumani 48-son maktabning huquq  
fani o‘qituvchisi

**Annotasiya.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va uning tegishli vakolatlari, vazifalari keltirib o‘tilgan. Konstitutsiyaviy sud nazorat bo‘yicha sud organi ekanligi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, sud, Oliy Majlis, senat, qonun, modda

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazorat bo‘yicha sud organi hisoblanib, Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish orqali sudlov hokimiyatini mustaqil amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radi (Konstitutsiyaning 108-moddasi 1-bandi) Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani huquqiy muhofaza qiluvchi qonunlarni (qonunchilik va ijro hokimiyatining boshqa hujjatlarini) konstitutsiyasiga zid deb topishi, ya’ni ularni harakatdan to‘xtatib qo‘yishga ega bo‘lgan maxsus organ hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan sud Raisi, Rais o‘rinbosari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo‘shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a‘zosidan iborat tarkibda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a‘zolari deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

Sudya Konstitutsiyaviy sud tarkibidan chiqib ketgan taqdirda Oliy Majlis Senati ushbu moddada belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi. Konstitutsiyaning 107-moddasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sud besh yil muddatga saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasini almashtirib bo‘lmaydi va uning vakolatlari qonunda belgilangan tartib hamda asoslardan o‘zga tarzda to‘xtatilishi yoki to‘xtatib turilishi mumkin emas.

Qonun tomonidan Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga nomzodlar uchun yuqori talablar o‘tlatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasida siyosat va huquq sohasi mutaxassislari bo‘lgan, yuksak ma’naviy fazilatli va zarur malakali O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sud sudyasi etib saylanishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari mustaqildirlar, ular o‘z vakolatlarini faqat Konstitutsiya va qonunga amal qilgan holda bajaradilar. Konstitutsiyaviy sud qarorlarini qabul qilishida sudyalarga hech kim ta’sir etishga haqli emas.

Sud ishlarini yuritish sud tomonidan kollegial asosda amalga oshirilib muhokama qilinadi hamda tegishli qaror qabul qilinadi. Sud qarorlari faqat sud majlislarida ishtirok etgan sudyalar tomonidan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud majlislarida ishlar ochiq holda ko‘rib chiqiladi. Sud majlislarini yopiq holda o‘tkazishga, qonunda ko‘rsatilgan holatlardagina yo‘l qo‘yiladi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rib chiqilayotgan masalalarni chiqishda va masalalar yuzasidan ovoz berishda Konstitutsiyaviy sud Raisi, Rais o‘rinbosari hamda a‘zolari sudyalar singari teng huquqlarga egadirlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida ish yuritish O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud majlisida ishtirok etuvchilar, davlat tilini bilmagan taqdirda, o‘z ona tillarida chiqishlari va tushuntiruv berishlari, tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi qonunda konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ular mustaqilligining kafolatlanishi mustahkamlangan. Konstitutsiyaviy sud va uning sudyalari davlat va jamoat organlarining, siyosiy partiya va harakatlarning, davlat, jamoat va boshqa korxonalar tashkilotlari, idoralari, mansabdor shaxslar, davlat tuzilmasi, hudud yoki ijtimoiy guruh vakili hisoblanmaydi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o‘z faoliyatlarini mustaqil ravishda, hech kimning aralashuvisiz amalga oshirar ekan, hech bir davlat yoki jamoat organlari, mansabdor shaxslarga ko‘rsatma berishlari, faoliyati bo‘yicha so‘rov qilishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Konstitutsiyaviy



sud qarori mazmun va mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaga to'la mos kelishi, Konstitutsiyaga zid bo'lgan siyosiy va boshqa ma'nodagi manfaatdorlikdan xolis bo'lmog'i lozim.

Konstitutsiyaviy sud mustaqilligining kafolati sifatida Konstitutsiyaviy sud sudylarini almashtirib bo'lmashlik tamoyilini keltirib o'tamiz. Ular o'z vakolati muddati tugaguniga qadar o'z vazifalarini amalga oshiradilar. Faqat "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunning 17, 18-moddalarida ko'zda tutilgan holatlar bo'yicha Konstitutsiyaviy sud sudyasi vakolatlari to'xtatilishi yoki muddatidan oldin tugatilish mumkin. Konstitutsiyaviy sud sudylarining daxlsizligi (immunitet) qonunning 16-moddasida mustahkamlanib qo'yilgan. Qonunning ushbu moddasining 1-bandida alohida ta'kidlanishicha, Konstitutsiyaviy sud sudyasi Oliy Majlis Senati roziligisiz, sessiyalar o'rtasidagi davrda esa Oliy Majlis Senati Kengashining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki unga sud tomonidan ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sud sudyasiga nisbatan jinoiy ish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud sudyasini majburiy keltirish, ushlab turish, xuddi shuningdek shaxsiy ashyolari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat binosini ko'zdan kechirish mumkin emas. Konstitutsiyamizning 109-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga binoan Konstitutsiyaviy sud quyidagi vakolatlarga ega:

1) Qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi.

2) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

3) O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi.

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

5) Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Bulardan tashqari Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaning 82-moddasi hamda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonunining 10-moddasiga binoan Oliy Majlisga qonunchilik tashabbusi huquqi bilan chiqishga ega.

Konstitutsiyaviy sud qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaviy sudning to'xtami uning o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin:

1) to'xtam qabul qilingan paytda Konstitutsiyaviy sudga noma'lum bo'lgan yangi muhim holatlar ochilsa;

2) to'xtam qabul qilinishiga asos bo'lgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan bo'lsa;

3) Konstitutsiyaviy sud to'xtam belgilangan ish yuritish tartibini buzgan holda qilingan deb topsa (28-modda. Konstitutsiyaviy sudning to'xtamlarini qaytadan ko'rib chiqish). Sudya ovoz berishda betaraf qolishga yoki qatnashmaslikka haqli emas. Majlisda qatnashayotgan sudyalarning ko'pchiligi yoqlab ovoz bergan bo'lsa, Konstitutsiyaviy sud sudyasi o'z fikrini yozma sudning qarori qabul qilingan deb hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Odilqoriyev. X.. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.SHarq. 2002. 92-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. T., O'zbekiston. 1995. 32-b



## ТА'ЛИМ ТИЗИМИГА ПЕДАГОГИК INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI

**Rangova Gulchiroy O'ralovna**  
**Amonova Mohigul Ro'ziqulovna**  
Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim  
maktabi o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimiga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish masalalari o'rganilgan. Ta'lim-tarbiya sohasida innovatsiyalarning o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek pedagogning innovatsion faoliyatini tashkil etishdagi kreativ yondashuvi hamda uning belgilari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, pedagogik innovatsiyalar, pedagogning innovatsion faoliyati, kreativlik, ta'lim-tarbiya, pedagogik yangilik, tashabbuskorlik, texnologiyalar.

Bugungi jadal texnologik rivojlanish davri sog'lom, zamonaviy bilimga ega, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan hamda bu vaziyatdan oqilona fikr va qarashlari bilan chiqib keta oladigan yangi avlodni tarbiyalash vazifalarini ilgari surilmoqda. Mana shu davr inson kapitalini rivojlantirishda yuksak maqsadli vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutmoqda. Chunki inson kapitali uchun yaratilgan shart-sharoitlar istiqboldagi orzularimizni ro'yobga chiqaruvchi yosh avlodni voyaga yetkazadi. Bu 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida ham ilgari surilgan bo'lib, jumladan ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish-mamlakatimizni jadal rivojlantirish omili sifatida ko'rsatib berilgan.

Inson kapitali ham noyob boylik singari baholanadi. U odamning mehnatga yaroqlilik davrida ko'rsata oladigan xizmatlari, layoqat, qobiliyat va fazilatlarining bahosiga teng bo'ladi. Demak, inson bolalik, yoshlikda o'rgangan bilim, ko'nikmalarini ishlatib, o'ziga va mamlakatiga ko'rsatadigan xizmatlari turkumining bahosiga teng. AQSHning qanday qilib boy mamlakatga aylanganini o'rgangan olim J.Kendrik "...bunda asosiy omil inson kapitaliga qaratilgan e'tibor ekan"ligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai-nazardan davlatimiz ham uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni takomillashtirib bormoqda. Ta'lim tizimiga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish bilan yosh avlodni barkamol bo'lib voyaga yetishini ko'zlammoqda.

Pedagogik innovatsiyalar-ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, ulardan foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyatni anglatadi. Yurtimizda quyidagi yo'nalishlarda innovatsion jarayonlar joriy etilmoqda: yangi ta'lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim muassasalarining yangi turlarini yaratish.

Taraqqiyotni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yangiliklar inson bilimlarining barcha sohalarini qamrab oladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv, texnik va texnologik o'sish davrida yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirish usullaridan biri sifatida pedagogik yangiliklar yuzaga keldi.

Pedagogik yangilik - bu pedagogika sohasidagi yangilik, uning tarkibiy qismlarini va umuman ta'lim tizimining xususiyatlarini yaxshilaydigan barqaror elementlarni (innovatsiyalarni) o'quv muhitiga kiritadigan maqsadli progressiv o'zgarishdir. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan turib ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi.

Innovatsion faoliyat - pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondoshuvni nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir.



O'qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy – madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondoshuvlardir. Ular tashabbus va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondoshuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Innovatsion o'zgarishlar asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish innovatsion amaliyot va pedagogikani sezilarli darajada boyitadi. Loyihalash tamoyillari asosida innovatsiyalarni shakllantirish va joriy etishning umumlashtirilgan modellari, ularni rivojlantirishning tizimli-mantiqiy mexanizmi, shuningdek innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlar tizimidan aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, ta'limni boshqarish xodimlari foydalanishi mumkin.

Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- Ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- Pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- Mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- Tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- O'zidan boshqa tadqiqotchi – pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- Hamkasblar bilan hamkorlik;
- Fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- Ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- Yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishni istagan har bir pedagog innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishi zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
2. Дьяченко В. К. Новая педагогическая технология и её звенья. Демократическая система обучения по способностям: Изд-во Краснояр. ун-та, 1994. — 182 с.
3. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b. 8. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» 1-2- tom.Toshkent-2002 y.
4. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. “Ma'naviyat”, 2014, 22-bet.



## KIMYO DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

**Turabova Kamola Umirovna**  
**Raxmatova Nodira Hasanovna**  
Navoiy shahar 6-umumiy oʻrta taʼlim  
maktabi oʻqituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taʼlimning zamonaviy oʻqitish texnologiyalarini joriy etilishida axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida interfaol usullardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Hamda axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida interfaol usullardan foydalanish orqali oʻquvchilarning kimyo fanini oʻzlashtirishi samaradorligini oshirish yoʻllarini ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** zamonaviy taʼlim, axborot kommunikatsion texnologiyalari, interfaol usullar, kimyo fani, oʻqituvchi, oʻquvchi, oʻzlashtirish, samaradorlik.

2020 yil mamlakatimizda “Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb eʼlon qilinish, bu boradagi ustuvor maqsadlar belgilangan edi. Jumladan, yurtimizda avvaldan shakllangan ilmiy maktablar salohiyatini hisobga olib, hozirgi bosqichdagi milliy manfaatlarimiz va taraqqiyotimiz yoʻnalishlaridan kelib chiqqan holda, matematika, kimyo, biologiya, geologiya fan va sohalarini rivojlantirish tanlab olindi va mana shu fanlarni oʻqitish jarayoniga katta eʼtibor qaratildi.

Bugungi taʼlimning asosiy maqsadi fanlarni oʻqitish bilan birga oʻquvchilarda XXI asr koʻnikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Bu koʻnikmalar esa oʻz-oʻzidan hayotiy koʻnikmalarni egallashdan boshlanadi. Bu jarayon uzluksiz taʼlim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi hamda ajdodlar merosidan unumli foydalaniladi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov taʼlim tushunchasiga milliy-didaktik nuqtai nazardan yondashib, quyidagicha taʼrif bergan edi: «Taʼlim Oʻzbekiston xalqi maʼnaviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. Oʻsib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon boʻladi, kasb-kor, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga oʻtadi».

Bilim qanchalik mustahkam boʻlsa, oʻquvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda oʻquvchilar uchun informatsion savodxonlik taʼlim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Oʻqituvchilar yanada samarali oʻqitish uchun axborot kommunikatsion va taʼlim texnologiyalaridan foydalanishlari darkor. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatdagi axborotlarni oʻzlashtirishda muhim rol oʻynaydi. Oʻquv jarayonida esa axborot kommunikatsion va taʼlim texnologiyalarning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish oʻqituvchining oʻquv jarayonini yangicha tashkil qilishi, mashgʻulotlarni qiziqarli oʻtishi uchun xizmat qiladi. Jumladan, bu faoliyat natijasida oʻqituvchi fanlararo bogʻlanishni amalga oshiradi, oʻquvchilarni muammoli vaziyatlarni hal qilishga oʻrgatadi, oʻquvchilarni oʻzini-oʻzi boshqarish hamda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kimyo fanini toʻliq tushunib olishda oʻquvchilardan birinchi navbatda masalalar echib, oʻrganish eng muhim sanaladi. Shuning uchun ham koʻproq dars jarayonida masalalarni echib, amaliy laboratoriya ishlarini va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib kimyo faniga tegishli elektron filmlarni oʻrgatish har bir oʻqituvchining maʼsuliya vazifalaridan biri sanaladi. Oʻqituvchilar tayyor elektron resurslar yordamida dars oʻtish bilan chegaralanmasdan balki, taʼlimiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qoʻllovchi oʻqitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini oʻquvchilarga etkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Hozirgi davr oʻquvchilarga zamonaviy texnologiya asosida, interfaol tarzda mashgʻulotlar oʻtkazish taqozo etmoqda. Buning uchun avvalo oʻqituvchi oʻzi bularni oʻzlashtirishi va ularga oʻrgatishning eng qulay va oson yoʻllarini izlab topishi lozim. Oʻqituvchi zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida oʻquvchilarni fanga qiziqitira olishi, ularning mustaqil ishlashga oʻrgatishi, faolligini oshirishi, axborotlar oqimidan foydalanishga oʻrgatishi lozim. Taʼlim jarayoniga interfaol usullarni qoʻllash taʼlimning yanada samarador boʻlishi bilan



birga o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyalarini ham oshiradi. Biz quyida o'qituvchilarga kimyo darslarida foydalanishlari mumkin bo'lgan axborot kommunikatsion texnologiya asosidagi interfaol usullardan tavsiya qilamiz.

“*Kim bilimdon va chaqqon*” interfaol usulida kompyuterda jadval to'ldirish asosida o'quvchilarning olgan bilimlari mustahkamlanadi. Masalan,

<b>OKSIDLARNI TOIFALSH</b>				
<i>Oksidlar</i>	<i>Asosli</i>	<i>Kislotali</i>	<i>Amfoter</i>	<i>Befarq</i>
<i>CaO</i>	+			
<i>Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub></i>				
<i>SO<sub>3</sub></i>				
<i>SO</i>				
<i>P<sub>2</sub>O<sub>5</sub></i>				

“*Hatosini toping!*” didaktik o'yinini kompyuter Power point dasturida tayyorlangan taqdimotdagi formulalardan faqat oksidini qoldirib xato formulalarni o'chirishadi.

#### **OKSIDLAR**

Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaSO <sub>4</sub>	KOH
SO <sub>3</sub>	H <sub>2</sub> O BaO	N <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
Fe(OH) <sub>3</sub>	CuO	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>
CO <sub>2</sub>	Na <sub>2</sub> O	Zn(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>

Elementlarni massalarini o'quvchilar yod olishi uchun ularning tartib raqamini bir biriga qo'shib yoki kattasidan kichigini ayirish mumkin. Bu interfaol usul quyidagicha o'tkaziladi;

Kompyuterda birinchi ustun namoyish etiladi. Javobini topgan o'quvchilar element nomini aytadilar.

$$\text{Mg} + \text{Ca} = ? \quad (12 + 20 = 32) \quad \text{Mg} + \text{Ca} = \text{Ge}$$

$$\text{H} + \text{Li} = ? \quad (1 + 3 = 4) \quad \text{H} + \text{Li} = \text{Be}$$

$$\text{Ca} - \text{O} = ? \quad (20 - 8 = 12) \quad \text{Ca} - \text{O} = \text{Mg}$$

$$\text{Na} - \text{Li} = ? \quad (11 - 3 = 8) \quad \text{Na} - \text{Li} = \text{O}$$

#### **Mantiqiy savollar**

Hamma savollarning javoblari 50 chiqishi kerak, javoblarning to'g'riligini isbotlang.

A) CaCO<sub>3</sub> ekvivalent qiymatini toping?

B) SO<sub>2</sub> dagi oltingugurtning massa ulushini (%) toping?

C) 100 gr CuSO<sub>4</sub> olish uchun necha gr CuO zarur?

D) 35 l kislorod molekulasining massasini toping?

Bu kabi darslarni tashkil etish kimyo ta'limini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Buning natijasida o'quvchilarda *birinchidan*, ayrim ma'lumot dalillarga nisbatan tug'ilgan shaxsiy fikr mulohazalarini bildirishga, ayrim ma'lumotlar yuzasidan o'z fikrini o'rtaga tashlashga tabiiy ravishda intilishi, ularni asoslash va dalillar keltirish malakalari shakllanadi. *Ikkinchidan*, qo'shimcha adabiyotlar o'qitish, mustaqil kuzatish, tajribalar o'tkazish yo'li bilan har xil tasnifiy va taqqoslama jadvallar, sxemalar chizmalar, ko'rgazmali qurollar tayyorlash malakalariga ega bo'ladilar, hosil qilingan bilim va malakalardan bundan keyin o'quv fanini va boshqa fanlarni o'rganishda, shuningdek, hayotga bemalol, qiynalmasdan, mustaqil ravishda foydalanish malakalari shakllanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch.:T, “Ma’naviyat”, 2008.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmanov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.: 2008.
3. Ishmuxammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: 2013.
4. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Toshkent 2013.



## INTERFAOL METODLAR: MOHIYATI VA QO‘LLANILISHI

**Usenova Bag‘dagul Turapovna**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlarni qo‘llashning ahamiyati ochib berilgan. Unda o‘quvchilarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda interfaol usullar yordam berishi xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta‘lim, interfaol, lug‘at, nutq

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu kabi metodlar mohiyatiga ko‘ra ta‘lim oluvchilarda o‘quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog) lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta‘lim oluvchi (o‘quvchilar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

**“Tovushlardan sonlar yozamiz” usuli.**

**O‘tkazish tartibi.** O‘quvchilar shifrlangan 2 xonali sonlarni kalit yordamida og‘zaki topadilar. Sonlarni yodda saqlab qolishlari lozim (kalit o‘quvchilarga oldindan tarqatiladi).

MA BY YK OT SA PO  
( 10, 23, 34, 59, 60, 80)

**“Mosini tanla” usuli. O‘tkazish tartibi.** O‘qituvchi o‘quvchilarga 10 ta so‘z o‘qib beradi. O‘quvchilar so‘zlarning ma‘nosiga mos keladigan so‘zlarni topishlari kerak.

Belkurak, xat, olma, mushuk, sovuq, samolyot, non, paxta, kapalak, daraxt.

Yozish, yumshatish, qish, oq, yumshoq, bog‘, osmon, momiq, chiroyli, katta.

**“Tovushli diktant” usuli. O‘tkazish tartibi.** O‘quvchilar daftarlariga so‘zlarni yozib, yodlab olishlari kerak (*tovushlar orasidagi intervall-2 soniya* ).

(Z), (.I), (N), (A).

(Z), (A), (N), (J), (I), (R).

(I), (Ch), (A), (M), (I), (Z).

(B), (A), (N), (A), (N).

(B), (A), (L), (A), (N), (D).

(Z), (A), (N), (J), (I), (R).

(Yo), (Z), (A), (M), (I), (Z).

**To‘rt aka-uka usuli. O‘tkazish tartibi.** To‘garak rahbari to‘rt o‘quvchini tanlab olib, ularga oldindan tayyorlab qo‘yilgan yil fasllari yozilgan qalpoqchalarni tarqatadi. To‘rt aka-uka uchrashadilar. Kuz, qish, bahor va yoz, Barcha yil fasllari birin –ketin odamlarga, tabiatga qanday foyda keltirayotganliklari haqida so‘zlab beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga murojaat qilib, yil fallari fikrlariga kim qanday qo‘shimchalar kiritishi, yil fasllari haqida she‘rlar, qo‘shiqlar, hikoyalar aytib berishi mumkinligini so‘raydi.

**“Davomini siz ayting...” usuli. O‘tkazish tartibi.** O‘qituvchi o‘quvchilarni “Juftingni top”



mashqini o'tkazish bilan kichik guruhlariga bo'ladi. O'qituvchi har-bir guruh a'zolariga xalq maqollaridan bosh so'zlarni aytadi, guruh a'zolari esa davom ettirishlari kerak. Masalan, "Yetti o'lchab...", "Oltin olma...", "Mehnat...", "Vaqtning ketdi..."

**“O'rmondagi yig'ilish” usuli. Tashkil etish tartibi.** O'qituvchi o'quvchilarni rollarga bo'linadigan, masalan, ayiqpolvon, quyon, tipratikon, tulki, bo'ri, va h,k, Barcha o'rmon hayvonlari o'zlariga yig'ilish raisini saylaydilar. Har bir o'yin qatnashchisi qishga qanday tayyorgarlik ko'rayotganligi haqida gapirib beradi. Bu jarayonda o'yin qatnashchilari bir- birlariga maslahatlar beradilar, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilashga harakat qiladilar

**«Mashhur insonlar» usuli . Amalga oshirilishi:**

1. O'quvchilarga mashhur insonlar nomlarini doskaga yozish taklif qilinadi va xohlovchilar bu nomlarni doskaga chiqib yozadilar;

2. Keyin o'quvchilar ichidan birortasini chaqirib, mashhur insonlardan birining kimligi, faoliyati haqida so'raladi va u bu haqdagi ma'lumotlarni barchaga aytib beradi;

3. Agar bu chaqirilgan o'quvchi hech nima bilmasa, yoki kamroq bilsa sinfdagi boshqa xohlovchilarga bu haqdagi ma'lumotlarni to'ldirish taklif qilinadi;

3. Shunday qilib, birin-ketin o'quvchilarni doskaga chaqirgan holda mashhur insonlar va ularning nima uchun mashhurligi haqida bilib olinadi.

Ta'lim metodlari va ularning turlarini o'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi.

Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa birov- ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2012-yil №3 son
2. “Muhofaza” jurnali, 2012-yil, 10-son
3. Internet saytlari:-ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



## МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Usmonova Gulshan Bahronovna**

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani  
24-maktab matematika o‘qituvchisi  
(+99 893 080 19 71 )

**Hamroyeva Nazira Mo‘min qizi**

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani  
24-maktab matematika o‘qituvchisi  
(+99 891 332 10 96)

**Annotatsiya:** Matematika ta’limida o‘quvchilarga matematik bilimlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanishning bugungi kun uchun dolzarbligi.

**Kalit so‘zlar:** Zamonaviy ta’lim , interfaol metodlar , tarbiya usullari , o‘zaro hamkorlik, shaxsiy sifatlar, sog‘lom muloqot, munozara, bahs .

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan , yuksak intellektual va ma’naviy salohiyotga ega bo‘lib ,dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi ,baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” .

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta’limni isloh qilinishi jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta’lim jarayoniga o‘zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar.Tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo‘lgan bilimlarni samarali o‘zlashtiradi

Interfaol metod-ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs – munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati,o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Interfaol metodlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol degani, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik tufayli dars samaradorligini oshadi, yangi darsni o‘quvchi mustaqil harakat, mulohaza, bahs-munozara orqali o‘rganadi, qo‘yilgan maqsadga mustaqil o‘zi darsda o‘quvchi faol ishtirok etgan holda kichik guruhlarda javob topishga harakat qiladi,ya’ni ham fikrlaydi, ham baholaydi, ham yozadi, ham gapiradi, ham tinglaydi, eng keragi o‘zi faol ishtirok etadi. Interfaol usullarining negizidagi topshiriq mazmunini anglab yetgan o‘quvchilar ta’lim jarayoniga o‘zlari bilmagan holda qiziqish bilan kirishib ketadilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon , demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent “O‘zbekiston” 2016-yil 59 bet
2. Azizxodjayeva N.H —Pedagogik texnologiya va pedagogik maxoratl-Toshkent.: TDPU
3. Abdullaeva B.S., Xusanova M.E., ||Interfaol usullardan foydalanish || Boshlang‘ich ta’lim jurnali 12.2010 yil 16-17 bet



## G‘UZOR TUMANI 59-UMUMTA’LIM MAKTABINING O‘TMISHI VA BUGUNI

**Uzoqova Mohira Toshtemirovna**

Qashqadaryo viloyati

G‘uzor tumani 59-umumta’lim maktabining  
oliy toifali tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodni har tomonlama yetuk va komil inson qilib tarbiyalashda maktabning o‘rni va ahamiyati, G‘uzor tumanining 59- umumta’lim maktabining tashkil topish tarixi, maktabning direktorlari va faxriy ustozlari, shuningdek, sobiq bitiruvchilarining bugungi kunda jamiyatdagi o‘rni, maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilarining erishgan yutuqlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, Hakim at-Termiziy, innovatsion ta’lim, tarbiya, ”Eng kitobxon maktab”, ”O‘z fanining fidoiysi”, ”Yosh kitobxon”, sport.

Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm - ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, ”Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”

Bizning ta’lim maskanimiz yosh avlodga har tomonlama puxta bilim berib kelmoqda. G‘uzor tumanidagi 59- umumta’lim maktabining yaratilish tarixi va bugungi kunda jamiyatdagi o‘rni beqiyosdir. Ta’lim muassasamiz tashkil topishi sanasi bevosita ona Vatanimiz- O‘zbekistonimizning mustaqillikka erishgan qutlug‘ kun, ya’ni 1991-yil 1-sentabr kuniga to‘g‘ri kelishi ham bejizga emas. Maktabga Sharqiy sufizmning mashhur namoyondasi, buyuk hadisshunos olim Hakim at-Termiziy nomi berilgan.

Maktab dastlab 100 o‘rinli, 6 xonali bo‘lgan. Sho‘rtan unitar korxonasi yotoqxona binosi maktabga moslashtirilgan. Dastlab tashkil etilgan vaqt maktabda 84 nafar o‘quvchi tahsil olishgan, ularga 15 nafar o‘qituvchi dars bergan.

2017- yilda maktabning eski binosi buzib tashlanib, 180-o‘rinli yangi maktab qurilgan. Bugungi kunda o‘quvchilarning umumiy soni 294 nafarni tashkil qilib, shundan 139 nafari qiz bolalar, 155 nafari esa o‘g‘il bolalardir. O‘qish navbatliligi 2 navbatli. Maktab G‘uzor tumani markazidan 23 km uzoqlik masofada, Qorako‘l QFY Sho‘rtan qo‘rg‘onida joylashgan. Umumiy yer maydoni 1,5ga bo‘lib, shundan binolar maydoni 0,3ga, yo‘laklar maydoni 0,8 ga, ekin maydoni 0,4 ga teng. O‘quvchilarning soni yildan-yilga ko‘payishi natijasida 2021 yilda bitta qo‘shimcha bino, faollar zali, sport zali qurilish loyihasi qo‘yilgan.

1992- yil 24- sentabr kuni G‘uzor nohiya hokimi Ya.Nurillayev tomonidan № X- 249/9 sonli Qarori asosida at-Termiziy nomli to‘liqsiz o‘rta maktabi 1992- yil 1- sentabrdan boshlab o‘rta umumiy ta’lim maktabiga aylantirilgan.

### 1991- yildan hozirgi kunga qadar faoliyat ko‘rsatgan maktab direktorlari

№	Maktab direktorlari	Mutaxassisligi	Faoliyat ko‘rsatgan yillari
1	To‘ychi Choriyev	Matematik	1991-1996 yillar
2	Sayfulla Alimov	Tarixchi	1996-1998 yillar
3	Ne‘mat Axmedov	Fizik	1998-2004 yillar
4	Eshqobil Quvvatov	Jismoniy tarbiya	2004-2012 yillar
5	Faxriddin Xolmonov	Jismoniy tarbiya	2012-2013 yillar
6	Matluba Tursunova	Matematik	2013- yildan hozirgi kungacha

### Maktabning faxriy ustozlari

1. Yusupov Xurram – 1991-2016 yillar oralig‘ida ona tili va adabiyot fanidan o‘quvchilarga bilim bergan.

2. Yorbekova Chinni – 1991-2016 yillar davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim bergan.



3. Quvvatov Eshqobil – 2004-2012 yillar davomida maktab o‘quvchilariga jismoniy tarbiya fanidan tahsil bergan.

#### Maktabning nomlanish tarixi

1. 1991-2005 yillar – at-Termiziy nomidagi 59-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi.

2. 2005- yildan hozirgi kunga qadar 59- umumiy o‘rta ta’lim maktabi.

Ta’lim muassasasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi, Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi tomonidan 2012 yil 23 noyabrdagi № X -822/10- raqamli № 114 guvohnomasi berilgan. Shuningdek, maktabga G‘uzor tumani hokimining 2014- yil 26 fevral X-153/02-sonli Qarori asosida 1814070106229 kadastr raqami berilgan. Maktabning Ustavi G‘uzor tumani hokimining 2012 yil 20 oktabrdagi X-822/10-sonli Qarori bilan ro‘yxatga olingan. G‘uzor tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri tomonidan tasdiqlangan.

#### Maktabning moddiy-texnik ba’zasi

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Soni	yaroqli	Yaroqsiz	Ehtiyoj
1	O‘quv partasi	dona	134	96	38	50
2	O‘quvchi stuli	dona	264	150	114	
3	O‘qituvchi stoli	dona	8	8	0	
4	O‘qituvchi stuli	dona	8	8	0	
5	Doska	dona	8	8	0	
6	Kiyim shkaf	dona	6	4	2	
7	Kitob javoni	dona	22	8	14	
8	Rahbar xonasi	komplekt	1	1		
9	O‘qituvchilar xonasi	komplekt	0			1
10	Ma’naviyat xonasi	komplekt	0			1
11	Kimyo laboratoriya	komplekt	0			1
12	Fizika laboratoriya	komplekt	0			1
13	Bilologiya laboratoriya	komplekt	0			1
14	Kutubxona stellaji	komplekt	0			1
15	Faollar zali	komplekt	0			1
16	Oshxona	komplekt	0			1
17	Psixolog xonasi	komplekt	0			1
18	Logoped xonasi	komplekt	0			1
19	Tibbiyot xonasi	komplekt	0			1
20	Stomatologiya xonasi	komplekt	0			1
	<b>Jami:</b>		<b>451</b>	<b>283</b>	<b>168</b>	<b>54</b>

Maktabni tugallagan sobiq o‘quvchilar orasida turli kasb egalari, turli korxonalar va davlat idoralari turli lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan insonlardan quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

1. Fayzullayev Hamid – Toshkent viloyati Ohangaron tumani investitsiya bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i.

2. Sohibov Aziz – O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida o‘qituvchi.

3. Abdumalikova Saygul – DXX xodimi.

4. Ahmadov Jasur – Qamashi tumani IIB xodimi

5. Ahmadov Mansur – O‘zbekiston respublikasi Milliy Gvardiyasi xodimi.

6. Ashurov Ozod – Angren shahri 27-o‘qchilar brigadasi Moto Razvedka Qidiruv Batalyonida pulimyoatchi, kichik serjant.

Maktabning sobiq bitiruvchilaridan H. Fayzullayevning xotirlashicha “ustozlarimdan birinchi ustozim Yelena Aminova menga o‘qishni va xat-savod chiqarishni, shuningdek Saodat Berdiyevlar sidqidildan menga va sinfdoshlarimga ta’lim bergan” deb eslaydi.

Maktabning sobiq bitiruvchilaridan Ashurov Ozod “Maktabda o‘qigan vaqtlarimda sinf rahbarimiz M. Tursunova bizga nafaqat maktabda, balki mustqil hayotda qadam qo‘yishimizga ustozlik qilgan, matematika ustozimiz Sh. Salomov esa bizga matematika fanidan juda yaxshi dars o‘tganlar’ – deya o‘z fikrlarini bildirishdi.

Hozirgi kunda ta’lim maskanida 37 nafar o‘qituvchilar, shundan 18 nafari oily ma’lumotli, 11 nafrai to‘liqsiz oily, 8 nafari o‘rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘qitu-



vchilarning 1 nafari oily toifali ( tarix fani o'qituvchisi Uzoqova Mohira), 1 nafari birinchi toifali ( rus tili fani o'qituvchisi Norboyeva Gulnora), 3 nafari ikkinchi toifali ( matematika fani o'qituvchisi, O'IBDO' Salomov Shabon, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Alimardonova Mahbuba, ingliz tili fani o'qituvchisi Tursunova Munisa) va 13 nafari mutaxassis o'qituvchilardir. O'quvchilarga kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar tashkil qilingan. Maktabda 2020 yilda o'tkazilgan "Eng kitobxon maktab" tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda kitob savdosi tashkil etilib, tumanda o'tkazilgan eng ko'p kitob sotib olingan maktab tanlovida 2- o'rinni egallab 500 ming so'mlik badiiy kitoblar sovriniga ega bo'ldi. O'qituvchilardan Uzoqova Mohira umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari o'rtasida onlayn o'tkazilgan "O'z fanining fidoiysi" ko'rik tanlovi tuman bosqichida faxrli 3-o'rinni, viloyat boshqichida esa faxrli 2- o'rinni egalladi.

Shuningdek, MMIBDO' F.Tursunova, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Qodirova Lola, ingliz tili fani o'qituvchisi M.Tursunova, rus tili fani o'qituvchisi G.Norboyeva, boshlang'ish sinf o'qituvchilari SH.Usmonova, D.Latipovalar o'qituvchilar o'rtasida tumanda va onlayn o'tkazilgan turli tanlovlarda ishtirok etib, bir qator yutuqlarni qo'lga kiritishdi.

Maktab o'qituvchilarining "Sho'rtan" futbol jamoasi 2020- yil 7- dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 28- yilligi munosabati bilan tuman o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan mini futbol musobaqasida faxrli 3-o'rinni egallashdi.

Maktab o'quvchilari turli festival va musobaqalarda, tuman miqiyosida o'tkazilgan fan olimpiadalarida qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Jumladan, 3<sup>a</sup>-sinf o'quvchisi Jalilov Asliddin Buxoroda 29.10 – 03.11 2019 yilda T.Roziqov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro futbol turniri musobaqasida 2011- yil tug'ilganlar o'rtasida "Nasaf" yoshlar terma jamoasida tarkibida o'ynab birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek, u 2019- yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 28- yilligiga bag'ishlangan futbol festivalida "Nasaf" futbol jamoasining 1-darajali o'yinchisi diploma bilan mukofatlandi. Jalilov Asliddin turli tanlovlarda va darslarda har doim faol ishtirok etib kelmoqda.

3<sup>b</sup>-sinf o'quvchisi Toshtemirov Asrorbek 2019- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 19- martdagi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha Prezidentimizning beshta muhim tashabbusining Ikkinchi tashabbusi Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida sportning Boks turi bo'yicha 2002-2003, 2004-2005, 2006-2007, 2008-2009 yillarda tug'ilgan o'g'il bolalar o'rtasida BO'SM ochiq birinchiligi sport musobaqasida 22 kg vazn toifasida 1-o'rinni, 2019-yil 6-8 noyabr kuni Boks bo'yicha maktab o'quvchilari o'rtasida Qashqadaryo viloyat "Yoshlik" JTCJ ochiq birinchiligida 22 kg vazn toifasida "Boks" 1- orinni, shu yilning 20-21 dekabr kunlari Boks bo'yicha 2008-2012 yillarda tug'ilgan kichik o'smirlar o'rtasida "Qorbobo sovrini"ga bag'ishlangan viloyat turnirida 24 kg vazn toifasida 1- o'rinni, 2020- yil 10-12 dekabr kunlari 2009-2012 yillarda tug'ilgan kichik yoshdagi o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan an'anaviy XII – "Fidoiy ustozlar" turnirida 24 kg vaznda 2- o'rinni egalladi. U turli boks musobalarida faxrli yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. 10- sinf o'quvchisi Eshboltayev Elburs G'uzor tumanida maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan kurash musobaqasida faxrli 2-o'rinni egalladi.

Maktab bitiruvchilaridan Sohibov Abbos, Ochilov Sanjar QMII talabalar, Inatullayeva Dilso'z Termiz Davlat Pedagogika Instituti talabasi, Fayzullayev Abdulaziz Toshkent Diplomatiya Institutida 2-kurs davlat granti asosida tahsil olmoqdalar. So'nggi ikki yil ichida 23 nafar bitiruvchilardan 3 nafari OTM talabalaridir.

Maktab IIB, mahalla, Yoshlar Ittifoqi, sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda qator tadbirlarni, tushuntirish-targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, G'uzor tumani 99750- harbiy qism bilan hamkorlikda 2020 yil 18 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayr'og'i qabul qilinganing 29- yilligiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir, 2020 yilda 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 28- yilligi munosabati bilan marafon yugurish, 16- dekabr kuni "Kim vatanga sodiq bo'lsa – mendirman o'sha" mavzusida tadbirlar o'tkazildi.

Maktabga 2015- yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat Test Markazi tomonidan Akredatsiya va attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida № 9142 raqamli, UO' № 009193 seriyali sertifikat taqdim etilgan. Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani " Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi" tomonidan 2020- yilning 20- 22 oktabr kunlari 59- umumta'lim maktabi attestatsiyadan o'tkazildi. Mazkur ta'lim muassasasi attestatsiya mezoni talablari bo'yicha jami 1057,4 ball to'pladi.



Maktabning pochta indeks raqami 180320.

Maktabda besh tashabbus bo'yicha o'quvchilar o'rtasida "Yosh kitobxon", "Yosh sportchi", "Yosh rassom" va boshqa musobalaqalar tashkil etilgan.

Zero taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning ta'biri bilan aytganda "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi!".

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnoma-si. 29.12.2020 yil

2. Sh. Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir", - Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. T. 1.10.2020 yil.

3. "Ta'lim to'g'risida"gi Yangi tahrirdagi Qonun. T. 23.09.2020 yil

4. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi tomonidan 2012 yil 23 noyabrdagi № X -822/10-raqamli guvoohnoma.

5. 1992- yil 24- sentabr kuni G'uzor nohiya hokimi Ya. Nurillayev tomonidan № X- 249/9 sonli Qarori

6. G'uzor tumani hokimining 2014- yil 26 fevral X-153/02-sonli Qarori



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Yunusova Fazilat Yusupovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar 12-IDUM

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Telefon : +998(91)3338788

**Annotatsiya.**Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish.

**Kalit so'zlar.**Axborot, kommunikatsiya, innovatsion texnologiya

Boshlang'ich ta'lim uzliksiz ta'lim tizimining murakkab, o'ziga xos shu bilan birga, mustaqil va majburiy, tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday ekan har bir o'qituvchi qo'l ostidagi jazzi bolajonlarimizning ongi, shuuriga yetkazishi lozim bo'lgan bilimni qanday qilib singdirishi uning mahoratiga bog'liq.

Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Demak, har bir o'qituvchi izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'zini o'zi tarbiyalashi, o'z ustida tinmay ishlashi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi va ta'lim jarayonida qo'llay olishi kerak.

Hozirgi kunda ta'limda innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularga egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini olmoqda.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatyidigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash



orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Odobnoma kitobi (4-sinf)
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2019-yil



## МАТНАЗАР АБДУЛҲАКИМ ШЕЪРИЯТИДА ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ

З.Алланазарова

УрДУ, “Педагогика назарияси ва тарихи”  
мутахассислиги 1-курс магистранти

**Аннотация:** Ушбу мақолада Матназар Абдулҳаким ижодидаги педагогик фаолият жараёнлари ҳақидаги педагогик жиҳатлар ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** эзгулик, бағрикенглик, меҳр-мурувват, дўстлик, ўқувчи ёшлар, китобхон, ота-онага ҳурмат, маънавий дунёқараш.

Дарҳақиқат, маънавий дунёқараш, теран нигоҳлар ила дунёга разм солиш, борликни фақат гузалликлар ила қабул қилишда маданият намояндаларининг, жумладан сўз сэхрини ўз ҳаёт мазмуни деб билувчи, моҳир қалам соҳиблари булмиш ёзувчилар, шоирлар, адабиётшуносларнинг ўрни беқиёс. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Биз халқимизнинг маънавий камол топишида маданият намояндаларининг улкан хизматлари борлигини доимо миннатдорлик билан эътироф этамиз” деган фикрлари ҳар бир ижод аҳлида юксак матовация уйғотиши табиий. Чунки айнан уларнинг ижод намуналари орқали китобхонлар, ўқувчи ёшлар қалбида эзгулик уруғи, қалб мусаффолиги, ватанга садоқат, ота-онага ҳурмат, оилапарварлик туйғулари шаклланади. Ўзбек халқининг суюкли фарзанди, халқ билган ва таниган азиз инсон Матназар Абдулҳаким ижодида ҳам юқоридаги сифатларнинг барчаси намояна десак муболаға бўлмайди. Ўзбек адабиётшунослигида ҳассос шоир, ҳозиржавоб публицист, моҳир таржимон сифатида ўз ўрнига эга бўлган Матназар Абдулҳаким ижодига қизиқиш кейинги ўн йилликда бирмунча кучайиб, бир қатор тадқиқотларда унинг номи истеъдодли ижодкорлар қаторида қайд этилган. Шоир шеърияти ва публицистикасида ўз ифодасини топган юксак ғоялар, инсоний камолот билан боғлиқ қарашлар, шунингдек, дўстлик, эзгулик, бағрикенглик, меҳр-мурувват, адолат каби умумбашарий қадриятлар одамлар тафаккури, дунёқарашининг бойишида, замондошлар сийратининг янгиланиши ва жамиятнинг маънавий-ахлоқий такомилида муҳим аҳамият касб этиши асосланган, М.Абдулҳаким бадиий-публицистик ижодининг тадрижи, адабий муҳит ва бошқа омилларнинг бу борадаги роли аниқланган, шоирнинг мумтоз сўз санъати анъана ва тажрибаларидан ўрганиши ва илҳомланиши, поэтик образ яратиш, оҳорли ташбеҳу тимсоллар топиш, сўз ва иборалар қўллашдаги маҳорати ёритилган; адиб публицистикасининг адабиётшунослик, санъат, маънавият сингари соҳалар билан билвосита боғлиқлиги кўрсатилган. М.Абдулҳаким адабиётга ўтган асрнинг 70-йиллари иккинчи ярмида кириб келди. Бой ва ранг-баранг халқ оғзаки ижоди, кўп асрлик Шарқ мумтоз сўз санъати анъаналари ва рус шеърияти тажрибалари шоир адабий изланишларининг асосий омиллари бўлди. Унинг илк шеърий тўплами “Тиниқ тонглар” номи билан 1982 йилда чоп этилди. Шундан кейин ижоди жанр жиҳатидан кенгайиб, мавзусига кўра бойиб ва мазмун нуқтаи назаридан теранлашиб борди.

“Шунчаки ёзишни шоир учун ўлим” (Ҳалима Худойбердиева) деб билган Матназар Абдулҳаким юрак кўри, виждон амри билан чинакамига ижод қилди. Шоирнинг бутун ижодига хос бу томоил унинг ҳали чоп этилмаган, лекин дўстлари, адабиёт мухлислари бисотида сақланаётган шеърларида ҳам бош мезон бўлиб, улардаги беғубор туйғулар ижодкор маънавий умрининг давоми сифатида қадридлидир.

Матназар Абдулҳакимнинг педагогик қарашлари унинг қуйидаги фикрида ёккол уз ифодасини топган

- Яхши шоирлардан кўра, яхши ўқитувчилар кўпроқ керак.

Ушбу жумла замирида юқорида айтилган барча фикрлар мужассам. Ушбу мисрани ҳозирги замон талаби билан боғлайдиган бўлсак, шиддат билан ривожланиб бораётган тезкор замонда, ўқитувчи, муаллим, педагогларнинг бугунги кундаки ўрни, аҳамияти нечоғлиқ муҳим ва беқиёс эканлиги назарда тутилган.

Жумладан, шоир қаламига мансуб “Дарсдан сўнг” шеърининг моҳиятига назар соладиган бўлсак, унда ўқитувчилик касбининг машаққати, дарс жараёнида юзага келиши мумкин бўлган муаммолар, ўқитувчи ва ўқувчи орасидаги ўзаро муносабат, ўқитувчининг дарсдан



сўнги ҳолатлари барчаси моҳирона тасвирланган. Қолаверса бу ижод намунасида фақат касб қийинчиликлари эмас, балки аёллик, оналик, бекаликнинг бурч-вазифалари очиб берилган. Гарчи асар воқеаси трагедия тарзида яқун топса ҳам, ўқувчини чуқур хаёллар оғушига тортади.

Кимнидир койиди чеккани учун.  
Тортиб олиб қўйди гугуртини ҳам.  
Машқ дафтарларини йиғди-да, сўнгра  
Бир-бир санаб кўрди. Етти дафтар кам.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. “Муҳофаза” газетасининг 2015 йил 15 апрелдаки 4-сони.
2. “Тамаддун нури” адабий-бадий журналининг 2020 йил 5-сони.
3. Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар (1-жилд). Тошкент, “Ғ.Ғулом”, 2017.
4. [www.saviya.uz](http://www.saviya.uz)



## ҲАМКОРЛИК ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎҚУВЧИ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ

**Бекчанова Мехрибон Рўзимбоевна**  
Хоразм вилояти Шовот тумани 3-мактаб  
информатика фани ўқитувчиси.

**Аннотация:** Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётини зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Бугунги кунда мустақил тараққиёт йўлидан бораётган мамлакатимизнинг узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш, янги сифат босқичига кўтариш, унга илғор педогогик ва ахборот технологияларини жорий қилиш ҳамда таълим самарадорлигини ошириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

**Калит сўзлар:** таълим технологиялари, таълим, интерфаол услублар, шахс, педогогик технологиялар, ўқув-тарбия жараёни, замонавий технологиялар.

Маълумки, узлуксиз ва узвийлик таълим тизимида ортикча такрорийликка чек қўйиб, аввало, жамиятнинг маънавий ва интеллектуал салоҳиятини кенгайтиради, қолаверса, давлатнинг ижтимоий ва илмий-техник тараққиётини такомиллаштириш омили сифатида ишлаб чиқаришнинг барқарор ривожланишини таъминлайди. Педогогик технологияларнинг ривожланиши ва уларнинг ўқув-тарбия жараёнига кириб келиши, шунингдек, ахборот технологияларнинг тез алмашинуви ва такомиллашуви жараёнида ҳар бир инсон ўз касбий тайёргарлигини, маҳоратини кучайтириш имконияти яратилади.

Таълимнинг барча босқичларига оид умумий педогогик ва дидактик талаб ўқувчининг билим, тасаввур ва кўникмалари асосида мустақил ишлаш самарадорлигини такомиллаштириш, илмий фикрлашга, ўқув фанига қизиқишини кучайтириш, касбий билимларини чуқурлаштириш, назарий ва амалий машғулот мабойнида фаоллигини оширишдан иборатдир.

Шу вақтгача анъанавий таълимда ўқувчиларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатиб келинган эди. Бундай усул ўқувчиларда мустақил фикрлаш, ижодий изланиш, ташаббуқорликни сўндирир ва ўқувчи компетенциясини шакллантиришга тўсқинлик қилиб келган.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол услублардан фойдаланиб, таълимни самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Замонавий технологиялар қўлланилган дарс машғулоти ўқувчилар эгаллаётган билимларни ўзлари кидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига қаратилган. Ўқитувчи бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади, шу билан бир қаторда ўқувчи компетенцияси шаклланади. Бундай ўқув жараёнида ўқувчи асосий фигурага айланади.

Мактабда ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнида ўрганиладиган мавзунинг мазмунига мувофиқ педогогик технологияларни танлаш, улардан ўз ўрнида ва ўқитиш мақсадларига эришиш назарда тутилган ҳолда фойдаланиш ўқитувчилардан педогогик технологияларнинг ўзига хос хусусиятлари, мазкур технологиялар таълим мазмунига қўядиган талаблари, яъни ўрганиладиган мавзунинг мантиқий йўналишини эътиборга олишни талаб қилади.

Шуни қайд этиш керакки, ўрганиладиган мавзунинг мазмунига кўра педогогик технологияларни танлаш ўқитувчидан юқори даражадаги билим ва педогогик маҳоратни талаб этади.

Мазкур ҳолатни эътиборга олган ҳолда ушбу мақолада ҳамкорлик таълим технологияларининг ўқувчи компетенциясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги аҳамияти ҳақида фикр юритамиз.

Ҳамкорликда ўқитиш ғояси жаҳоннинг ривожланган мамлакатларидаги олимлар томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, узоқ йиллар давомида таълим-тарбия жараёнида муваффақиятли қўлланилиб келинмоқда.



Ҳамкорликда ўқитиш технологиясидан асосан ўқувчиларда ДТС ва фан дастурида қайд этилган билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш ва кўпроқ ўқувчилар томонидан ўқув материалларини қайта ишлаш орқали мустақил ва ижодий фикр юритиш билан бир қаторда, ўқувчиларни компетенцияларини ривожлантиришни назарда тутди.

Ҳамкорликда ўқитишнинг асосий ғояси дарс жараёнида ўрганилиши лозим бўлган мавзу юзасидан тузилган ўқув топшириқларини нафақат биргаликда бажариш, балки ҳамкорликда таҳсил олиш, улар ўртасида ижтимоий аҳамиятга молик бўлган ўзаро ёрдам, кўллаб-қувватлашни ўрганишдир.

Ҳамкорликда ўқитиш ҳар бир ўқувчини кундалик қизғин ақлий меҳнатга, ижодий мустақил фикр юритишга ўргатиш, шахс сифатида ҳар бир ўқувчида шахсий кадр-қиммат туйғусини вужудга келтириш, ўз қучи ва қобилиятига бўлган ишончини мустаҳкамлаш, таълим олишда масъулият ҳиссини шакллантиришни кўзда тутди.

Хулоса ўрнида сўзимни ушбу ривоят билан якунламоқчиман.

Кунлардан бир кун кўл бўйида қорни оч қолган бир киши балиқ тутиб турган донишмандга дуч келибди ва унга мурожаат қилиб: “Мен очман, менга ёрдам бер !”. Донишманд куйидагича жавоб берибди: “ Мен сенга балиқ беришим мумкин, сен тез тўясан ва бироз вақт ўтгач, худди шундай яна оч қоласан ва мендан яна ёрдам сўрайсан. Мен сенга қармоқ беришим мумкин, лекин у қачондир синиб қолиши мумкин, унда сен менга яна мурожаат қилишингга тўғри келади. Яхшиси, мен сенга қармоқ ясашни ўргатаман. Бу узоқ ва қийин, лекин кейинчалик сенга менинг ёрдамим керак бўлмайди дебди.

Юқорида келтирилган ривоятдан келиб чиқадиган хулоса шуки, ҳамкорлик таълим технологияларининг ўқувчини сидқидилдан ақлий меҳнат қилишга, ўқув топшириқларини сифатли бажаришга, ўқув материалларини пухта ўзлаштиришга, ўртоқларига ҳамкор бўлиб, ўзаро ёрдам уюштирилишига замин тайёрлайди.

Шундай экан яхши ўқитувчи ўқувчига “қармоқ ясашни ” ўргатиши ва ақлли ўқувчи эса уни ўрганиши лозим.

Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мустақил ишлаш имконияти яъни ўзи ясаган қармоқ билан балиқ тутишига шароит яратиб бериш зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. А.Парпиев, А.Марахимов, Р.Ҳамдамов, У.Бегимкулов, М.Бекмурадов, Н.Тайлоқов. Електрон университет. Масофавий таълим технологиялари Ўзме давлат илмий нашриёти. Тошкент: 2008.

2. Жўраев Р.Ҳ., Тайлақов Н.И., Расулова Г.А. Узлуксиз таълим тизими учун электрон ўқув қўлланмалар яратишга оид илмий-методик талаблар//Узлуксиз таълим. -2005. -№2. -14-27 б.



## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Вафина Альфия Ильгизовна**

Учитель начальных классов спецшколы № 3  
город Ургенча Хорезмской области

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об использовании инновационных технологий в начальных классах.

**Ключевые слова:** учить, раскрытие способностей, инновационные технологии, развивать, метод.

Невозможно представить современный урок без внедрения инновационных технологий. Система образования в современном обществе должна изменяться и совершенствоваться, чтобы соответствовать запросам со стороны общества и государства. И одним из способов, способностью системы образования отвечать вызовам времени, являются инновации – введения, причем качественно новые. Необходимость усвоения учащимися большого объема информации, и выработки практических навыков, новых способов подачи информации, новых технологий и способов обучения, заставляет искать творческие подходы к методикам обучения.

Инновационное образование несет с собой новые основы развивающего образования, как основной модернизирующий фактор образования. Применительно к педагогическому процессу инновация означает введение нового в цели, содержание, методы и формы обучения и воспитания, организацию совместной деятельности учителя и учащегося. Целью инновационной деятельности является качественное изменение личности учащегося по сравнению с традиционной системой.

Особый интерес представляет применение активных и интерактивных методов обучения в начальной школе. Первый метод подразумевает активную деятельность каждого ученика на протяжении всего урока. Постепенно углубляясь в процесс изучения нового материала, ребёнок формирует свою точку зрения на полученную информацию и реальный опыт применения знаний. Второй метод основан на работе в команде, где каждый ученик несёт ответственность за результат. Ребёнок учится достигать позитивных результатов, взаимодействуя с другими людьми. На практике приобретаются навыки общения и работы в команде, а также умение доказательно аргументировать свою точку зрения.

Процесс обучения может включать и следующие активности: упражнения с творческим подходом; групповые задания; игровая форма обучения; уроки в форме экскурсии.

Задания с использованием информационных компьютерных технологий. Именно сочетание традиционных и инновационных методов деятельности в работе учителя начальных классов побуждает учеников мыслить, анализировать и подходить творчески к решению поставленных педагогом задач, а учителю даёт возможность: Повышать профессиональный уровень; Создавать благоприятные условия для развития личности подопечного; Выбирать самые эффективные методы для решения задач обучения; Руководить педагогическим процессом и с большей определённостью предсказывать результат.

Основной принцип современной школы – это раскрытие способностей каждого ребёнка, воспитание качеств думающего человека, способного к жизни в обществе. Учитель, обладая умениями для внедрения инновационных технологий на практике, играет роль режиссёра, мотивируя ребят к принятию решений, при этом корректируя их действия. Среди актуальных и перспективных методов в процессе обучения можно назвать следующие:

**Игровой метод.** Развивает способности ребенка и учит общаться со сверстниками и учителями. Игра помогает школьнику усвоить и закрепить пройденный урок. Множество комбинаторных игр учат быстрой эффективности при решении задач и развивают аналитические способности;

**Проблемное обучение.** Происходит в форме исследовательской деятельности на уроке – создаётся проблемная ситуация в виде задачи. Задания должны быть доступными по трудности и учитывать познавательные способности детей. Обучающиеся в процессе работы включаются в добывание новых знаний, а не просто осваивают информацию

**Проект.** При работе над проектом учащиеся сами узнают о новых фактах, а не получают их



от учителя. Проектная деятельность в совокупности с компьютерными технологиями даёт безграничные возможности для раскрытия потенциала учеников, делает из школьников исследователей и эмоционально заряжает их. Компьютер, интерактивная доска помогают в проектной технологии – не только на уроках, но и во внеурочное время. М е т о д интегрирования. Способствует развитию способностей каждого ребёнка и успешному применению их в дальнейшей деятельности. Знания, полученные на одном уроке, используются на другом, благодаря чему дети начинают видеть реальные связи между предметами.

Такие программы обучения интересны и учителям, так как они эффективно организуют работу на уроке, вовлекают школьников в учебную, проектную, исследовательскую деятельность и формируют качества личности. Учитель должен владеть личностно-ориентированными, развивающими образовательными технологиями, учитывающими различный уровень готовности к обучению в школе.

#### **Список использованной литературы**

1. Чурилов А.А. Современные технологии обучения в образовательных учреждениях.
2. Хижнякова О. Н. Современные образовательные технологии в начальной школе.
3. Ефимов В.Ф. Использование информационно — коммуникативных технологий в начальном образовании школьников.



## ВОКАЛ – ХОР МАЛАКАЛАРИ ВА УЛАРНИ МУСИКА ДАРСИДАГИ АҲАМИЯТИ

**Гоффаров Бахтиёр Абдумаматович**

Наманган вилояти Уйчи туманидаги  
7-сонли умумий урта таълим мактабининг  
музыка фани уқитувчиси

**Annotatsiya:** ushbu maqolada vocal- xor malakalari tahlil etilgan bo'lib, ularning musiqa darsidagi ahamiyati bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** xor, vokal, musiqa, dars, o'quv jarayoni, nutq, ashula.

Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa madaniyati darslarida vokal -xor ishlari, o'quvchilarni axloqiy- estetik tarbiyasi o'qitishining eng faol shaklidir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat e'tiborini kuchaytiradi xotirasi, nutqi rivojlaniradi, ovoz diapazoni kengaytiradi, musiqiy o'quvini o'stiradi, mutatsiya davri yengil o'tadi, dunyoqarashi yildan -yilga shakllanib boradi. Vokal -xor malakalari musiqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat - e'tibori, ongilligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo boiadi. Qo'shiq kuylaganda, ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona jamoaga birlashadi.

Vokal -xor malakalari yordamida o'quvchilar, qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal - xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo'lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal - xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin. Vokal-xor malakalari 6 (olti) turga bo'linadi:

1. Darsda qo'shiq kuylash holati
2. Ashulachilik nafasi
3. Ovoz hosil qilish
4. Sozlanish
5. Ansambl

6. Talaffuz, 1. Qo'shiq kuylash holati, deganda darsda o'quvchilarning o'tirishi va turish holati nazarda tutiladi. O'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turish talab etiladi. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri turish, o'tirib kuylaganda parta suyanchiriga suyanmasdan, yelkalam yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yin va boshni to'g'ri ushish, qo'llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib engashmasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2. Ashulachilik nafasi. Ma'lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o'rtasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug'ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Ashula aytishdagi nafas esa qo'shiq harakteriga qarab, tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo'shiq jumlasining chizmiga, sur'atiga va harakterining ifodalanishiga qarab chuziladi. Sun'iy nafasdan aktyorlar, suhandon va qo'shiqchilar foydalanadilar. SHuningdek, sun'iy ya'ni ehtiyojga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi, Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud: ko'krak nafas; diaffragma nafas; qorin nafas. Kichik bolalarning ko'krak nafas hali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko'krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganiarida yelkalarini ko'tarib, shoshilib va qo'shiq jumlasini, so'zini bo'lib nafas olishlari tabiiydir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Ismoilova «Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish» o'quv qo'llanma. - T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2000 y.
2. H. Nurmatov, O. Ibrohimov «Musiqa» o'quv qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1997 y.



## ИГРА И ЕЕ РОЛЬ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Джуманиязова Гавхар Балтаевна

Учительница русского языка и литературы в  
средней общеобразовательной школе №11 г. Ургенча  
тел. 90 713 55 75

**Аннотация:** в данной статье представлен исторический аспект развития игровой деятельности, через представления о данном явлении философов и ученых. Рассмотрена суть игры с точки зрения учебного процесса. Определены психологические и интеллектуальные качества учащихся, развивающиеся в ходе игрового процесса.

**Ключевые слова:** игра, исторический аспект игры, образовательный процесс

Сегодня, в век информационных технологий большинство людей воспринимает игру как нечто незначительное и несерьезное, иногда, игра отождествляется с баловством. Однако если внимательно изучать данный феномен, то можно обнаружить, что понятие игры гораздо более древнее, чем, культура. Игра архаична и архетипична, она свойственна не только людям, но и всем живым существам на планете. Она является одним из уникальнейших явлений человеческой жизни, она привлекала к себе внимание философов и исследователей всех эпох. Платон считал игру одним из полезнейших занятий, это иллюстрирует знаменитое высказывание Платона об игре: «За час игры Вы можете узнать о человеке больше, чем за год разговоров»; Аристотель же узрел в игре источник душевного равновесия, гармонии души и тела. Безусловно, существовали определенные этапы развития общества, которые сделали невозможным дальнейшее исследование данной деятельности и вызвали резко негативное отношение к игре, но с последней трети XIX века к игровой деятельности появился неподдельный интерес, далее последовали первые теории игры, обусловленные с научной точки зрения. Игру начали рассматривать как важное средство тренировки навыков, необходимых для личностного и психофизического развития, как первичная форма приобщения человека к социуму, а также как один из способов формирования способности к обучению и воспитанию чувства ответственности за свои поступки и свою группу. С психологической точки зрения - игра является уникальной деятельностью, предмет и мотив которой лежат в самом процессе её осуществления. Д.Б. Эльконин считал: «человеческая игра - это такая деятельность, в которой воссоздаются социальные отношения между людьми вне условий непосредственно утилитарной деятельности»

